Albatta, bu muammolar, eng avvalo, uzoq yillar mobaynida yig‘ilib qolgan bo‘lib, so‘nggi yillarda ularni bartaraf etish borasida davlatimiz rahbari tomonidan qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 31-maqсадida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni iqtisod qilish bo‘yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish vazifalari belgilangan. Albatta, bu o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Boisi aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash quvurlar tortish bilangina yechiladigan muammo emas, buning uchun barqaror suv manbai ham bo‘lishi zarur. Buning uchun eng optimal variantlardan biri Andijon viloyatini Xonobod tumanida joylashgan, qo‘shni Qirg‘iziston respublikasi bilan chegaradosh hududdagi Kampirobod suv ombori (Andijon dengizi)dan trubalar tizimi orqali ichimlik suv manbasini tortib kelish hisoblanadi. Faqat mazkur loyihani ishga tushirish uchun 104 ming m³/kun quvvatiga ega bo‘lgan suv tozalash inshooti, 2 ta suv taqsimlash inshooti va uzunligi 120 km ga teng bo‘lgan suv olib kelish quvurini tortib kelish talab etiladi, ushbu ishlarni amalga oshirilishi Farg‘ona viloyatining Quva, Toshloq tumanlari va Farg‘ona, Marg‘ilon, Quvasoy shaharlaridagi hamda Andijon viloyatining Jalolquduq, Buloqboshi, Marhamat, Xo‘jaobod tumanlarida istiqomat qilayotgan 980 ming aholini sifatli markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta‘minlash imkonini beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2023 yil 23 oktyabr kuni hududlarda ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimini yaxshilash, oziq-ovqat ekinlarini ekish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan hududiy va ijtimoiy dasturlarda ichimlik suvi ta‘minoti alohida o‘rin egallaydi. Bu borada xizmat sifatli va doimiy bo‘lishi uchun narx mutanosibligi muhimligini ta‘kidlaydi. Tahlillarga

qaraganda, bugungi kunda 1 kub metr ichimlik suvi tannarxi Toshkent shahrida 448 so‘m bo‘lgani holda Namanganda qariyb 3 ming so‘mni, Samarqand va Navoiyda 2 ming 600 so‘mni tashkil qiladi. Suv ishlab chiqarish tannarxida elektr energiyasi ulushi respublika bo‘yicha o‘rtacha 27 foiz. Lekin Farg‘ona, Namangan va Toshkent viloyatida bu ko‘rsatkich anchagina yuqoriligi ta’kidlandi. Ma’lumki, yurtimizda muqobil energiyadan foydalanishni kengaytirish maqsadida korxonalar, tashkilot va aholi xonadonlarida quyosh panellari o‘rnatilmoqda, bunda eng katta manba suv korxonalarida ishlatadigan elektrning bir qismini “yashil energiya”ga o‘tkazish ekanini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosini toza sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlanish kafolati va suvdan foydalanish xavfsizligiga egadir.

АТМОСФЕРА ҲАВОСИНИНГ ИНСОН ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИ

Азимова М.Б.

Санитария, гигиена ва касб касалликлари илмий-тадқиқот институти

Инсон ҳаётининг сифат даражаси бевосита атроф-муҳит омилларига боғлиқдир. Атроф-муҳитдаги атмосфера ҳавосининг ифлосланиши инсон саломатлигига салбий таъсир этиши натижасида юқори нафас олиш тизими касалликларини келтириб чиқаради. Организмга муттасил равишда ташқи муҳитдан кислород қабул қилиши - бу ҳаёт жараёнининг узилмас занжиридир. Аммо, ҳозирги даврда ташқи муҳитдаги ҳавонинг ифлосланиш даражаси юқорилиги юқори нафас йўллариغا бевосита ва билвосита салбий таъсир этиб келмоқда.

Ҳозирги вақтда тиббиёт нуқтаи назаридан, чанг зарраларининг инсон организмига таъсирининг патогенези етарлича ўрганилган ва уларнинг ҳажми жуда муҳим омил ҳисобланади. Шу муносабат билан ташқи муҳитдаги чангнинг дисперс таркибини ва турар-жой бинолари ҳавосидаги чангнинг концентрациясини ўрганиш билан боғлиқ масалалар алоҳида аҳамиятга эга ҳисобланади. Бир қатор илмий тадқиқотлар натижалари чанг зарраларининг ҳавода узоқ вақт ушланиб туриши туфайли инсон нафас олганда юқори нафас йўллари орқали ўпкада ушланиб қолиши ва унинг салбий таъсир даражаси ўрганилган.

Ўзбекистон Республикасида аҳолининг санитария-эпидемиологик осойишталигини таъминлаш, аҳоли ҳаёти учун қулай ва хавфсиз шароитларни уйғунлаштириш, соғлиғини сақлаш ва мустаҳкамлаш, уларнинг сонини муттасил ошириш масалалари алоҳида долзарб бўлиб, мазкур муаммоларнинг ечимини стратегик ёндашувлари қонунларда кўрсатилган.

Дунё олимлари томонидан атмосфера ҳавосининг юқори даражада ифлосланиши шароитида гигиеник муаммоларни ўрганиш ва шаҳар аҳолиси касалликлар хавфини олдини олиш бўйича бир қатор тадқиқотлар ўтказилган. Атмосфера ҳавосининг ифлосланишида асосий омил бу-антропоген омиллиги кузатилган. Шунингдек ҳавонинг ифлосланиши инсон саломатлигига салбий таъсир кўрсатиб, аллергия ва нафас олиш тизими касалликларини келтириб чиқарувчи сабаблардан бири ҳисобланади. Айнан шунинг учун биз учун нафас олаётган ҳавонинг сифатли бўлиши жуда муҳимдир. Деярли ҳар бир йирик

шахар атмосфера ҳавосида юқори миқдорда ифлослантирувчи моддалар кузатилади, улар экотизим ва аҳоли саломатлигига салбий таъсир этмай қолмайди.

Юқоридаги долзарб муаммолардан келиб чиқиб атмосфера ҳавосидаги майда заррачаларни аниқлаш натижалари асосида атмосфера ҳавосининг майда чанг билан ифлосланишининг аҳоли саломатлигига салбий таъсирини камайтириш бўйича профилактика чораларини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқ деб белгиланди. Бунинг учун атмосфера ҳавосининг ифлосланишига, шу жумладан майда чангга нисбатан чанг этиологияли касалликларининг улушини ҳисобга олган ҳолда аҳолининг касалланиши таҳлил қилинади. Таҳлил натижаларига мувофиқ профилактик чора–тадбирлар ишлаб чиқиш назарда тутилган.

Aholining salomatlik borasidagi savodxonligi, uni yaxshilash choralari. **Arslonova.N.A**

Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida sog'liqni saqlash tizimida bir qancha ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan aholining tibbiy savodxonligini oshirish maqsadida ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Ammo ushbu borada sog'liqni saqlash tizimida bir qancha kamchiliklar mavjud edi. Ular orasida ayniqsa eng dolzarb muammolardan biri bu aholining tibbiy salomatlik borasidagi savodxonligini oshirishdir. Sog'liqni saqlash bo'yicha savodxonlik bu- salomatlikka oid bilim egallay olish, o'qish, tushunish va undan foydalanish qobiliyatidir. Sog'liqni saqlash bo'yicha savodxonlikni odamlar hayot davomida rivojlanib boradigan bilim va tanlov tushunchalarini tanlash, sog'liq uchun xavflarni kamaytirish va hayot sifatini oshirish uchun sog'liqni saqlash to'g'risidagi ma'lumotlar va tushunchalarni izlash, tushunish, baholash va ulardan foydalanish qobiliyatlari va malakalarining keng doirasi sifatida belgilaydi. Sog'liqni saqlash tizimining aholi salomatligi savodxonligini oshirish maqsadida qator targ'ibod ishlari amalga oshirilmoqda. Turli ommaviy axborot vositalarida (OAV) jumladan telekanallarda turli tibbiyotga oid shoular va ko'rsatuvlar namoyish etilmoqda. Olib borilayotgan turli targ'ibod-tashviqot ishlariga va ilmiy amaliy ishlariga qaramay Respublikamiz aholisining aksariyat qismining tibbiy savodxonligi yetarli darajada emas.

Tadqiqotning maqsadi. Shu sababli, bizning tadqiqodimiz aholining tibbiy savoxonligini o'rganish va yanada rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. O'tkazilgan tadqiqotda Buxoro viloyati Vobkent tumanida joylashgan 10-sonli QOP aholisining 200 nafari. Ulardan: 30 nafari homilador ayollar, 30 nafar 50 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan katta yoshlilar, 40 nafari o'smirlar, 100 nafari 25-50 yoshli o'rta yoshlilar. Ularning tibbiysavodxonligini o'rganishda anketa, ststistik tahlil, retrospektiv usul (aholi salomatligini 10 – 15yil oldingi holati tahlili) usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Barcha ko‘rib chiqilgan holatlarda o‘rganilayotgan aholining aksariyat qismining tibbiy savodxonligi yetarli darajada emas. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi yaxshi tashkil qilinmagan. Aholining aksariyat qismi kasal bo‘lgandan so‘ng tibbiyot xodimiga murojaat qiladi. Tibbiy profilaktik ko‘riklarga ko‘pchilik aholining sog‘lom qatlami borishni istamaydi. Kasal bo‘lganda ham avval o‘zbilarmonlik qabilida o‘zini o‘zi davolaydi, ijobiy natija bo‘lmagandaso‘ng shifokorga murojaat qiladi.

Xulosa. Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi qay tarzda yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganish va tibbiy savodxonlik darajasini oshirish maqsadida aholi o‘rtasida targ‘ibod-tashviqot ishlarini amalga oshirish zarur.

Ilmiy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, aholi salomatligini yaxshilash va mustahkamlashda mamlakatimizda olib borilayotgan sog‘liqni saqlash to‘g‘risidagi zamonaviy islohotlarni jamoa orasida keng targ‘ib qilish, aholini tibbiy savodxonligini oshirish, har bir shaxsni o‘z salomatligi uchun javobgarlik hissini sezdirish va profilaktik chora tadbirlarni aholini har bir guruhi uchun alohida tashkillashtirish va uning ustidan nazoratni kuchaytirish zarur.

SOG‘LOM OVQATLANISH ODATINI SHAKLLANTIRISH XAMDA KAL- LORIYANI XISOBLASH

Aliyeva Farizaxon Abdulaziz qizi

Farg‘ona politexnika instituti, O‘zbekiston

To‘g‘ri ovqatlanish bilan bir qatorda ovqatlanish vaqtini ham aniq hisoblash kerak, chunki faqat o‘z vaqtida ovqatlanish energiya sarfini to‘liq qoplaydi. Sog‘lom odam uchun kuniga to‘rt marta ovqatlanish eng oqilona hisoblanadi. Bunda ovqat hazm qilish tizimi tushadigan yuk teng taqsimlanadi, oziq-ovqat yaxshiroq hazm bo‘ladi va o‘zlashtiriladi. 7 soat va undan ortiq interval bilan kuniga ikki marta ovqatlanishda qonda xolesterin darajasi oshadi, tanada yog‘ to‘plana boshlaydi, qalqonsimon bez faoliyati intensivligi pasayadi. Bundan tashqari, uzoq vaqt tanaffusdan so‘ng kishi me‘yordan ortiq ovqat iste‘mol qilishi ko‘p kuzatiladi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, tanlangan tartibga odatlanish uchun ikki yoki uch kun yetarli bo‘ladi. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, har qanday odat 21 kun ichida shakllanishi mumkin. Xuddi shu bayonot sog‘lom ovqatlanish uchun ham o‘rinlidir. Bunday odatni shakllantirish hech qiyin emas, asosiysi aniq maqsad qo‘yish va undan

Kaloriya iste‘moli va oyu-balans bu ratsionning kaloriya tarkibini va oqsillar, yog‘ va uglevodlar (OYu) balansini hisoblamasdan sog‘lom ovqatlanish dasturini tuzib bo‘lmaydi. To‘g‘ri tanlangan ovqatlanish dasturi ochlik va kuchsizlik hissini tuymaslik, tanani yetarli miqdorda oziqa moddalari bilan ta‘minlash, vaznni kerakli darajada ushlab turish va o‘zini yaxshi his qilishga imkon beradi.

Ratsiondagi kaloriya miqdorini hisoblash uchun ruxsat etilgan me‘yorni va kundalik kaloriya miqdorini bilish, shuningdek, turmush tarzini hisobga olish kerak: faol sport bilan shug‘ullanadiganlar uchun kaloriya qiymati ofisda o‘tirib ishlaydiganlarnikiga nisbatan yuqori bo‘lishi mantiqqa mos keladi.

Erkaklar uchun o'rtacha kunlik kaloriya iste'moli yoshi va turmush tarziga qarab 2000–2400 kkal, ayollar uchun — 1800–2400 kkal`ni tashkil etadi. Oqsillar, yog' va uglevodlar balansi odatda quyidagicha bo'lishi zarur:

- Oqsillar — 30-40%;
- Uglevodlar — 40-50%;
- Yog'lar — 20-25%.

Kaloriyaga bo'lgan ehtiyojni hisoblash uchun bir nechta formulalar mavjud. Masalan, JSST formulasi ishga jalb etiladigan tana maydoniga, Ketch-Makardl formulasi esa tanada yog'ning foiziga asoslanadi.

Ovqatlanish tartibiga amal qilish qat'iy sanaladi. Juda kam ovqatlanish ham, tez-tez ovqatlanish yoki doimiy ravishda yengil tamaddilar qilish ham zararli hisoblanadi. Sog'lom kishi kuniga 4-5 marta, ovqatlanish oralig'ini 5 soat dan oshirmagan holda taomlanishi eng optimal sanaladi. Ovqat qabuli oralig'i juda ko'p bo'lsa, modda almashinuvi sekinlashadi va organizm tejamkorlik tartibiga o'tib oladi. Buning natijasida tanada yog' to'plana boshlaydi. Qolaversa televizor qarshisida yoki ish joyida ovqatlanmaslik kerak, chunki bu holda bosh miya to'yganlikni kechroq idrok etadi.

To'g'ri ovqatlanish borasida ko'plab nazariyalar mavjud va deyarli har kuni yangi ma'lumotlar paydo bo'ladi. Ularning ba'zilar go'shtni cheklash kerak desa, boshqa birlari faqat ma'lum bir mahsulotlardan iborat taomnoma har qanday kasalliklardan forig' bo'lish kaliti deyishadi. Aslida inson tanasi juda murakkab tizimdir, uning normal ishlashi uchun u ham go'sht, ham sabzavotli taomlarni talab qiladi. Shu sababli to'g'ri ovqatlanish qoidalarini bilish juda muhim sanaladi. Bu borada shubhali tavsiyalarga amal qilish salomatlikda jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

5-6 YOSHLI BOLALARNING JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR

Atamuratova Ayparshin Saparbay qizi

Sanitariya, gigiyena va kasab kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) 2019-yildagi ma'lumotlariga ko'ra jismoniy faollik darajasining pastligi bolalar orasida 80% ga yetganligi ko'rsatilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash assambleyasi 2018–2030 yillarga mo'ljallangan Jismoniy faollik bo'yicha yangi Global Harakatlar rejasini ma'qulladi va 2030 yilga kelib kattalar va o'smirlar o'rtasida jismoniy harakatsizlikning global darajasini 15% kamaytirish bo'yicha yangi ixtiyoriy global maqsadni qabul qildi, hamda ushbu tashkilotning 2020 yildagi ishlab chiqqan qator tavsiyasilaridan biri bolalar va o'smirlar o'rtasida xaftasiga o'rtacha 60 daqiqa o'rta va kuchli intensivlikdagi aerobik jismoniy aktivlikda bo'lish lozimligini qayd etadi.

Sanitariya, gigiyena va kasab kasalliklari ilmiy-tadqiqot institutining (SGKK ITI) bolalar va o'smirlar gigiyenasi laboratoriyasi tomonidan Toshkent shahar va Surxondaryo viloyatidagi maktabgacha ta'lim tashkilotida (MTT) tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli bolalarning jismoniy sifat ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida tadqiqot

o'tkazilib, bolalarning maktabga chiqishi uchun jismoniy tayyorgarligi darajasi haqida ma'lumotlarni taqdim etdi.

Tadqiqotning materiali va usullari. Tadqiqotda 5-6 yoshdagi va turli jinsdagi 300 dan ortiq bolalar ishtirok etdilar. Bolalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi 1-sinflar uchun qo'yilgan testlar asosida olib borildi, hamda bolalarning tashkilotda va uydagi ovqatlanishi, ijtimoiy-gigiyenik sharoitlarini aniqlashda so'rovnoma usulidan foydalanildi. Tadqiqot ishi 2022-yilning aprel-avgust oylarida o'tkazildi.

Tadqiqotning maqsadi MTT tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligini qiyosiy baholash asosida bolalarni tarbiyalashning ijtimoiy-gigiyenik sharoitlarini yaxshilash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar orasida jismoniy tayyorgarlik darajasi bolalar o'sishi bilan kamayib borayotganligi aniqlandi, buning sababi o'laroq bolalar orasida turli elektron gadjetlardan foydalanishning ortishi, an'anaviy o'yinlarni kamayib borayotganligi va turli sabablarni keltirish mumkin.

Tadqiqotda aniqlangan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1. Kamxarakatlilik: bolalar turli elektron qurilmalaridan ko'p foydalanishi va oynai jahon oldida bir joyda ko'p o'tirishi ushbu omilning kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda.

2. Bolalarning sport bilan shug'ullanmasligi. Bu faktor ham bolalar orasida jismoniy tayyorgarlik darajasining sezilarli kamayib borayotganlini yaqqol namoyon qiladi. Bunga turli sabab sifatida oiladagi moddiy yetishmovchilik, ota-onaning ma'lumoti darajasi, ota-onalarning bolalarini sport komplekslariga olib borishi uchun vaqtning yetishmovchiligi.

3. Ota-onalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi haqidagi bilimlarining kamligi. Ota-onalar ko'pincha bolaning jismoniy tayyorgarligiga emas bilim darajasiga ko'proq ahamiyat berishadi.

Xulosa. SGKK ITI bolalar o'smirlar gigiyenasi laboratoriyasi hodimlari yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalovchilar va ota-onalar orasida jismoniy tayyorgarlik tushunchasi, uning ahamiyati va salomatlik uchun tutgan o'rni haqida tushuntirish ishlarini olib boradi hamda profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

FUNKSIONAL OVQATLANISH MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHDA O'SIMLIK XOMASHYOLARIDAN FOYDALANISH

Atamuxamedova Mas'uda Raximjanovna

Farg'ona Politexnika instituti, O'zbekiston

O'simlik xomashyosidan olinadigan oqsillar, uglevodlar, mikroelementlar, minerallar va antioksidantlarga asoslangan funktsional, davolash va profilaktik ovqatlanish mahsulotlarini, biologik faol oziq-ovqat qo'shimchalarini yaratishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish aholining ovqatlanish tarkibini takomillashtirish yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlarimiz jarayonida biz an'anaviy va funktsional ovqatlarning tarkibiy qismlari sifatida biomodifikatsiyalangan oqsil va polisaxarid mahsulotlarikonsentratlarini olish texnologiyalarini asoslab berdik.Oziq-ovqat oqsillarini ishlab chiqarish uchun ishlatilgan,o'zining proteolitik fermentlari majmuasi bilan biomodifikatsiyalangan moyli o'simliklarning urug'lari - kungaboqar, va zig'ir /1,2/ urug'larning biomodifikatsiyasi natijasida asl urug'larga nisbatan funktsional xususiyatli oqsilli mahsulotlar olindi.

Modifikatsiya natijasida yog'ni bog'lash, ko'piklanish, barqaror emulsiyalar hosil qilish xususiyati yaxshilangan oqsil mahsuloti sifatida surepka, raps, zig'ir va kungaboqar urug'lari an'anaviy va funktsional ovqatlanish mahsulotlarining oqsil komponenti sifatida foydalanish istiqbolli ekanligi asoslandi.

Funktsional ovqatlanish mahsulotlari assortimentini kengaytirish uchunan'anaviy va funktsional maqsadli mahsulotlar taklif qilindi,ular jumlasiga topinamburni qo'shish mumkin, u bir nechta funktsional ingredientlarni o'z ichiga oladi: inulin, eriydigan va erimaydigan ozuqa tolalari - pektin va kletchatka, minerallar va vitaminlardir.Erimaydigan ozuqa tolasi (kletchatka) - taxminan 11%, va eruvchan pektin - taxminan 3%, multivitaminlar, makro va mikroelementlar - K, Na, Ca, Mg, P va Fe, Zn, Mn, Se mos ravishda mavjudligi undan FOM ishlab chiqarishda foydalanishga asos bo'ladi.

1-jadval.Topinamburning kimyoviy tarkibi

Ko'rsatkich	Miqdori, , %
Quruq modda	18,0-19,2
Lipidlar	1,2-1,8
Oqsil (N*6,25)	5,0-6,4
Inulin	35,27-47,71
Kletchatka, pektin	10,48-11,17 1,9-3,2

Shunday qilib, topinambur tunganaging kimyoviy tarkibining xususiyatlarini baholash uni an'anaviy va funktsional maqsadlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarning biologik faol komponentini olish uchun xom ashyo sifatida ishlatishning oqilona ekanligini tasdiqlaydi.

Topinambur kukunini olish uchun topinambur yaxshilab yuvildi, tozalandi,maydalab to'g'raldi. Limon kislota bilan ishlangandan keyin 65-70 haroratda qurtildi,son'gra maydalab elakdan o'tkazildi.Olingan kukunning funktsional xususiyatlari aniqlandi.

Suv ushlab qolish xususiyatining nisbatan yuqori bo'lishi o'rganilayotgan namunada gidrofil birikmalar- tola, pektin va oqsil, mavjudligi bilan izohlanadi -

ko'pikli qiymatlar ko'piklanish xususiyati va barqarorligi mahsulotni quritish jarayonda yengil denaturatsiyaga uchragan oqsil molekulalarining sirt faol xususiyatlari bilan belgilanadi.

Topinambur kukunini organoleptik baholash shuni ko;rsatdiki, mahsulot och jigarrang kukun,yoqimli shirin ta'mga va engil o'simlik hidiga ega.

Topinambur kukunining funktsional xossalari va organoleptik xususiyatlari

oziq-ovqat biotexnologiyasi talablariga javob beradi, bu uni polisaxarid sifatida ishlatish imkonini beradi. An'anaviy va funktsional mahsulotlarning tarkibidagi biomodifikatsiyalangan oqsil / topinambur kukunining nisbati funktsional ovqatlanish statusi korreksiyasi darajasiga qarab o'zgaradi.

YOSH AVLODNI SOG'LOM TARBIYASIDA OILANING O'RNI

Abdurashitova Elena Vladimirovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti biologiya kafedrasida o'qituvchisi

rasidabduravidov4@gmail.com

Muammoning dolzarbligi shundaki, zamonaviy davrda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jamiyatning barcha tuzilmalarini o'zgartirmoqda, unda ijtimoiy faol, jamiyatning barcha tuzilmalarining tez o'zgaruvchan o'zgarishlariga moslashishni biladigan raqobatbardosh shaxs hukmronlik qilmoqda, ta'lim paradigmasining o'zgarishi, unda ijtimoiy faol, raqobatbardosh shaxsning rivojlanishi dominant bo'lib, sifat jihatidan yangi hayot sharoitlariga moslasha oladi.

O'sib kelayotgan yosh avlod bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda raqobatbardosh sifat va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun u muayyan sifatlarning alohida majmuiga ega bo'lishi zarur. Bu qanday fazilatlar, birinchidan, bolaning maktabda yaxshi o'qishidan iborat. Maktab o'quv dasturi bo'yicha mustahkam bilim muvaffaqiyatning 50% ini tashkil qiladi. Jismoniy va psixologik salomatlik, mehnat bozoridagi yuqori raqobat dam olishga imkon bermaydi. Yoshlarda kamchiliklar ko'p, masalan, sog'liq muammolari, rivojlanishdagi nuqsonlar, intellektual va hissiy qobiliyatlarning rivojlanmaganligi va boshqalar. Psixologik muammolar - bu bolalarning maktab turidagi ta'limga tayyor emasligi, motivatsiyaning yo'qligi, dangasalik, o'qituvchi va sinfdoshlar bilan til topisha olmaslik, moslashish, ortiqcha baho yoki o'zini past baholash va hokazolardan iborat. Lekin bu muammolarning asosiy sababi oilaviy tarbiya, maktabdagi muvaffaqiyatsizlik va yomon xulq-atvorning sabablari oilada belgilanadi. Oila bola shaxsini shakllantirishning eng muhim vositasi va asosiy ta'lim muassasasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi, u nafaqat mamlakat fuqarosining ijtimoiy ko'payishiga, balki ma'lum bir huquqning tashuvchisi sifatida ham javobgardir.

Turmush tarzi yoki mentalitet - ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi, urbanizatsiya va ilmiy-texnika taraqqiyotining ta'siri oila pedagogikasining bolalar tarbiyasida ahamiyatsiz rol o'ynashiga olib keldi. Ammo shaxsning shakllanishida oiladagi tarbiyaviy funktsiya asosiy bo'lib qoldi. Oila a'zolari nikoh yoki qarindoshlik, umumiy hayot va o'zaro ma'naviy javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan, tarixiy jihatdan aniqlangan tashkilotga ega bo'lgan kichik ijtimoiy guruh sifatida ta'riflanishi mumkin. Oila bolaga har tomonlama, chuqur ta'sir ko'rsatadi va normal tarbiyaning asosiy omili hisoblanadi. Oila ishtirokisiz tarbiyalangan bolalar rivojlanishda orqada qoladilar, oilasi bor bolalarga qaraganda, ularda psixologik va hissiy rivojlanishda ko'proq kamchiliklar mavjud. Oila tarbiyasining zarurligi quyidagicha izohlanadi: 1. Oila tarbiyasi yanada ochiqroq, bu ota-onaning farzandga bo'lgan mehr-muhabbati va o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari, bolalarda ota-onaga ishonch, xavfsizlik va kelajakka ishonch hissi ruhida tarbiyalanadi. 2. Bola ayniqsa erta yoshda oila ta'siriga duchor bo'ladi. U atrofdagi oila a'zolarining xulq-atvor namunasini ko'chiradi. U ular kabi bo'lishga harakat

qiladi. 3. Oila - bolaning ijtimoiy hayot talablarini o'rganadigan va ularga qo'shiladigan, dunyoqarashi, hayotiy tajribasini kengaytiradigan maskan. 4. Boshqa tomondan, oila nima - birgalikda yashash, bu erda turli yosh, jins va kasbiy guruhlar mavjud. Ko'p sonli oila a'zolari bilan muloqot qilish, bola o'zining hissiy va intellektual imkoniyatlarini faol ravishda namoyish etadi, ularni tezroq amalga oshiradi. Oila bolalarni ijtimoiylashtirishning asosiy omili bo'lib, insonning butun hayoti davomida jismoniy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi ko'p jihatdan unga bog'liq. Oila o'zini tutishning eng muhim qoidalarini qo'yadi, ulg'aydi, bu qoidalardan butun umri davomida foydalanadi. Oilaviy ta'lim nafaqat bolaning ijtimoiylashuvidan, balki ota-onalarning o'zlarini bolalarda ma'naviy ko'paytirishdan, bolalarni himoya qilishda, mehr-muhabbatda va homiylik qilishda nafaqat jamoat va davlat manfaatlariga javob beradi. Oilaviy hayotda turli munosabatlar, maishiy, psixologik, estetik, axloqiy-huquqiy, madaniy va hokazolar mavjud. Bu sohalarining har biri bola shaxsining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Oila kelajakdagi kasbni tanlashga ta'sir qiladi, butun kelajak hayotining asosidir. Oilada boshqa odamlarning mehnatini qadrlash va hurmat qilish qobiliyati rivojlanadi: ota-onalar, qarindoshlar; bo'lajak oila odamining tarbiyasi amalga oshiriladi. Oila muammolari bilan shug'ullanuvchi psixologlar, o'qituvchilar va olimlarning ishlari, o'zlarining nazariy izlanishlari asosida oilada farzand tarbiyasi sabr-toqat, xushmuomalalik, bolalar psixologiyasini, eng muhimi, ota-onadan bilim talab qiladigan juda murakkab, nozik masaladir. Ijobiy natijalarga qiziqish va hokazolardan iborat. Ijtimoiy munosabatlar rivojlanishining hozirgi bosqichida oilaviy ta'lim muammosini o'rganish yakuniy natijaga erishish samarasizligining bir qancha sabablarini aniqlashga imkon beradi. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz, ular qanchalik ko'p sirtida yotadi. Bu sabablar yashash sharoitlarida va ota-onalarning oiladagi tarbiyaviy funktsiyaga tayyorgarlik darajasida yashiringan. Bolalarning oiladagi muvaffaqiyati ota-onalarning yoshiga, ularning hayotiy tajribasiga bog'liq.

Ota-onalarning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular bolalarni tarbiyalashga ko'proq vaqt ajratadilar. Agar oliy ma'lumotli turmush o'rtoqlarning farzandlari bo'lsa, ular bolalarga o'zlaridan kam bo'lmagan ta'lim berishga intilishadi. Qoida tariqasida, bunday oilada har bir bolani tarbiyalash darajasi va talabchanligi oshadi. Har bir oilada ma'lum bir ta'lim tizimi mavjud. Ta'lim tizimi deganda tarbiyaning maqsadlari, asosiy vazifalari, tarbiya usullari va usullari, bolaga nisbatan nima yo'l qo'yilishi va yo'l qo'yilmasligi tushuniladi. Ota-onalar bolaning birinchi ijtimoiy muhitini tashkil qiladi. Ota-onalarning shaxsiyati har bir inson hayotida asosiy rol o'ynaydi. Dastlabki bosqichlarda bolalar va ota-onalar o'rtasida paydo bo'ladigan his-tuyg'ular bolaning hayotini saqlab qolishdir. Har bir bolani ota-onasiga cheksiz sevisish hissi, albatta, cheksizdair. Agar hayotning birinchi yillarida ota-onalarga bo'lgan muhabbat o'z hayoti va xavfsizligini ta'minlasa, u holda ota-ona sevgisi o'sib ulg'aygan sayin bolaning ichki, hissiy va psixologik dunyosini xavfsiz saqlash vazifasini tobora ko'proq bajaradi. Ota-onalarning sevgisi inson farovonligining manbai va kafolati, aqliy va tana salomatligini saqlashdir.

Oilaviy ta'lim tizimida asosiy va muhim o'rin bolalarning mehnat tarbiyasiga tegishli. Erta yoshdan boshlab bolalar uy ishlarida ishtirok etishga, kattalarga jismoniy

qobiliyatlari bilan yordam berishga, o'yinlarida turli xil mehnat turlariga taqlid qilishga intilishadi. Ota – onalarning muhim vazifasi bolalarni mehnat faoliyati uchun o'qitishdan qaytarmaslik, ularni bu borada rag'batlantirish va har qanday yordam ko'rsatishdir. Eng oddiy harakatni ishonib topshiring. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatishning arzon shakllari, uydagi oddiy ishlarda qatnashish bolaga turli xil ko'nikma va ko'nikmalarni egallashga imkon beradi. Ular mehnatning inson hayotidagi rolini tushunishga yordam beradi, jamiyat va oila kasblar bilan tanishtiradi. Ijtimoiy foydali mehnat jamiyatning vijdonli, mehnatsevar a'zosini tarbiyalaydi va tayyorlaydi, kelajakda o'zini va oilasini barcha zarur narsalar bilan ta'minlay oladi va jamiyat va umuman davlatga foyda keltiradi. Qoida tariqasida, ota-onalar psixologiya va pedagogika bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega emaslar. Ular eski uslubda harakat qilishadi va shu bilan bolaning taqdiriga ta'sir qilib, tuzatib bo'lmaydigan buzilishlarni keltirib chiqaradilar. Ba'zilar yoshlarni haqorat qilayotganini eshitaman. Birinchidan, yoshlar boshqacha. Ikkinchidan, agar yoshlar bilan biron bir narsa noto'g'ri bo'lsa, demak-oqsoqollar, ota-onalar, oila, jamiyat tomonidan ishlab chiqilmagan. Ular diqqatli, xayrixox emas edilar, balki befarq rolni afzal ko'radilar kuzatuvchi har qanday yoshdagi bolani o'rganish va to'g'ri tushunish uchun tasodifiy suhbatlar, uning hatti-harakatlarini kuzatish, uyda ham, ko'chada ham, jamoat joylarida, maktabda, ish paytida, dam olish paytida, bola nimani o'qiydi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazadi, kim bilan do'stlashadi, qanday o'yinlar o'ynaydi. Ishonch-bu ota va onaning hatti-harakatlarining asosiy yo'nalishi. Bola ularga ishonishi juda muhimdir. Bolani tarbiyalash va uning hayotini tashkil etish o'zlarini tarbiyalash, oila hayotini tashkil etish, sog'lom mikroiklimni ta'minlaydigan yuqori axloqiy oilaviy munosabatlarni yaratish bilan boshlanadi. Kattalar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning hissiy reaksiyalarini kuzatish va o'ziga yaqin odamlarning his – tuyg'ularining turli xil ko'rinishlarini his qilish orqali bola axloqiy va hissiy tajribaga ega bo'ladi. Oilada, sinfda tinch muhitda bola xotirjam, u xavfsizlik hissi, muvozanat bilan ajralib turadi.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan.

Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, iymon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zamini-mizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, vatanimizni har ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

Barcha oila, maktab, jamoat, partiyalar aybdor. O'zingizga, keyin esa boshqalarga savollar berishni boshlashingiz kerak. Ular bizning jamiyatimizning bir xil a'zolari, so'zlar va ishlar, harakatlar va harakatsizlik, befarqlik va e'tiborsizlik uchun javobgarlikni o'rganishlari kerak. Lekin, ular bizning kelajagimiz, biz ular bilan ishlashimiz kerak. Va bu strategik masala hamda bu erda aniq yangi zamonaviy texnologik baza kerak. Bizga temir-beton dalillar, yangi pedagogik echimlar va yondashuvlar kerak. Yoshlar nozik his qilishadi. Va ular o'zlariga tortilishi kerak va qaytarilmasligi kerak. Bola bilan chuqur doimiy psixologik aloqa - bu barcha ota-onalarga bir xil darajada tavsiya etilishi mumkin bo'lgan universal ta'lim talabidir, har qanday yoshdagi har bir bolani tarbiyalashda aloqa zarur. Bu ota-onalar, o'qituvchi, do'stlar bilan aloqa qilish hissi va tajribasi bo'lib, bolalarga ota-onalarning mehrini, mehrini va g'amxo'rlikini, o'qituvchining samimiy qiziqishini, do'stlarining sadoqati va mehrini his qilish va anglash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Allanazarova I., Abdrashitova I. "Maktabda biologiyani o'qitish metodikasida istiqbollari, muammolar va ularni hal qilish usullarini tahlil qilish". // Nuuz Gazetasi. Toshkent-2022. 69-71 sahifalar
2. Abdrashitova E. V. "Maktabda akademik ko'rsatkichlarni qanday oshirish kerak". Yangi O'zbekistonda pedagogik xalqaro-amaliy konferensiyasi materiallari talim innovatsions klasterini rivojlantirish istiqbollari. Chirchiq-2022 yil. 81-84 betlar.
3. Asadullina, M. N. Bolani tarbiyalashda oilaning roli 2012 yil.

ISH JOYI HAVOSI IFLOSLANISHINI GIGIENIK BAHOLASHDA DISPERS FRAKTSIYALI MODDALARNI NAFAS OLISH ORQALI TA'SIR HISSASINI XISOBLASH USLUBI

Adilov O'.X.¹, Begmatov B.A.¹, Odilov J. O'.²

¹Mehnat bozori tadqiqotlari instituti,

²Belarus-O‘zbekiston tarmoqlararo amaliy texnik malaka instituti

Mehnat tibbiyotining bugungi rivojlanishi ishlab chiqarish sharoiti bilan bog‘liq kasalliklar rivojini asoslashga imkon yaratdi. Ish joyi havosi tarkibidagi dispers fraktsiyali moddalar zarralari (*keyinchalik – DFMZ*) bilan iflaslanishning inson salomatligiga ta‘sirini o‘rganish tibbiyotning dolzarb muammosi hisoblanadi. Birinchi navbatda, inson nafas olish a‘zolari orqali tana ichiga kiruvchi havodagi muallaq xolatdagi DFMZ miqdorini aniqlash o‘ta muximdir. Nafas olishda og‘iz yoki burun orqali kiruvchi havodagi DFMZ (xorij adabiyotida – inhalable fraction), havodagi barcha zarralar massa og‘irligi bilan aniqlanadi.

Halqaro ISO 7708:1995 «Havo sifati. Sanitar-gigienik nazorat qilishda zarralarning granulometrik tarkibini aniqlash» standartida o‘pka kasalliklari rivoji extimolini baholash uchun nafas olish havosidagi DFMZ bo‘yicha me‘yor belgilangan.

Mazkur talablar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yildagi 012-3/0321-son “Ish joyi havosi ifloslanishida dispers fraktsiyali moddalarni nafas olish orqali ta‘siri hissasini xisoblash uslubi”da tasdiqlandi.

Zararli DFMZ ni xodimlarga ta‘sirini kamaytirishda samarador *shaxsiy himoya vositalari (ShHV)* qo‘llash ahamiyatlidir. Bunda, respirator va niqob (yarim niqob) filtrlar sifat samaradorligiga – *o‘tkazuvchanlik koefitsienti* kirib, uning samaradorligini baholash formulasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$O'tkazuvchanlik\ koefitsienti = \frac{K_{filtrdan\ so'ng}}{K_{filtrgacha}} \times 100\%, \quad bunda$$

$K_{filtrgacha}$ – DFMZni filtdan o‘tishdan oldingi miqdori;

$K_{filtrdan\ so'ng}$ – DFMZni filtdan o‘tgandan so‘ng bo‘lgan miqdori.

Yarim niqobli filtrlar filtrlovchi materiallarga qarab, GOST 12.4.294-2015 standarti asosida (havo oqimi 95 dm³/ daqiqa bo‘lganda) himoyalash sinfiga bog‘liq xolda quyidagicha toifalanadi:

- FFP1 – 20%, past samarali (zarralar miqdorini 80% gacha ushlab qoladi);
- FFP2 – 6%, o‘rtacha samarali (zarralar miqdorini 94% gacha ushlab qoladi);
- FFP3 – 1%, yuqori samarali (zarralar miqdorini 99% gacha ushlab qoladi).

Shuningdek, mazkur filtrlovchi yarim niqoblar o‘tkazuvchanlik koefitsienti quyidagicha:

- FFP1- 25%; - FFP2- 11%; - FFP3- 5%.

Standartga muvofiq, yarim niqob filtr sifati va inson yuz qismiga zich turishi darajasini baholash uchun standartlashtirilgan sinov uslubiyati bo‘yicha zarralarni yarim niqob ichiga *kirib borish koefitsienti (KBK)* aniqlanadi:

$$KBK = \frac{K_{niqob\ ostida}}{K_{atrof\ muhitda}} \times 100\%, \quad bunda$$

$K_{niqob\ ostida}$ – DFMZni niqob ostidagi miqdori;

$K_{atrof\ muhitda}$ – DFMZni atrof muhitdagi miqdori.

Filtrlovchi yarim niqobli ShHV uchun me‘yorlangan KBK ko‘rsatkichlari:

- FFP1 – 22%; - FFP2 – 8%; - FFP3 – 2%.

ShHV samaradorligini baxolashda - *himoya nominal koefitsienti (HMK)* tuzilishi (filtrlovchi niqoblar himoya sinfi toifasi) va havoni ifloslanish darajasi (*REM - ruxsat etilgan miqdor*)ga qarab belgilanadi:

- FFP1 – 4 REM gacha; - FFP2 – 12 REM gacha; - FFP3 – 50 REM gacha.

Samarador ShHV qo'llash to'g'ri tanlanganligini baholash uchun oddiy bo'lgan usulda: xodim nafas olish a'zolari ShHV ni taqadi va shirin yoki achchiq xidli muhitda nafas oladi. Himoya vositasi to'g'ri tanlangan bo'lsa, havo oqimi faqat filtr orqali ichkariga kiradi.

1,2-ilova

“Gigiyena va tibbiy ekologiyaning bugungi zamon muammolari” xalqaro ishtirokidagi ilmiy-amaliy konferensiya tashkiliy qo'mitasi ishtirokchini ro'yxatdan o'tkazish shaklini to'ldirishingizni va bizga yuborishingizni so'raydi.

РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ПИЩЕВОЙ АЛЛЕРГИИ НА КОРОВЬЕ МОЛОКО И КУРИНЫЕ ЯЙЦА

Абдуллаева Дилафруз Гайратовна

Ташкентская медицинская академия, г.Ташкент, Узбекистан

В литературных источниках часто приводятся данные о гиперчувствительности немедленного типа на пищевые продукты. Следует отметить, что при контакте с пищевыми аллергенами развивается гиперчувствительность к определенным белкам (атопия) и образуются антитела к иммуноглобулину E (IgE). При повторном контакте sIgE-антитела распознают эти белки и перекрестно сшиваются. Образуются агрегаты, из тучной клетки высвобождаются медиаторы, формируются в гистамин или вновь образуются в мембране простагландины, лейкотриены. В зависимости от органов мишеней, таких как кожа, слизистые оболочки, дыхательные пути, желудочно-кишечный тракт, сердечно-сосудистая система, развиваются симптомы.

Существуют региональные различия пищевой аллергии на животные аллергены, так по данным исследователей, чувствительность на коровье молоко распространена у 1-3% лиц (Rance et al., 1999, Bahna, 2002), а на говядину составляет около 1-10% (Lessof et al., 1980; Sampson and McCaskill, 1985; Bock, 1987; Fiocchi et al., 1995; Werfel et al., 1997, Burks, 1999), на рыбу колеблется до 8% у детей (Werfel et al., 1997; Emmett et al., 1999; Sicherer et al., 2004, Soller et al., 2012; Van Veen et al., 2013; Hochwallner et al., 2014) и в пределах 0,56-0,73% у взрослых (Hochwallner et al., 2014, M.Inam et al., 2016). Пищевая аллергия на курицу варьирует до 13% (Sampson and McCaskill 1985; Burks 1999; Obeng et al. 2011; Lao-araya and Trakultivakorn 2012), чувствительность на яйца составила 0,9% среди всех детей и 1,3% среди детей младше 5 лет в США.

При наличии пищевой аллергии на коровье молоко и куриные яйца у детей, следует учитывать характер виновного аллергенного белка. При выявлении у больных пищевой аллергии на термостабильные белки коровьего молока - казеина и куриного яйца - овомукоида, то им не рекомендуется прием даже термически обработанных видов коровьего молока и куриных яиц, блюд, приготовленных с добавлением их компонентов. Таким образом, существует группа детей с аллергией на коровье молоко и куриные яйца, которые вряд ли перерастут свою пищевую аллергию. Следует отметить, что при наличии у больного sIgE на куриные яйца, отмечали пищевую аллергию на коровье молоко

(9,68%), продуктам, содержащим компоненты молока, т.е. йогурт (9,14%), бычий сывороточный альбумин (12,37%).

Выводы. Таким образом, чувствительность к компонентам аллергенов куриных яиц в раннем детстве является предиктором развития атопического марша и бронхиальной астмы на будущем. Распространенность пищевой сенсibilизации очень высока у младенцев и постепенно снижается после года, так у мальчиков с атопическим дерматитом до года наблюдают сенсibilизацию на коровье молоко и куриные яйца. Сенсibilизация к пище в возрасте 1 год может предсказать появление у детей повышенного риска подростковой сенсibilизации и вероятной пищевой аллергии в подростковом возрасте.

КЛИМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ К ПИЩЕВЫМ АЛЛЕРГЕНАМ

Абдуллаева Дилафруз Гайратовна

Ташкентская медицинская академия, г.Ташкент, Узбекистан

Актуальность работы. Проблема питания является одной из глобальных проблем, с которой столкнулось человечество. По данным статистики, в крупных городах с каждым годом увеличивается количество больных с аллергией на различные пищевые продукты. Производители продуктов питания постепенно осознают всю масштабность этой проблемы. Поэтому разработка новых методов снижения аллергенности пищевого сырья только начинает осуществляться или находится на стадии планирования разработок.

Материалы и методы исследования. С целью выявления растительных и животных пищевых аллергенов нами были исследованы сыворотки 186 детей АЗ в возрасте 1-18 лет, получивших лечение в Республиканском научно-специализированном аллергологическом центре и Республиканском научно-специализированном центре дерматовенерологии и косметологии, в частной клинике Medik-as, ТТД.

Из 186 больных, 110 мальчиков и 76 девочек, средний возраст которых составил $11,77 \pm 7,98$ лет.

Результаты и обсуждение. В результате исследований нами определены самые распространенные аллергены у детей такие как, пшеница (23,12%), гречиха (18,28%), клейковина (17,74%), куриные яйца (15,59%), арахис и орехи (14,52%), лимон, клубника, ананас, банан, груша (11,29%), овес (10,22%), КМ (9,68%), йогурт (9,14%), рис (8,6%), говядина, баранина и свинина (4,3%), мясо птицы: куриное мясо, мясо утки, гуся, индейки.

Среди бобовых пищевая аллергия на арахис в Пакистане составила 12%, а в Голландии (Añibarro-Bausela et al. 2010) – 13% и в США (Kumar et al. 2011) – 13,4%, а в Великобритании у детей в возрасте до 3 лет – 0,4%. Пищевая аллергия на сою у детей встречалась до 1,5% (Kristjansson et al., 1999; Emmett et al., 1999; Venter et al., 2006; Osterballe et al., 2009, Obeng et al., 2011; Van Veen et al., 2013), а у взрослых составила 0,03% (Vierk, 2007).

Выявлена пищевая аллергия на чечевицу в Пакистане у 15,4% лиц, в Испании – у 12,6 % опрошенных (Dalal et al. 2002), а в Великобритании (Emmett et al. 1999) – у 0,04%, в Европе (Martinez-Gimeno et al. 2000) – у 2% лиц. Тогда как пищевая аллергия на рис составила 12,5% в Пакистане (M.Inam et al., 2016), около 30% в Малайзии (Burks, 1999), 121% в Индии (Woods et al., 2002), а на лесные орехи может развиваться во взрослом или детском возрасте, частота распространения у детей составляет 0,52%, а у взрослых — 0,87%.

Зарегистрированная распространенность чувствительности на лесные орехи достигает 5% во всем мире, основные белки, участвующие в аллергических реакциях на лесные орехи, являются белками-переносчиками липидов, 2S-альбуминами, легуминами, вицилинами и олеозиновыми белками. Гомологи и профилины *Bet v 1* участвуют в аллергии, связанной с пылью лесных орехов.

Выводы. Следует отметить, что наиболее распространенные детские пищевые аллергии обычно перерастают к подростковому или взрослому возрасту. Однако пищевая аллергия на арахис и лесные орехи чаще сохраняется во взрослом возрасте.

QIMMATBAHO SOYA O‘SIMLIGINING INSON SALOMATLIGIDAGI AHAMIYATI

¹Abdurasulov Sh.O. ²Abdikarimov Sh., ³Xoliqova M.A.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 3-bosqich talabalari
³Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisri

Soya yer sharida keng tarqalgan qadimiy ekinlardan biri hisoblanadi. Soya *Fabaceae (Leguminosae)* oilasi, *Papilionoideae* kenja oilasi, *Phaseoleae* qabilasi va *Glycine* jinsiga kiradi. Dunyo dehqonchiligida yetishtirilishi bo‘yicha bug‘doy, sholi, makkajo‘xori ekinlaridan so‘ng to‘rtinchi o‘rinda turadi. Olimlarning fikriga ko‘ra, soyaning vatani Osiyoning janubiy-sharqiy rayonlari hisoblanadi. Sharq mamlakatlari-da soya qadimdan oziq-ovqat ekini sifatida ekib kelingan. Soya Xitoyda bundan 6 ming yillar muqaddam ham ekilgan. Hindiston soyaning Xitoydan keyin keng tarqalgan ikkinchi vatani hisoblanadi[1].

Soya yer sharining boshqa mamlakatlarida ham keng maydonlarda ekila boshlaganiga 100-120 yil boldi. Keyingi 30 yil ichida soya ekiladigan maydonlar tezlik bilan kopayib bormoqda. Soya hozirgi kunda oqsil tanqisligini hal etishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Soya oqsili ozining kimyoviy tarkibi jihatidan hayvon oqsiliga o‘xshash bo‘lgani uchun ham barcha rivojlangan mamlakatlarda yetishtirilmoqda. Masalan, Yaponiyada sholi va sabzavot ekinlaridan keyin soya ekilgan yerlar o‘z kattaligi jihatidan uchinchi o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda bu mamlakatda ipak qurti boqishda ham soya oqsilidan foydalanilmoqda.

Seleksioner olimlar qurg‘oqchilikka chidamli, turli tuproq-iqlim sharoitlarida o‘sa oladigan, gerbisid va pestisidlarga moslashgan, tezpishar va tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori bolgan navlar yaratish borasida ko‘plab tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Keyingi paytda yaratilgan soya navlari ozlarining kasalliklarga chidamliligi, yotib qolmasligi hamda gektaridan ortacha 35-40 sentner hosil berishi bilan avvalgi navlardan ustun turadi.

Ma'lumki kundalik hayotda odamlar va hayvonlar uchun eng zarur modda bu oqsildir. Oqsil bugdoyda 13-16 % , yasmiqda 30 % , no'xatda 25 % , yer yong'oqda 29 % soya donida 40-42 % gacha bo'ladi. Serhosil soya navlarida 55 % gacha oqsil uchraydi Soya o'simligi doni va oqsilidan to'rt yuzdan ziyod turli xil mahsulotlar tayyorlanadi va ular xalq xo'jaligining barcha sohalarida ishlatiladi[3].

Soyaning kimyoviy tarkibida uning inson organizmi tomonidan eng tez hazm bo'lishi, zararsizligi bilan paxta va boshqa o'simliklar moyidan ustun turadi.

Doni tarkibida 45% gacha oqsil va 25 foizgacha o'simlik moyi saqlaydi. Shuningdek, soya doni tarkibida hayvon oqsilida uchraydigan barcha almashlab bo'lmaydigan aminokislotalarni saqlaydi. Shuning uchun soya oqsilidan sut, qatiq, tvorog, pishloq, turli xil go'shtlar, ekologik toza sifatli moy, tuxum poroshogi - tarkibida letsitin moddasi saqlaydigan olish mumkin. Soya oqsilidan qon plazmalari, ko'z oynaklar uchun sifatli linzalar olinadi. Bundan tashqari jun gazlamalar ishlab chiqiladi.

Soya uni qo'shib tayyorlangan non mahsulotlari qotib qolmaydi va ular 4-5 kun davomida yumshoq bo'lib turadi hamda faqat bug'doy unidan pishirilgan nonlarga qaraganda ikki marta to'yimli hisoblanadi.

Chorvachilikda soya mahsulotlari, eng sifatli va tuyimli yem-xashak ozuqalari bo'lib hisoblanadi. Soya doni tarkibidagi proteinga ko'ra 100 kg. soya doni 134,8 ozuqa birligi saqlaydi. Bu ko'rsatkich boshqa bironta donli yoki dukkakli ekinda uchramaydi.

Soya donidan moy zavodlarda moy ajratib olingandan so'ng qolgan shroti tarkibida 14 xil aminokislota mavjud bo'ladi[2].

Ana shu moddalar 3 kunlik jo'jalar uchun aminokislotalarga boy ozuqa sifatida tavsiya qilinadi. Katta tovuqchilik fermalarida soya shroti bilan oziqlantirilganda ulardan olinadigan tuxum soni ortadi.

Soya oqsilidan ipakchilikda ham ozuqa sifatida foydalaniladi. Masalan Yaponiyada bir yilda besh martagacha ipak qurti boqiladi. Bunda, soya oqsilidan suyultirilgan pastalar tayyorlanib qurtlar oziqlantiriladi. Bu o'simlik tuproq unumdorligini oshirish borasida ham eng muhim ekinlardan biridir.

Soya dukkakli o'simlik sifatida o'z ildizlari orqali havodan sof azotni o'zlashtirib oladi va tuproqni azot bilan boyitadi. Soya bugungi kun dehqonchiligida eng muhim ekin bo'lib, tuproq strukturasi yaxshilab, biologik unumdorlikni oshiradi, o'zidan keyin tuproqda 55-60 kg. miqdorda sof azot qoldirib ketadi. Soya ekilgan dalalarda tuproqning mikroflorasi yaxshilanadi, tuproqda biologik va ekologik tizim vujudga keladi. Chuvalchanglar, rizobium bakteriyalari va boshqa foydali organizmlar yashashi uchun qulay muhit yuzaga keladi.

Ilmiy tajribalarda soya ekilgunga qadar tuproqdagi gumus miqdori 0,65-0,72% bo'lgan bo'lsa, soya ekilgandan keyin kuzda gumus miqdori 0,95-1,03% ga yetishi ko'rsatib berilgan. Soya yetishtirish orqali ikki muhim muammoni;

- tuproqni biologik azot bilan boyitish, azotli o'g'itlarni kam sarflash orqali fermer xo'jaliklarining samaradorligini ortishiga

- aholini eng sifatli, tarkibida inson uchun zararli moddalari bo'lmagan o'simlik moyi bilan ta'minlashga erishamiz[4].

Soya o'simligini ikki muddatda ekish mumkin. Birinchisi bahorda tuproq harorati 12-14⁰ C bo'lganda yoki makkajo'xori bilan bir muddatda, ikkinchi muddat takroriy ekin sifatida donli ekinlardan so'ng ekiladi. Soyaning ertapishar navlari 1200-1500⁰ C, o'rtapishar navlari esa 1800-2100⁰ C talab qiladi.

Soya o'simligini asosiy va takroriy ekin sifatida ekishda uning navlarini to'g'ri tanlab olish muhim hisoblanadi.

Ertapishar navlarni o'suv davri 70-75 kun bo'lsa, o'rtapishar navlar 100 -110 kun va kechpishar navlari esa 135-140 kunda pishib yetiladi. Qaysi muddatda ekilishiga qarab navlar tanlanadi. Kechpishar navlarni takroriy ekib bo'lmaydi, ular takroriy ekilganda pishib yetilmaydi. Bu hollarda ularni silos yoki ko'k poya sifatida o'rib mollariga berish mumkin bo'ladi.

Soya navlari ekish me'yori gektariga 60-70 kg bo'lib, qator oralari 70 sm. kenglikda ekilishi maqsadga muvofiqdir. Qator orasi 90 sm. bo'lganda tup soni kamayishi evaziga hosildorlik kamayib ketadi. Ekish pnevmatik seyalkalarda amalga oshirilib, urug'lar tuproqning tarkibiga qarab 4-6 sm. chuqurlikka tashlanadi va urug' suvi beriladi. Tup soni bir gektarda 400, 500, 600 ming, tup bo'lishi o'rganilmokda. O'suv davrida 2-3 marta kultivatsiya o'tkaziladi. Dehqonchilikda eng asosiy agrotexnik tadbirlardan biri o'simlikning o'sib-rivojlanish davrida uning qator oralariga ishlov berishga katta ahamiyat berish lozim.

Soya nihollari ko'rinib qolishi bilan ularga ishlov beriladi. Kultivatsiyani o'z vaqtida va sifatli o'tkazib, begona o'tlarga qarshi kurash olib boriladi. Birinchi kultivatsiya soya nihollari 3-4 chinbarg chiqarganda 10-12 sm. chuqurlikda o'tkaziladi. Ikkinchi va uchinchi kultivatsiya uning chuqurligi 8-10 sm. bo'lishi kerak. Kultivatsiya bilan birgalikda o'simlikni azot o'g'iti bilan oziqlantirish yaxshi natija beradi.

Vegetatsiya davrida sug'orish ishlari yer osti suvlarining joylashishiga qarab olib boriladi, grunt suvlari 1,5-2,0 m. bo'lsa o'suv davrida 3-4 marta sug'oriladi. Ildizlari baquvvat bo'lgani uchun sug'orishga qarab yetib boradi. Yer osti suvlari uzoq yoki pastda joylashgan bo'lsa unda sug'orish soni oshiriladi. Vegetatsiya davrida sug'orish muddatlari quyidagicha: birinchi sug'orish shonalashda, ikkinchisi dukkaklar shakllanishida, keyingi sug'orishlar don hosil bo'lish jarayonida amalga oshiriladi. Shunda sug'orish me'yorlari gektariga 800-1000 m³ ni tashkil etadi.

Soya hosili to'liq pishib yetilganda, ya'ni dukkagi qo'ng'ir tusga kirib, urug'i qattiq bo'lib, barglari to'kilganda yig'ishtirib olinadi. Hosilni qisqa vaqt ichida yig'ishtirib olish lozim, aks holda aksariyat qismi nobud bo'lishi mumkin. Hosil yig'ib olingandan so'ng tozalanib, saralanadi va 14% namlikkacha quritiladi. Soya doni quruq va shamol o'tib turadigan xonalarda yaxshi saqlanadi.

ПИЩЕВАЯ ЦЕННОСТЬ БАД К ПИЩЕ «МАYSARA»

Акназарова Д.Б., Юсупова О.Б.

The fact that humans contribute immensely to environmental pollution has been well-established. Among the numerous ways in which we individually add to the level of pollutants in the environment, car pollution tops the list. The obvious reason being that it is one of the widely used modes of personal transportation[6]. Many people, who associate themselves with the cause of environmental protection, sometimes fail to notice that they themselves are on the same side of the fence. Our automobiles cause all sorts of pollution, be it air, water, noise or even land. Lamenting the present scenario or frantic calls for an abrupt end to all things concerning automobiles is a hypothetical idea if we look at it pragmatically[4]. Therefore, the need of the hour is to continue with sustained efforts in producing environment-friendly automobiles and raise awareness among people on this issue. We need to understand our purview on the cause of environmental conservation and work in coadjuvancy to achieve the results. To get a greater understanding on the impact of car pollution on the environment, let us take a look at the topic in detail[2].

Conclusions

Based on the above words, we must follow the following recommendations: the government must establish emission control standards for minimum levels of emissions pollutants and regularly inspect all road vehicles and apply severe penalties to vehicles that have not passed the emission test. Import vehicles from eight to three years old from the date of manufacture must reduce the age.

IRSIY KASALLIKLARNI RIVOJLANISHIDA TASHQI MUXIT OMILLARINING TA'SIRI

KADIROVA HULKAROY ABDUVASIYEVNA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Gistologiya va biologiya kafedrasida o'qituvchisi

Genotipning o'zgarishi bilan yuzaga chiqadigan kasalliklarga irsiy kasalliklar deyiladi. Irsiy kasalliklarning barchasi ham nasldan-naslga o'tavermaydi, chunki irsiy kasalligi bo'lgan individ juda erta halok bo'ladi yoki nasl qoldirish qobiliyatiga ega bo'lmaydi. Irsiy kasalliklar tashqi muhitning mutagen ta'sirida sodir bo'ladi. Lekin bu jarayonda organizmning ichki muhiti, ya'ni genotipi ham katta rol o'ynaydi, agar kasallik yuzaga chiqishida ham atrof-muhit omillarining, ham genotip ahamiyatli bo'lsa, bunday kasalliklarni multiomilliy yoki multipikatorli irsiy kasalliklar deyiladi. Masalan oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakda bo'ladigan jarohat, jigar, o'pka kasalliklari, ateroskleroz, gipertoniya, yomon sifatli o'sma kasalliklarining ayrimlari va hokazo. Irsiy kasalliklar soni yildan-yilga ko'paymoqda. Bunga sabab birinchidan irsiy kasalliklarni aniqlovchi usullarning takomillashishi bo'lsa, ikkinchidan atrof muhitning mutagen omillari bilan ifloslanishidir. Ma'lumotlarga qaraganda 5 % bola irsiy

kasallik bilan dunyoga keladi va har bir odamda kelajakda mutatsiyaga uchrashi mumkin bo'lgan 5-10 ta genlar bo'ladi. Hozirgi kunda 6000 dan ortiq irsiy kasalliklar aniqlangan. Irsiy kasalliklarning boshqa kasalliklardan farqi shundaki, ularning sodir bo'lishi uzoq davom etadi. Irsiy kasalliklar morfologik belgilarning (quyon lab, bo'ri tanglay, kalta barmoqlilik, olti barmoqlilik), fiziologik jarayonlarning (qonning ivimasligi, ranglarni ajrata olmaslik), biokimyoviy jarayonlarning (ma'lum bir fermentning bo'lmasligi) buzilishi bilan sodir bo'lishi mumkin.

Embrional rivojlanishning qaltis davrlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, embrional rivojlanishning bu davrlarida ona va uning homilasiga ta'sir etuvchi omillar embrional rivojlanishining ma'lum bir bosqichida buzilishiga sabab bo'ladi, bu omillar teratogen omillar deb nomlanadi, ularning ta'siri natijasida embrional rivojlanish buzilib, tug'ilish anomaliyalari paydo bo'lishiga olib keladi.

Teratogen omillar tabiatiga ko'ra fizikaviy omillar (rentgen nurlari, radioaktiv nurlar, muhitning har xil kuchli fizik omillari) va kimyoviy omillarga (sanoat korxonalaridan chiqadigan har xil chiqindilar, pestitsidlar, kundalik turmushda ishlatiladigan dori vositalari) bo'linadi. Bundan tashqari biologik omillar (viruslar, bakteriyalar, ayrim parazitlar va ular ishlab chiqaradigan toksinlar) va inson hayotida orttiradigan zararli odatlar (chekish, alkogol iste'mol qilish, giyohvand moddalar qabul qilish) ham kiradi.

Jinsiy hujayralarning jarohatlanishi hisobiga kelib chiqadigan nuqsonlar gametopatiyalar deb nomlanadi. Embrional hujayralar jarohatlanishi hisobiga paydo bo'ladigan nuqsonlar esa embriopatiya deb nomlanib, ular homila rivojlanishining 15-kunidan 8-haftalari oralig'ida paydo bo'ladi, ular nuqsonlarning asosiylarini tashkil qiladi. Rivojlanishning 9-10-haftasidan keyin paydo bo'ladigan nuqsonlarni fetopatiyalar deyiladi, ularning tuzilishida qo'pol morfologik buzilishlar kuzatilmaydi. Bunda asosan organ massasining kamayishi, funksiyasining buzilishi, ruhiy o'zgarishlar kuzatiladi. Shu bilan birga nuqsonlar birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Ikkilamchi nuqsonlar birlamchi nuqsonlar ta'siri hisobiga paydo bo'ladi.

Fenokopiya bu ma'lum bir genotipga bog'liq bo'lgan va tashqi muhit ta'sirida yuzaga chiqaruvchi o'zgarishning boshqa genotip bo'yicha yuzaga chiqadigan o'zgarishga o'xshash bo'lishi. Fenokopiya fizik, kimyoviy va biologik ta'sirlar hisobidan yuzaga chiqadi. Onadagi mavjud ayrim yuqumli kasalliklar (qizamiq, toksoplazmoz) bolada har xil irsiy kasalliklarga o'xshash bo'lgan o'zgarishning sodir bo'lishiga olib keladi. Chunki ona organizmi shu embrionning o'sishida muhit hisoblanadi. Fenokopiyaning mavjudligi ayrim kasalliklarga tashxis qo'yishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, tug'ilgan bolada ko'z gavharining tipik bo'lmasligi retsessiv irsiy kasallikning, qizamiq kasalligining yoki onaning homilador paytida ionlashtiruvchi nurlar olganligi oqibati bo'lishi ham mumkin. Qizamiq kasalligi natijasida yuzaga kelgan karlik (eshitmaslik) irsiy bo'lgan karlik kasalligiga o'xshash bo'ladi. Xomilador ayol toksoplazmoz bilan kasallangan bo'lsa xomilada xudduki Daun sindromiga o'xshash bosh miyani zararlanishi kuzatiladi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fenokopiyalar irsiy kasalliklarga tashxis qo'yishda qiyinchilik tug'diradi. Bu muammoni xal qilishda sitogenetik taxlil qilish kerak.

Homilador ona va uning homilasiga teratogen omillarning ta'sirining oldini olish uchun ular yashab turgan muhitni har xil fizikaviy, kimyoviy va biologik omillar bilan ifloslanishiga, ifloslanishning me'yor darajasidan ortib ketmasligi, doimiy sanitariya va gigiyena nazorati ostida bo'lishi kerak. Shu bilan birga homilador ayollar ish joylaridagi muhit, hayot tarzi, ovqatlanish ratsioni va tartibi haqida shifokorlar doimiy ravishda sanitariya-maorif ishlarini olib borishi kerak.

Irsiy kasalliklarni o'rganishda tibbiy biologiya fanida bir qancha muammolar mavjud. Masalan, kasallikning kelib chiqish sabablari, tashqi muhitning irsiy kasalliklarning paydo bo'lishiga ta'siri, Irsiy kasalliklarning ko'payish sabablari, fizik, kimyoviy va biologik omillarning gametogenezga ta'siri kabi muammolarni yechimini topishda olimlarimiz tunimsiz faoliyat olib borishyapti.

PEDAGOGIK FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR PEDAGOGIKASI TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Kamalova Gulnora Maxamatjanovna

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali.
O'zbekiston, Farg'ona**

Pedagogning maqsadi o'quvchilarga ma'lumotni to'laqonli yetkazib berish. O'quvchi biror bir asarni o'qiydi yoki biror bir xalqning milliy madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Bularni o'z ko'zi bilan ko'rganda esa xotiraga mustahkam joylashadi. Shunday vaziyatlarda har bir pedagog o'z faoliyati davomida teatr pedagogikasidan o'z o'rnida foydalana olishni bilishi kerak.

Pedagogik kasbni tanlagan har bir kishi pedagogika nazariyasida amaliy malakalarni ongli ravishda rivojlantirish haqida ma'lumot berilmaganining guvohi bo'ladi. Shuning uchun ham teatr pedagogikasiga murojaat qildik. Ko'pincha, tadqiqotchilar K.S.Stanislavskiy tizimidagi ichki va tashqi kayfiyat to'g'risidagi ma'lumotlargagina e'tibor beradilar. Lekin K.S.Stanislavskiy rol ustida ishlash jarayonida kayfiyatdan yoki psixik holatlardan kelib chiqib emas, balki jismoniy xatti-harakatlar logikasidan kelib chiqib ish ko'rishni taklif etadi. Agar xatti-harakatlar to'g'ri bajarilsa, o'ziga mos kayfiyatni yuzaga keltiradi va inson psixikasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilarni tayyorlashda qo'llanadigan Stanislavskiy konsepsiyasi o'ziga mos mantiqiy ifodalangan his-tuyg'uni chiqaradigan jonli jismoniy xatti-harakatlar to'g'risida bo'lib, avvalo o'qituvchining sezgi organlarini muayyan pedagogik ta'sir sharoitida mashq qildirishni talab etadi. Jonli organik, shuningdek, pedagogik xatti-harakatlar idrok etishdan boshlanadi. Bu qonuniyatning buzilishi o'qituvchini sinf bilan o'zaro birgalikda harakat qilish jarayonidan chiqarib qo'yadi.

K.S.Stanislavskiy xatti-harakatlarni jismoniy va ruhiy birlik sifatida tushunib xulq-atvorning ichki va tashqi, jismoniy va ruhiy elementlarini alohida rivojlantirishni rad etadi, metod hamda pedagogik texnikaning chambarchas bog'liqligini talab etadi. Aynan shuning uchun ham pedagogik mahorat o'zaro bog'liq qismlarga asoslanadi. Bular: pedagogika nazariyasi, pedagogik texnika va dars mavzusi ustida ishlash, uni tashkil etish va olib borish metodlari.

Pedagogik ta'sirni faqat tushunish emas, balki his eta olish ham kerak. Iste'dodli

pedagoglarda aql va hissiyotlarning baxtli munosibligini ko'rish mumkin. Ularning boshqarilgan hayoti yorqin, nozik va intensivdir. Ular ortiqcha kuch sarflamay so'z va ta'sir ko'rsatishini, axborot va hissiyotni, auditoriyaning me'yoriy diqqatini muvofiqlashtira oldilar. Iste'dod har doim erkin va intuitiv ishlaydi. Agar pedagogik iste'dod egasi bo'lgan shaxsni diqqat bilan kuzatsa, uning xatti-harakatlaridagi ta'sirchanlik, ta'sir ko'rsata olish qobiliyatlaridan kam emasligi ko'rinadi. Bu ikki xususiyat o'rtasidagi bog'liqlik muvozanat qonuni: ta'sir ko'rsata olish intensivligi ta'sirchanlik intensivligiga asoslanadi.

GELMINTOZ KASALLIGINING BOLALAR ORASIDA KENG TARQALISH SABABLARI VA PROFILAKTIK CHORA – TADBIRLAR

Kamilova A.Sh., Turdialiyev Sh.X., Dilmurodova O.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

Dolzarbli. Gelmintozlar uzoq davom etadigan og'riqli holatlar va turli xil alomatlar bilan tavsiflanadi. 14 yoshgacha bo'lgan bolalar katta odamlarga qaraganda gijja kasalliklariga ko'proq moyil: umumiy kasallanganlarning ichida voyaga yetmaganlarning ulushi 80-85% ga etadi. Odamlarda uchraydigan barcha gelmintozlar orasida askaridoz va enterobioz infeksiyasi eng ko'p uchraydi. Bunga sabab bo'luvchi eng asosiy omillardan biri bu – noto'g'ri ovqatlanish, immunitetning pastligi, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilmaslikdir.

Maqsadi. Aholi o'rtasida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishni tashkil etish, bolalarda uchraydigan gelmintoz kasalliklarini oldini olish va kamaytirish, sog'lom turmush tarzi chora-tadbirlarini va shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishni tadbir etish.

Qo'llanilgan usul. ANKETA-SO'ROV usuli bo'yicha maktab yoshidagi 255 nafar bolaning ovqatlanish holati o'rganildi.

Natija. Tadqiqotda ishtirok etgan 255nafar boladan 168 nafarida gelmintoz belgilari kuzatilishi aniqlandi. Bunda ba'zi bolalarda terisida takroriy qichima toshma, limfa tugunlarining og'rishi; qorinda og'riq, nafas qisilishi va ko'krak qafasidagi noqulaylik; axlat buzilishi; meteorizm; qichishish; uyqusizlik, injiqlik, asabiylik, ko'ngil aynishi, kamqonlik, soch, tirnoq va terida o'zgarishlar, tana vaznining me'yordan pastligi kabi belgilar kuzatildi.

Bolalarning sog'lom ichak mikroflorasi 10% enterobakteriyalardan iborat. Ammo shartli patogen flora ham rivojlanishi mumkin, bu holda coli bakteriyalari ichakda ko'payadi. Bolalikda gelmintoz ko'pincha bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda uchraydi. Agar davolanmasa, gelmintozlar ko'plab asoratlarni keltirib chiqaradi, bu esa bolaning hayot sifatini yomonlashtiradi. Shuning uchun ota-onalarning e'tiborini kasallikni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga qaratish kerak. Bolalardagi uchraydigan gijja kasalliklarining sabablari: ovqat hazm qilish tizimiga parazit tuxum, kista yoki gijjalarning tushishi; shaxsiy gigiyenaning yetarli emasligi; sayrdan keyin ovqatdan oldin va hojatxonadan chiqqandan keyin qo'llarini yuvmasligi; yerga tushgan o'yinchoqlarni og'ziga solishi; uyda uy hayvonlarining mavjudligi (uy hayvonlari gelmintlarning potentsial manbalari); qayta ishlanmagan ovqatlarni iste'mol qilish; minimal issiqlik bilan ishlov berishdan o'tgan go'sht, yuvilmagan sabzavotlar va mevalarni iste'mol qilish; infeksiyalangan bolalar

bilan aloqa qilish. Gelmintozning asoratlari ko'p jihatdan parazitlarning organizmdagi joylashishiga bog'liq. Masalan, askaridoz bo'lgan bolada qorin bo'shlig'ining yallig'lanishi, pankreatit, abses; enterobiozda siydik tuta olmaslik (enurez), vulvovaginit, anal hududida tirnashlar, appenditsit rivojlanishi mumkin. Bularning barchasini oldini olishda quyidagilarga amal qilish lozim.

Xulosa. Ovqatlanishdan oldin 2 marta qo'llarni sovun bilan issiq suvda yuvish, tirnoqlarni doimo olib yurish, bolalar ichki kiyimlarini almashtirib turish va doim dazmollab kiyish, bolalar xonasini doimo tozalab turish, yosh bolali uylarda uy hayvonlari saqlamaslik, yilda 1 marta gelmintlarga qarshi oilaviy davolanib turish, sayr davomida bolalar qo'llarini og'izlariga solmasliklariga e'tiborli bo'lish zarur. Bolani juda erta yoshdan boshlab shaxsiy gigiyena qoidalarga ko'niktirish kerak. Shuningdek, har bir oila a'zosining shaxsiy sochiq, idish-tovoq, choyshab va gigiyena vositalari bo'lishi afzalroqdir; toza ichimlik suvidan foydalanish. Agar uyingizda hayvonlar bo'lsa, ularni muntazam ravishda degelmintizatsiya qilish muhimdir. Qurtlarni yuqtirish tuproq, yuvilmagan mevalar, sabzavotlar va o'tlar orqali sodir bo'lishi mumkin. Bularning barchasi o'z bog'ingizda o'stirilgan bo'lsa ham, ovqatdan oldin mahsulotlarni yaxshilab yuvish kerak; go'sht va baliqni yuqori sifatli qayta ishlash. Bolalikda yarim pishirilgan yoki xom go'sht va baliq ovqatlarini iste'mol qilish mumkin emas. Kasallikning oldini olishda hayvonlar bilan muntazam aloqada bo'lgan, bolalar guruhlariga (bog'cha va maktab) boradigan, ota-onalari bilan piyoda sayohat qiladigan, baliq ovlashni yoqtiradigan va ko'pincha dunyo bo'ylab sayohat qiladigan bolalar gijjaga qarshi dori vositalarini uchun zarurdir.

GADJETLAR VA INTERNETDAN FOYDALANISHNING BOLALAR ORGANIZMIGA TA'SIRINI GIGIYENIK BAHOLASH

Kurbanbaeva A.J.

Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston

Butun dunyo bo'ylab elektron ommaviy axborot vositalari keng tarqalayotganligi sababli raqamli qurilmalar va Internet kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular axborot almashishga qulay, ammo inson salomatligiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri ayniqsa bolalar va o'smirlar organizmiga yuqoriligi aniqlandi. Raqamli qurilmalar va Internetdan intensiv foydalanish endokrin tizimning ishlashiga, metabolizmga ta'sir qiladi; shuningdek melatonin gormoni ishlab chiqarilishining kamayishiga olib keladi va natijada uyqu sifatining yomonlashishi, hissiy beqarorlik, ish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Bundan tashqari, ko'z, yurak-qon tomir va tayanch-harakat tizimi kasalliklarining rivojlanishida bevosita omil hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bolalar kompyuter o'yinlarini o'ynashda ko'pincha quloqchinlardan foydalanadilar. Bu nafaqat eshitish organlariga balki asab tizimining faoliyatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlar hissiy va ijtimoiy intellektni pasaytiradi, ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytiradi. Shu sababli hozirda internet tarmoqlari va gadjetlardan foydalanish natijasida kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Zamonaviy raqamli qurilmalardan foydalanish va Internetning bolalar kasallanishiga ta'sirini baholash.

Tadqiqot material va usullari. Toshkent shahridagi umumta'lim maktablarida 11 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 900 nafar o'quvchi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Raqamli qurilmalar va Internetdan foydalanishiga qarab barcha so'rovnomada qatnashgan bolalar 2 guruhga bo'lingan: asosiy guruh – raqamli qurilmalardan tez-tez va ko'p foydalanadigan o'quvchilar va nazorat guruhi – raqamli qurilmalardan kam yoki umuman foydalanmaydigan o'quvchilar.

Tadqiqot natijalari. Statistik ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar orasida endokrin tizim, ovqatlanish va metabolik kasalliklar bilan bog'liq shikoyatlarga ega bolalar asosiy guruhda $22,8 \pm 1,89\%$ va nazorat guruhida - $17,8 \pm 1,89\%$ ni tashkil etadi. Umumiy kasallanishning qiyosiy tahliliga ko'ra, asosiy guruh (26,4%) nazorat guruhiga (18,9%) qaraganda ruhiy va xatti-harakatlarning buzilishi bilan bog'liq belgilar ko'proq. Skrining so'rovnoma natijalaridan tekshirilayotgan bolalar orasida asab tizimi kasalliklarining yuqori darajada tarqalishi aniqlandi: asosiy guruh bolalarining 48,3% asab tizimi kasalliklariga ega bo'lsa, nazorat guruhida - 41,0 % ni tashkil etdi ($p < 0,05$). Me'yordan ko'p gadjetlarni ishlatadigan $25,3 \pm 1,96\%$ o'quvchilarga nisbatan kam ishlatadigan - $19,4 \pm 1,96\%$ bolalar ko'z organi bilan bog'liq muammolarga duch kelishgan ($p < 0,05$). Shovqin va quloq bilan bog'liq shikoyatlar asosiy va nazorat guruhidagi bolalarida $22,2 \pm 1,90\%$ va $19,3 \pm 2,00\%$ nisbatta aniqlandi. So'rovnomada asosiy guruh bolalari nazorat guruhiga nisbatan 5,3% ga ko'proq qon aylanish tizimi kasalliklaridan shikoyat qilishgan ($p < 0,05$). Asosiy guruh $26,5 \pm 2,00\%$ va nazorat guruhining $18,6 \pm 1,90\%$ o'quvchilari nafas olish tizimi kasalliklari bor ekanligini haqida xabar bergan ($p < 0,01$). Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, asosiy guruh o'quvchilari ovqat hazm qilish tizimidagi muammolardan 1,1 baravar ko'proq shikoyat qilganlar ($21,1 \pm 2,02\%$ va $23,7 \pm 1,92\%$). Xususan, o'quvchilarning $31,0 \pm 1,59\%$ tish og'rig'i va kariesdan shikoyat qilgan, bu nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan 6,4 foizga ko'pdir ($34,2 \pm 2,14$ va $27,8 \pm 2,22\%$; $p < 0,05$). Shuningdek, o'quvchilarining qo'shimcha shikoyatlaridan biri bu og'iz bo'shlig'idan tez-tez achchiq va nordon ta'm kelishini aytib o'tganlar: asosiy guruh $21,2 \pm 1,84\%$ va nazorat guruhda $20,5 \pm 2,00\%$ ($p < 0,01$) tashkil etdi.

Tadqiqot xulosalari. Shunday qilib, olingan tadqiqot natijalariga ko'ra asosiy guruh o'quvchilarida nazorat guruhiga nisbatan turli kasalliklarining yuqori darajada tarqalishi kuzatilgan. Bu esa gadjetlar va Internet tarmoqlari bolalar salomatligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishidan darak beradi. Gadjetlardan foydalanishning salbiy oqibatlarini natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish uchun ota-onalar va bolalarga sog'lom turmush tarzi va texnologiyalardan xavfsiz foydalanish bo'yicha profilaktik chora tadbirlar muntazam olib borilishi kerakligini ko'rsatadi.

ПОЛУЧЕНИЕ ПРОДУКТОВ С ФУНКЦИОНАЛЬНЫМИ СВОЙСТВАМИ

Кадырова Нафиса Баннаповна

Фергана, Узбекистан

Концепция здорового питания зародилась в начале 80-х годов, где приобрели большую популярность функциональные продукты, содержащие ингредиенты приносящие пользу здоровью человека, повышающие сопротивляемость заболеваниям, способные улучшить физиологические процессы в организме человека. Качество функциональных продуктов определяется пищевой ценностью, вкусовыми свойствами и физиологическим воздействием.

Все продукты позитивного питания содержат ингредиенты, придающие им функциональные свойства. К ним относятся растворимые и нерастворимые пищевые волокна, витамины, минеральные вещества, полиненасыщенные жирные кислоты, антиоксиданты, олигосахариды, а так же группа, включающая микроэлементы бифидобактерии.

За счет хлебобулочных изделий можно восполнить значительную часть этих веществ, однако не полностью, поэтому химический состав продукта целесообразно улучшать путем внесения различных добавок. Большинство из компонентов, повышающих биологическую ценность можно восполнить путем внесения продуктов переработки бобовых культур (сои, гороха, фасоли, арахиса, чечевицы, люпина и др.). Большинство из них, особенно продукты переработки сои, широко известны работникам отрасли. Представленные данные показывают, что все культуры имеют достаточно высокое содержание белка, которое в два три раза превышает его наличие в злаковых. Белки бобовых культур являются более полноценными и при внесении в пищевые продукты могут частично заменить труднее добываемый животный белок. Наибольшее применение при производстве хлебобулочных изделий нашли добавки продуктов переработки сои и гороха. Внесение до 5% продуктов переработки любых бобовых не оказывает отрицательного влияния на качество готовой продукции. Определенный интерес представляют продукты переработки люпина. Люпины по содержанию белка его составу и сбалансированности близки к сое. Они содержат значительное количество минеральных веществ, витаминов, углеводов и жиров. Масло люпина богато жирорастворимыми витаминами, ненасыщенными жирными кислотами (олеиновая, ленолевая, линоленовая). В пищевой промышленности люпин используется в виде белковых паст и изолятов, муки из семян. Его применяют при производстве продуктов – заменителей молока, суррогатов кофе и какао, в колбасной, мясной и консервной промышленности. Продукты переработки люпина нашли применение в качестве обогатителей в детском питании и для диабетиков.

Имеются разработки по обогащению кондитерских, макаронных и хлебобулочных изделий мукой из люпина в количестве 5-10% к массе муки. Использование в пищу продуктов переработки люпина сдерживается из за необходимости обеззараживания алкалоидов. Однако в последнее время селекционерами выведены перспективные сорта люпина с низким содержанием алкалоидов. Предварительные результаты показали, что внесение муки люпина

не сказывается на содержании клейковины в пшеничной муке однако происходит ее незначительное укрепление. Кроме этого происходит рост числа падения.

Представленный материал показывает, что люпин является сырьем с функциональными свойствами, использование которого перспективно для повышения пищевой и биологической ценности продуктов, а также создание хлебобулочных изделий функционального назначения

ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СМАРТФОНОВ

Коледа А.Г., Янковская Н.Г.

**Институт повышения квалификации и переподготовки кадров
здравоохранения учреждения образования «Белорусский государственный
медицинский университет»,
г. Минск, Республика Беларусь**

Современную жизнь сложно представить без смартфона: благодаря своим техническим возможностям «умный» гаджет помогает нам во всех сферах жизни. Удобства, которые мы приобретаем благодаря смартфонам, очевидны. Однако обратной стороной медали может стать пристрастие к чрезмерному использованию этим устройством. Актуальным является изучение распространенности жалоб среди взрослого населения, что и послужило целью настоящего исследования.

Нами в период с апреля 2022 г. по июнь 2023г. с помощью опросника «Шкала зависимости от смартфона» было проведено анонимное анкетирование 381 слушателя (81 мужчина и 300 женщин) Института повышения квалификации и переподготовки кадров здравоохранения учреждения образования «Белорусский государственный медицинский университет». Средний возраст опрошенных составил для мужчин 42 [33; 54] года, для женщин – 41 [33; 50] год. При этом 42 опрошенных имели среднее специальное образование, 339 – высшее. Для описания центральной тенденции использованы медиана и межквартильный интервал (Me [q25; q75]).

В ходе исследования установлено, что наибольшее число опрошенных имеют стаж пользования смартфоном 6-7 лет и более (88,3%); 7,7% пользуются им от 4 до 5 лет; 2,4% - от 2 до 3 лет; 1,1% - 1 год и менее; 0,5% - от 5 до 7 лет. Неприятные ощущения со стороны органов зрения после длительного использования смартфона отмечали у себя 43,9% опрошенных. Среди наиболее частых жалоб: нечеткость зрения (39,6%), сухость (26,0%) и резь в глазах (20,1%), слезотечение (12,4%). Незначительное количество респондентов (2,4%) отметило ухудшение зрения, боль и напряжение в глазах. В 10,1% случаев резь сочеталась с сухостью глаз, в 8,9% - с нечеткостью зрения, в 4,1% случаев нечеткость зрения сочеталась со слезотечением. Около четверти опрошенных респондентов (24,6%) отмечают наличие субъективных неприятных ощущений со стороны опорно-двигательного аппарата. В большинстве случаев (35,1%) это боль и неприятные ощущения в шее и кистях рук, пальцах. Боли в спине и скованность позвоночника беспокоят, соответственно, 14,9 и 10,6%

опрошенных, каждый четвертый (41,1%) признает, что чрезмерное использование смартфона и увлечение социальными сетями способствуют снижению количества времени, которое они затрачивают на ежедневную физическую активность.

Среди трудностей, вызванных использованием смартфона, 19,5 % респондентов отметили сложности в выполнении запланированной работы, 20,3% - трудности с концентрацией внимания при выполнении поставленных задач, 37,9% теряют счет времени при прокрутке информации на смартфоне, а 33,4% отмечают чувство усталости из-за чрезмерного использования смартфона. Ложатся спать позже и, как следствие, недополучают нужное количество сна 59,2% респондентов, а 27,0% считают себя зависимыми от смартфонов.

У 37,4% вызывает негативные эмоции низкий заряд батареи, а 16,2% слушателей ощущают фантомные (ложные) звонки или вибрации смартфона. В 34,0% случаев были отмечены случаи возникновения конфликтов в семьях на фоне злоупотребления гаджетами членами семьи вследствие ущерба живому общению. Четверть опрошенных (24,7%) отметили, что не могут контролировать время личного использования смартфона, при этом 33,2% респондентов хотят сократить время его использования, но у них, как правило, ничего не получается.

Учитывая высокую распространенность жалоб и возрастающую зависимость при использовании смартфонов, требуется более углубленное изучение его влияние на здоровье, в том числе с применением лабораторных и инструментальных методов исследования.

ГИГИЕНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИЯ БАЛАНСА КРЕМНИЯ В БИОСИСТЕМЕ «ЧЕЛОВЕК - СРЕДА ОБИТАНИЯ»

Коледа А.Г.

**Институт повышения квалификации и переподготовки работников
здравоохранения учреждения образования**

«Белорусский государственный медицинский университет»

г. Минск, Республика Беларусь

В силу широкой распространенности кремния в земной коре (2-е место после кислорода) может создаться впечатление, что его дефицит – явление маловероятное. Среднее содержание данного микроэлемента в литосфере составляет 29,5% (для сравнения уровень кальция – 3,6%). Он в разных количествах всегда присутствует в воде и продуктах питания. К примеру, среднее поступление кремния с пищей и водой для жителей Европы и Северной Америки составляет 20–50 мг/день (до 60 мг/сут по данным Экспертной группы по витаминам и минералам Агентства по пищевым стандартам Великобритании).

При этом, несмотря на широкую распространенность, анализ литературных источников указывает на недостаточную изученность и противоречивость мнений о биологической роли кремния в организме человека. Так, имеющиеся данные свидетельствуют о том, что он, наряду с кальцием, необходимым для процессов минерализации костной ткани, синтеза коллагена, оказывает положительное действие на состояние кожи, волос и ногтей, способствует

предупреждению атеросклероза и болезни Альцгеймера. Однако при избыточном поступлении кремния, наряду с положительными эффектами для здоровья населения, может наблюдаться целый ряд неблагоприятных эффектов. Так, например, целый ряд работ В.Л. Сусликова, С.П. Сапожникова, Н.В. Толмачевой, Н.А. Агаджаняна и других был посвящен оценке причинно-следственных связей краевой патологии и микроэлементного состава воды у жителей кремниевой биогеохимической провинции Чувашии. В них указывалось на возможную роль повышенного поступления кремния с питьевой водой в сочетании с резким дисбалансом в ней макро- и микроэлементов (фтора, железа, кальция, марганца, цинка и др.) как потенциальных инициаторов артериальной гипертензии, ишемической болезни сердца, инфаркта миокарда, сахарного диабета, желчнокаменной болезни, уролитиаза. Был выделен эндемический кремниевый уролитиаз. Подчеркивалась «пусковая» роль кремния в сочетании с дисбалансом микроэлементов в формировании глубоких дисбактериозов кишечника, атеросклероза, а также на возможное участие кремния питьевой воды в аутоиммунных процессах.

Известно, что большое количество кремния содержится в пищевых продуктах, особенно растительного происхождения. Лидеры по количеству его содержания – овсяные крупы и ячмень (3910–4310 и 2610–2720 мг/кг соответственно). Много кремния в овощах и фруктах, особенно в бобах, фасоли, чечевице и бананах. Около 20% от поступившего в организм с пищей и водой микроэлемента приходится на долю питьевой воды и напитков (в том числе пива, содержащего в среднем 20–25 мг/л кремния). При этом, по существующим оценкам, потребность организма человека в кремнии составляет от 9–14 до 20–30 мг/сут. Однако, по мнению специалистов Европейского агентства по безопасности пищевых продуктов и Экспертной группы по витаминам и минералам Великобритании, данных для обоснования адекватных рекомендаций по физиологической норме кремния для человека все еще недостаточно. Поступление кремния в организм человека с рационом питания и водой не нормируется также и действующими на территории республики Беларусь Санитарными нормами и правилами «Требования к питанию населения: нормы физиологических потребностей в энергии и пищевых веществах для различных групп населения Республики Беларусь».

Учитывая современные представления о значимости кремния для здоровья населения представляется целесообразным изучение баланса кремния в биосистеме «почва-вода-растение-человек» на территории Республики Беларусь для составления регионального микроэлементного паспорта.

ГИГИЕНИЧЕСКИЙ ПОДХОД К МЕТОДАМ ИССЛЕДОВАНИЯ ЭЛЕКТРОМАГНИТНОЙ ОБСТАНОВКИ НА СОВРЕМЕННЫХ КОМПЬЮТЕРИЗИРОВАННЫХ РАБОЧИХ МЕСТАХ.

Красавин А. Н., Ташпулатова Г. А., Усманов И. А.

***НИИ Санитарии, гигиены и профессиональных заболеваний, г.
Ташкент, Узбекистан***

В настоящее время профессиональная деятельность значительного числа работников осуществляется в офисных помещениях различного назначения с применением персональных компьютеров. Высокий темп развития компьютерной техники, обусловленный широким внедрением информационных технологий в современное общество, также привёл к существенному усложнению электромагнитной обстановки на компьютеризированных рабочих местах.

Существующие в настоящее время методики проведения измерений электромагнитного излучения от компьютеров не учитывают воздействие ряда факторов, характерных для современной компьютерной техники. Результаты исследований, проведённых учёными (Походзей Л. В. и др., 2015, 2019; Яценко С. Г. и др., 2018) показали, что в настоящее время на современных компьютеризированных рабочих местах основными источниками электромагнитного излучения как производственного фактора являются мониторы компьютеров, импульсные блоки питания, кабельные линии, периферийные беспроводные устройства стандарта «Bluetooth» и системы беспроводной передачи данных, работающие в высокочастотном диапазоне (2,4 и 5,1 ГГц), как отдельно расположенные, так и встроенные в корпус портативных компьютеров. В то же время источниками влияния электростатических полей на организм работающих на рабочих местах выступают мониторы компьютеров, полимерные материалы клавиатуры, накапливающие заряд в процессе работы пользователей и синтетические материалы, входящие в состав покрытий рабочих кресел сотрудников.

Таким образом в методику гигиенической оценки воздействия электромагнитного излучения на рабочих местах, оснащённых компьютерной техникой, наряду с исследованием уровней электрических и магнитных полей низкочастотного и среднечастотного диапазона (2 Гц – 400 кГц), характерных для мониторов компьютеров, необходимо включение исследований электромагнитных полей радиочастотного диапазона от беспроводной периферии и устройств беспроводной передачи данных, в том числе встроенных в корпус портативных компьютеров (на расстоянии 10 см от беспроводной клавиатуры и манипулятора «мышь» или поверхности клавиатуры ноутбука и непосредственно на рабочем месте на высоте 1,2 м, 1,0 м и 0,5 м от пола), электрических полей промышленной частоты (50 Гц), создаваемых блоком питания системного корпуса компьютера и кабелями электропитания, и электростатических полей, как непосредственно на рабочем месте, так и в 10 см от клавиатуры компьютера и поверхности офисного кресла сотрудника.

По результатам собственных исследований факторов производственной среды и условий труда на рабочих местах профессионального контингента лиц, работающих с современной компьютерной техникой, проведенных специалистами НИИ СГ и ПЗ разработаны методические рекомендации по комплексной гигиенической оценке условий труда лиц, работающих с компьютерной техникой, в которых представлена усовершенствованная методика проведения измерений электростатических полей на рабочих местах, включена методика измерений уровней электромагнитных полей радиочастотного диапазона, формируемых периферийными устройствами с беспроводным интерфейсом и системами беспроводной передачи данных, электрических полей промышленной частоты (50 Гц).

Внедрение разработанных методических рекомендаций в практику позволит сотрудникам Комитета санитарно-эпидемиологического благополучия и Министерства труда более эффективно проводить исследования условий труда на компьютеризированных рабочих местах и выявлять вредные факторы воздействия на здоровье, что снизит риски развития профессиональных заболеваний у данного контингента лиц.

ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ГАДЖЕТАМИ И ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНЫМИ РАССТРОЙСТВАМИ ДЕТЕЙ

КУРБАНБАЕВА А. Ж.

НИИ санитарии, гигиены и профзаболеваний Министерства здравоохранения Республики Узбекистан

Введение. Современные цифровые устройства и социальные сети стали неотъемлемой частью жизни молодого поколения. Мобильные телефоны, планшеты, ноутбуки и компьютеры стали не только средством коммуникации, но и способом получения информации, развлечения и обучения. Однако, внедрение цифровых технологий в повседневную жизнь имеет негативные последствия для здоровья детей. Литературные данные подтверждают, что неконтрольное использование гаджетов и Интернета негативно влияет на психоэмоциональное состояние, психофизиологическое развитие. Во многих исследованиях доказана связь между использованием гаджетов и здоровьем детей, установлено сильное влияние гаджетов на их психическое здоровье. Следовательно, изучение данной темы является актуальной.

Цель исследований. Оценка влияния цифровых устройств и Интернета на психические расстройства и расстройства поведения учащихся общеобразовательных школ.

Материал и методы исследования. Обследованы учащиеся общеобразовательных школ г. Ташкента в возрасте от 11 до 17 лет. В зависимости от использования цифровых устройств и Интернета, все обследованные дети были разделены на 2 группы: основная группа – учащиеся, которые много и длительно используют цифровые устройства и социальные сети (491 респондентов) и контрольная группа – учащиеся, которые редко или не

используют цифровые устройства и социальные сети (409 респондентов). Проводился опрос у детей с использованием метода скрининг-тестирования. Статистический анализ выполнен с использованием пакета программ Microsoft Excel 2016 и Statistica 10.0. Для определения достоверности разности средних величин использовали t-критерий Стьюдента. Различия средних арифметических величин считали достоверными при $p < 0,05$.

Результаты исследований. По результатам анкетирования было выявлено, что у детей отмечались жалобы и симптомы на психические и поведенческие расстройства. У $26,4 \pm 1,94\%$ детей которые долго и продолжительно используют цифровые устройства и Интернет имели эти жалобы, в то время как у сверстников которые мало используют гаджеты таковых было на 1,4 раза меньше ($p < 0,01$). В исследовании было обнаружено, что у $22,1 \pm 1,87\%$ детей из основной группы и $14,4 \pm 1,74\%$ из контрольной группы была частая смена настроения, чувство страха и тревоги. А также, были характерные навязчивые движения, такие как теребить одежду или волосы, облизывать или кусать губы, грызть ногти. Количество детей с такими навязчивыми движениями составил $38,5 \pm 2,20\%$ в основной группе, в то время как в контрольной группе этот показатель составил лишь $27,1 \pm 2,20\%$ ($p < 0,001$). Результаты показали, что среди детей основной группы $31,4 \pm 2,09\%$ имели различные психические расстройства, такие как злость, агрессивность, плохое настроение и пессимистичность. Этот процент был заметно выше, чем в контрольной группе, где только $20,5 \pm 2,00\%$ детей имели подобные жалобы. У $41,1 \pm 2,22\%$ учащихся основной и $27,1 \pm 2,20\%$ контрольной групп наблюдались случаи нежелания идти в школу ($p < 0,001$). Кроме этого у $24,6 \pm 1,94\%$ и $16,8 \pm 1,85\%$ детей соответственно, основной и контрольной группы было нежелание общаться с родителями и друзьями ($p < 0,01$). Анализ данных показал, что после использование цифровых устройств и Интернета у 54% детей наблюдалось возбуждение, чувство разбитости ($23,8 \pm 1,92\%$ против $19,8 \pm 1,97\%$); 30% - чувство духоты, чрезмерное чувство жажды ($14,9 \pm 1,61\%$ против $14,7 \pm 1,75\%$); 26% - чувство тревожности, чувство страха ($14,9 \pm 1,61\%$ против $11,0 \pm 1,55\%$). Процентное соотношения жалоб при использовании цифровых устройств и Интернета, связанных с психическими и поведенческими расстройствами, показало, что учащиеся основной группы по сравнению с учащимися контрольной группы чаще имели жалобы на различные психические и эмоциональные расстройства.

Вывод. Таким образом, проведенные исследования показали, что дети, интенсивно использующие цифровые устройства и Интернет чаще, чем дети умеренно пользующиеся или не пользующиеся цифровыми устройствами и Интернетом имеют психоэмоциональные жалобы. Результаты исследования показывают, что необходима мероприятия для минимизации неблагоприятного воздействия гаджетов и Интернета на организм учащихся. Необходимо проводить разъяснительной работу с учащимися о влиянии современных цифровых устройств и Интернета на психоэмоциональное и психофизиологическое состояние.

BUXORO VILOYATI MISOLIDA AHOLI ORASIDA GELMINTOZLARGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY HOLATI

Kobilova G. A.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O`zbekiston

Kirish: Gelmintozlar parazit qurtlar - gelmintlar keltirib chiqaradigan kasalliklar guruhidir. Odamlarda 250 dan ortiq gelmint turlari parazitlik qilgan, ular asosan ikki xil qurtlarga mansub: yumaloq chuvalchanglar - Nematelminthes (Nematoda sinfi) va yassi chuvalchanglar - Plathelminthes (tasmalar sinfi - Cestoidea va flukes - Trematoda). Biologiyaning xususiyatlariga va tarqalish usullariga qarab gelmintlarning 3 guruhi ajratiladi: geogelmintlar, biogelmintlar va kontaktli gelmintlar. Eng keng tarqalgan nematodalar – geogelmintozlar.

Maqsad: Buxoro viloyati aholisi orasida gelmintozlarning tarqalganligini o`rganish, unga qarshi chora-tadbirlarni olib boorish va aholi salomatligini yaxshilash.

Materiallar va uslublar: Tadqiqotning uslubiy asosini muammoni o`rganishga materialistik yondashish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Hukumatning moddiy manfaatdorlik va moddiy rag`batlantirishni oshirish to`g`risidagi qarorlari, shuningdek, iqtisodiyotning iqtisodiy masalalariga oid boshqa qoidalari va ko`rsatmalari tashkil etadi. Ish jarayonida viloyat sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi hisobotlari, sanitariya-gigiyena, tibbiy-ijtimoiy, statistik va laboratoriya tahlil tadqiqot usullari qo`llanilgan.

Natijalar va muhokama:

Ko'pgina gelmintozlarning o'ziga xos xususiyati patogenning organizmda uzoq vaqt mavjudligi va takroriy shikastlanishlar bilan bog'liq kasalliklarning surunkali kursidir. Buxoro viloyatida jami 447 ta naktabgacha ta`lim muassasalari bo`lib, 72802 ta bola tarbiyalanadi. Shundan gelmintozga 386 ta MTMdan 49643ta bola tekshirilgan. Gelmintozlar aniqlangan holat 110ta MTMdan 167ta bolada aniqlangan. Gelmintozlar bilan zararlanish 2,1%ni tashkil qilgan. Sog`lomlashtirilganlar 167 ta bolada -100%ni tashkil qilgan.

Xulosa: Yuqorida aytilganlar quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

1. Tibbiyot fanining rivojlanishiga qaramay, gelmint parazitlar kasalliklarning tarqalishi yuqori darajada qolmoqda.
2. Diagnostik qiyinchiliklar organizmda gelmintozlar va parazitozlarning uzoq muddatli davom etishiga yordam beradi.
3. Parazitlarga qarshi dori vositalarining keng assortimentiga qaramasdan, parazit rivojlanishining barcha bosqichlariga ta'sir qiluvchi dori vositalarining soni cheklangan.

4. Vormil gelmintiozlarga qarshi kurashning eng samarali dorivor va profilaktik vositalaridan biridir.

Chorvachilik komplekslarida ishlovchi ishchilar salomatligiga ta'sir etuvchi omillarni gigienik baholash

K.I.Ibrohimov

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Materiallar va usullar: Ilmiy tatqiqotda qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri chorvachilik komplekslari hisoblanadi. Ish sharoitlari sanitariya-gigiyenik laboratoriya usullardan foydalangan holda haqiqiy ishlab chiqarish muhitida o'rganildi. Mikroiklim sharoitlarning parametrlari aniqlandi, vaqtni kuzatish va ish holatini o'rganish, ish joylari havosidagi chang va kimyoviy moddalar miqdori aniqlandi.

O'rganilayotgan chorvachilik komplekslarida sanitariya-gigiyenik mehnat sharoitlarini baholash SanPiN RUs [N 0294-11](#) "Гигиенические нормативы предельно-допустимые концентрации (ПДК) вредных веществ в воздухе рабочей зоны" muvofiq yilning qish va yoz fasllarida amalga oshirildi.

Ilmiy ish natijalari: Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, chorvachilik binolarida mikroiklim sezilarli chegaralarda o'zgarib turadi. Bu binoning turiga, uning tuzilmalarining issiqlik o'tkazuvchanligi, isitish va shamollatish tizimlari, iqlim sharoitlari, yil fasllari va boshqalarga bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, ish joylarida 36,5% hollarda mikroiklim ko'rsatkichlari sanitariya-gigiyena me'yorlariga javob bermadi.

Sut sog'ish va bordoqilikka boqish binolarida faoliyat ko'satayotgan chorvadorlarning ish joylaridagi havo harorati minimal va ortacha korsatkichlari boyicha gigiyenik talablarga javob beradi. Faqat yoz oylarida eng issiq kunlarda sigirlar saqlanadigan binolarda havo harorati 37-41 ° C gacha ko'tariladi. Sovuq mavsumda havo harorati 8-10 ° C va undan pastroq. Bu davrda nisbiy namlik doimiy qiymatlardan oshib ketadi (76-94%)[2,5].

Chorvachilik kompleksining asosiy ish joylari sog'ish xonasi va yordamchi xonalar havo harorati pastligi kuzatildi. Chunki sigirlarni kiritish va qo'yib yuborish jarayonida eshiklarning tez-tez ochilishi (deyarli har 10 daqiqada) tufayli sodir bo'ladi. Sog'ish binosida havo harakatining tezligi eshiklari yopiq holda o'lchanganda (0,2 m / s) va eshiklar ochiq bo'lsa, 3,5 m / s gacha o'zgarib turganligi kuzatildi.

Sut sog'ish zalida havoning yuqori namligiga asosiy sabab asosiy ishlab chiqarish jarayonlari suvdan ko'p foydalanish bilan izohlanadi. Ya'ni sut sog'ish apparatlarini har bitta sigir sog'ilgandan so'ng yuvilishi va dezenfeksiya qilinishi natijasida namlik yuqori bo'adi.

Qish oylarida binolarda harorat 2,5-11,5 ° C darajasida, nisbiy namlik odatda havo tezligi oshishi bilan 45-85% gacha, yozning issiq davrda harorat 36-41 ° C oralig'ida, namlik esa (85-96 %) ni tashkil etadi.

Chorvachilik komplekslari binolarida havo muhiti doimiy ravishda hayvonlarning hayotiy faoliyati natijasida yuzaga keladigan gazsimon aralashmalar, shuningdek najas, ozuqa qoldiqlari bilan ifloslanadi. Gazsimon aralashmalarga ammiak, vodorod sulfidi, formaldegid va boshqalar kiradi.

Ishlab chiqarish binolari havosidagi gazsimon aralashmalarning konsentratsiyasi o'zgaruvchan bo'lib bu jarayon chorva mollari turiga, oziqlantirish turi, go'ngni olib tashlash usuli, shamollatish tizimi bo'g'liq bo'ladi.

Chorvachilik komplekslari binolarida ishlab chiqarish binolari havosidagi ammiak miqdori 20 mg/m^3 va undan yuqorini tashkil etadi. Agar sog'ish xonasi izolyatsiya qilingan bo'lsa ombordan, uning havo muhiti ammiak va vodorod sulfidi bilan ifloslanmaydi[1,5].

Bizning ma'lumotlarga ko'ra, chorva mollari boqiladigan va ochiq ayvonlarda ammiak 4 dan 5 mg / m^3 gacha, vodorod sulfidi - 0,07 dan $0,09 \text{ mg / m}^3$ gacha tashkil etdi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida ozuqa tayyorlash, tarqatish ish joylarigi havo chang bilan ifloslanganligi ham aniqlandi.

).

Kompleks bo'limlarida texnologik jarayonda paydo bo'ladigan changlar tarkibi dag'al hashak, omuxta hem, teri epiteliysi, mollar junidan ibrorat.

Changlar tarkibidagi organik moddalar ishchilar organizimining sezgiriligini (sensibilizasiya) oshirib, ularni allergik kasalliklarini paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. Chorva mollarini saqlash yopiq binosi havosida chang miqdori $9,2 \pm 0,7 \text{ mg/m}^3$, ochiq ayvonda bir muncha kam bo'lib, $8,6 \pm 0,6 \text{ mg/m}^3$, omuxta hem tayyorlash sehida $10,6 \pm 0,5 \text{ mg/m}^3$, chorva mollariga dag'al hashak tarqatish vaqtida $7,6 \pm 0,4 \text{ mg/m}^3$, tashkil etib, ruxsat etilgan me'yordan 2,1-2,6 barobar ortiqcha ekanligi qayt etildi.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda chorvachilik komplekslarida ishlovchi ishchilar sog'lig'ini saqlashning eng dolzarb vazifalari quyidagilardan iborat:

– qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda, mehnat sharoitlarining har tomonlama gigiyenik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda chorvachilik xo'jaliklarida ishchilar salomatligi uchun kasbiy xavf omillarini aniqlash

– yangi iqtisodiy sharoitlarda mehnat salomatligi uchun xavflarni kamaytirish va qishloq xo'jaligi xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

Chorvachilik kompleks ishchi hizmatchilari sog'lig'iga tibbiy ko'rik natijalarida baholash

K.I.Ibrohimov

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Tadqiqotning maqsadi: Chorvachilik kompleks ishchi hizmatchilari sog'lig'iga tibbiy ko'rik natijalarida baholash

Materiallar va usullar: Ilmiy tatqiqotda qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri chorvachilik komplekslari hisoblanadi. Chorvachilik xo'jaligi ishchi xizmatchilar sog'lig'iga baho berish maqsadida Sog'liqni saqlash vazirligining 2012

yildagi 200 sonli buyrug'i asosida chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

Ilmiy ish natijalari:

Umuman chorvachilikda davriy tibbiy ko'riklar natijalariga ko'ra asosiy yuqumli bo'lmagan kasalliklar tarkibini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, tayanch-harakat tizimi kasalliklari yetakchi o'rinni egallaydi (25,0%). Bundan tashqari, 7,7 dan 14,9% gacha bo'lgan o'ziga xos og'irlik bilan qon aylanish tizimi, eshituv a'zosi va asab tizimi kasalliklari kuzatiladi. Nafas olish kasalliklari erkaklarda aniqlangan barcha kasalliklarning 7,7% va ayollarda 6,4% ni tashkil qiladi bundan keyin ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, endokrin tizim va metabolizm kasalliklari va boshqa kasalliklar ko'p uchraydi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra allergik reaksiyalarning mavjudligi va bolalik davridagi allergik kasalliklar bilan bog'liq savollarga ijobiy javoblar ketma-ketligi barcha ishlab chiqarish guruhlari ishchilari orasida sezilarli darajada farq qilmadi.

Chorvachilik kompleksi xodimlarini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilganda asosiy yuqumli bo'lmagan kasalliklarning umumiy har 80 nafar ishchiga o'rtacha nisbati 65,24 % tashkil etdi, bu ko'rsatkich erkaklarda 68,90 tani, ayollarda esa 31,1 % tashkil etdi[3,4].

Xulosa:

Sanitariya-gigiyenik profilaktika choralari majmuasi an'anaviy ravishda ishchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan.

Ikkilamchi profilaktika, ma'lumki, bevosita xodimlarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan, ya'ni ishchilar orasida surunkali yuqumli bo'lmagan kasalliklarni kuchayishini oldini olish, vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni kamaytirish va boshqalar. Bunga xodimlarning sog'lig'ini davriy tibbiy ko'rigini monitoring tizimini ishlab chiqish va joriy etish orqali erishish mumkin.

Chorvachilik kompleksi ishlovchi ishchilar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rigi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan 2012 yil 10 iyuldagi №200 sonli buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

INSON SALOMATLIGIGA ATROF MUHITNING TA'SIRI

Minovarov Adiham Anvarovich

Usmanova Gulnoraxon Kamoliddinovna

ADTI Andijon sh. Uzbekiston Respublikasi

Atmosfera havosi bizning atrof-muhitimizning asosiy hayotiy elementlaridan biridir. Kun davomida odam taxminan 12-15 m³ kislorodni yutadi va taxminan 580 litr karbonat angidrid chiqaradi.

Chang yig'uvchilar bilan jihozlanmagan kuchli elektr stantsiyalari yaqinida yashovchi bolalarda o'pkada silikoz shakllariga o'xshash o'zgarishlar aniqlanadi. Kremniy oksidlarini o'z ichiga olgan chang o'pkaning og'ir kasalligini - silikozni keltirib chiqaradi. Bir necha kun davom etadigan tutun va kuyikish bilan havoning kat-

ta ifloslanishi odamlarning o'limga olib keladigan zaharlanishiga olib kelishi mumkin. Atmosferaning ifloslanishi, ayniqsa, meteorologik sharoitlar shahar ustidagi havoning turg'unligiga yordam beradigan holatlarda odamga zararli ta'sir ko'rsatadi.

Atmosfera tarkibidagi zararli moddalar teri yoki shilliq pardalar yuzasi bilan aloqa qilganda inson tanasiga ta'sir qiladi. Bu terlagan odam (ochiq teshiklari bilan) yozda gaz va chang ko'chada yurganda sodir bo'ladi. Agar uyga etib kelganida, u darhol issiq (issiq emas!) dush qabul qilmasa, zararli moddalar uning tanasiga chuqur kirib borishi mumkin.

Nafas olish organlari bilan bir qatorda ifloslantiruvchi moddalar ko'rish va hidlash organlariga ta'sir qiladi va halqum shilliq qavatiga ta'sir qilib, ovoz paychalarining spazmlarini keltirib chiqarishi mumkin. Nafas olayotgan 0,6-1,0 mkm hajmdagi qattiq va suyuq zarralar alveolalarga etib boradi va qonga so'riladi, ba'zilar limfa tugunlarida to'planadi. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalarning inson tanasiga ta'sirining belgilari va oqibatlari asosan umumiy salomatlik holatining yomonlashuvida namoyon bo'ladi: bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, zaiflik hissi, mehnat qobiliyatining pasayishi yoki yo'qolishi.

Ko'pgina tadqiqotchilar kuniga 15 kg nafas olayotgan havo bilan inson tanasiga suv, oziq-ovqat, iflos qo'llar, teri orqali ko'proq zararli moddalar tushishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, tanaga kiradigan ifloslantiruvchi moddalarning nafas olish yo'li ham eng xavfli hisoblanadi. Buning sababi shundaki:

1. havo turli xil zararli moddalar bilan ifloslangan, ularning ba'zilar bir-birining zararli ta'sirini kuchaytirishga qodir;
2. nafas olish yo'llari orqali organizmga kiruvchi ifloslanish jigar kabi himoya biokimyoviy to'siqni chetlab o'tadi - buning natijasida ularning toksik ta'siri oshqozon-ichak trakti orqali kiruvchi ifloslantiruvchi moddalar ta'siridan 100 barobar kuchliroqdir;
3. o'pka orqali organizmga kiruvchi zararli moddalarning hazm bo'lishi oziq-ovqat va suv bilan kiruvchi ifloslantiruvchi moddalarga qaraganda ancha yuqori;
4. havoni ifloslantiruvchi moddalardan yashirish qiyin: ular kuniga 24 soat, yiliga 365 kun inson salomatligiga ta'sir qiladi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ifloslantiruvchi moddalarning eng katta miqdori o'pka orqali inson tanasiga kiradi.

ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ КОРРЕКЦИИ И РЕАБИЛИТАЦИИ СКОЛИОЗА У СТУДЕНТОВ.

Муратбекова А.Т, Шаканов Д.Р

НИИ профилактической медицины имени академика Е. Д. Даленова Казахстан,
НАО «Медицинский университет Астана», город Астана, Казахстан

Актуальность: В Казахстане состояние здоровья студенческой молодежи вызывает опасение. Так за последние 20 лет доля здоровых студентов сократилась более чем в 2.5 раза на начальном этапе обучения и более чем в 4 раза к окончанию вуза.

Цель: Изучить заболеваемость сколиоза и разработать метод его коррекции и реабилитации сколиоза во время учебного процесса.

В зависимости от степени сколиозом студенты делятся на следующие группы: Первая группа: Сколиоз III - IV степени направляется на консультацию врача ортопеда кафедры травматологии и ортопедии для решения вопроса об оперативном лечении. Вторая группа: сколиоз I - II стадии студенты на занятиях под руководством врача преподавателя физкультуры разрабатывает комплекс оздоровительных мероприятий включающих в себя: 1) лечебная физкультура это комплекс упражнений, которые они выполняют на занятиях физической культуры и дома. 2) массаж, преподаватель традиционной медицины обучает студентов проведению лечебного массажа при сколиозе, которое они в дальнейшем выполняет друг другу. 3) ношение корсета, который подбирается индивидуально врачом ортопедом кафедры.

Выводы. Нами было исследовано 1188 студентов Медицинского Университета Астана, разных курсов и факультетов. Из них 598 мальчиков и 630 девочек. У 293 студентов выявили сколиоз, что составляет 24,7% от всех обследованных студентов. У 181 девочек есть сколиоз, что составляет 62% от всех студентов с сколиозом. У 112 парней есть сколиоз, коэффициент заболеваемости сколиозом составило 38%. То есть видно, что девочки более подвержены сколиозу.

В течение года проведение данной мероприятий студенты субъективно отмечают улучшение общего состояния, отмечают выработку привычки контролировать осанку при сидении и ходьбе улучшение координации движения, повышение выносливости при физической нагрузке. Для объективной оценки эффективности методики студенты направлены на рентгенологическое исследование. Учитывая лояльное отношение студентов к своему здоровью, постоянной нехваткой времени, отсутствие средств для доступа в тренажерные залы, данная методика позволяет компетентным специалистам-преподавателям контролировать коррекцию сколиоза, в ВУЗе доступными аудиториями, тренажерным залом, спортзалом во время занятий по физической культуре, нутрициологии, травматологии и ортопедии. Данную методику после подтверждения результатов можно рекомендовать для студентов медицинских образовательных учреждений.

O'SMIRLAR SALOMATLIGINING GIGIYENIK BAHOLASH

Mallayeva Gulzoda Baxramovna

Dustlik Abu Ali Ibin Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash, o'qitish va kasallanishni oldini olish bo'yicha gigienik holatlar

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hozirgi davrda bolalar va o'smirlar salomatligining shakllanishi, ularning ta'lim faoliyati gigiyenasi, bolalarning harakat faolligi va jismoniy tarbiya gigiyenasi, mehnat tarbiyasi, bilim berish va kasb ta'limi gigiyenasi, bolalar va o'smirlarning ovqatlanish gigiyenasi ko'rsatilgan. Bolalar kito-

blari, darsliklar va o`quv qurollari, qo`llanmalariga bo`lgan gigiyenik talablar, sog'lom turmush tarzini shakllantirish asoslari, gigiyenik ta'lim va tarbiya, bola va o'smir yoshdagi aholini tibbiy va sanitariya-epidemiologik ta'minlash va boshqalar maqolada keng namoyon etilgan.

KALIT SO'ZLAR: bolalar va o'smirlar salomatligi, gigiyena, sog'lom turmush tarsi, ta'lim va tarbiya, tibbiy va sanitariya, epidemiologiya.

Bolalar va o'smirlar gigiyenasi muammolari mamlakatimiz aholisining salmoqli qismini qamrab oladi. Bolalar kattalarga nisbatan boshqacharoq shart sharoitda yashaydilar, shuning uchun ham o'qitish va tarbiyalashning gigiyenik prinsiplari kattalarning professional mehnati yoki ijtimoiy mehnatidan tubdan farq qiladi. Bolalarning biologik o'ziga xosligi kattalardan nafaqat miqdor, balki sifat jihatidan ham keskin ajralib turadi va ular uchun «kattalar gigiyenasi»dan farqlanuvchi boshqa gigiyenani talab qiladi. Bundan bir asrdan ko'proq muqaddam (1898) mashhur pediatr N.P.Gundobin o'zining Harbiy-tibbiyot akademiyasi talabalariga o'qigan ma'ruzasida «Bolalar yoshidagi gigiyena, organizmning anatomik-fiziologik o'ziga xosligi sharofati bilan kattalarnikidan butkul o'zgacha bo'ladi», degan edi. Bolalar va o'smirlarning asosiy o'ziga xosligi shundan iboratki, ularning organizmi kattalarnikidan farqli o'laroq hali yetilmagan, balki o'sish va rivojlanish jarayoni davom etayotgan bo'ladi. Gigiyenaning boshqa hech qaysi sohasi oldiga o'sish va rivojlanish muammosi ko'ndalang bo'lmaydi va shu tufayli ham bolalar va o'smirlar gigiyenasiga alohida o'ziga xos xususiyat baxsh etadi. Bolalar va o'smirlar organizmining rivojlaniishi tugallanmaganligi uning mutanosib bo'lishini ta'minlaydi. Bolalar va o'smirlar organizmi kattalarnikiga nisbatan ko'proq darajada ijobiy, shuningdek, salbiy ta'sirlarga uchraydi. Shuning uchun ham, kattalar uchun sezilmas va ahamiyatsiz bo'lishi mumkin bo'lgan (ko'pincha, shunday bo'ladi ham) o'ta past intensivlikdagi, juda kam miqdordagi ta'sirlar ham gigiyenik ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ko'pgina aholi yashash joylaridagi ekologik- gigiyenik vaziyat yomonlashgani oqibatida bu muammolar yanada chuqurlashmoqda. Bolalar va o'smirlar organizmining katta odamlar organizmidan asosiy farqi shundaki, tashqi ta'sirlar uning nafaqat ayni paytdagi funksional holatida aks etibgina qolmay, balki uning rivojlanishi va kelgusidagi hayotiga ham juda qattiq ta'sir qiladi. Katta yoshdagi aholining sog'ligi salmoqli darajada bolalarning sog'ligi bilan belgilanadi, chunki organizmning normal holatdan chiqishi patologiyalarning ko'pgina ko'rinishlari bolalikda shakllanadi. Bu muammolarning barchasini bolalar va o'smirlar gigiyenasi fani o'rganadi. Gigiyena — atrofimizdagi olam omillarining inson organizmiga ta'siri (tabiiy va ijtimoiy)ni o'rganuvchi va inson sog'ligini saqlash va barqarorlashtirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan me'yorlar va tavsiyalarni ishlab chiqaruvchi fandır. Sog'liqni saqlash va barqarorlashtirish katta ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, bolalar va o'smirlar uchun yetarli emas.

Ular uchun eng asosiysi - maqbul rivojlanishdir. Shuning uchun ham bolalar va o'smirlar gigiyenasida har bir muhit omili bolaning rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siriga qarab baholanadi. Ta'lim-tarbiya gigiyenasiga doir qarashlar birinchi bo'lib

xalq tabobati va oilalarida o'z aksini topib boradi. Kasalliklarning oldini olish va bolalar gigiyenasiga doir ilmiy qarashlar va izlanishlar pediatriya fanining rivojlanishiga zamin yaratadi, pediatrlar nafaqat bemor bolalarni davolash, balki bolani parvarishi va ta'lim-tarbiyasi to'g'risida maslahatlar berishgan. Oqilona tuzilgan, bolalar yoshining o'ziga xosliklariga mos bo'lgan kun tartibi turli faoliyat ko'rinishlarini almashtirishga, maqbul harakat tartibini (shu jumladan, ochiq havoda ham) ta'minlab, to'laqonli dam olishga, yetarlicha uxlashga imkon yaratadi, bu esa bolalarning to'g'ri o'sishi va rivojlanishiga yordamlashadi.

Bolalar va o'smirlarning kun tartibi yoshining o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan holda quyidagi majburiy tarkibiy qismlarini qamrab olmog'i lozim:

- ovqatlanish tartibi (ovqat tanavvul qilishlar orasidagi vaqt va ovqatlanishlar soni);
- kun davomida toza havoda bo'lish;
- uxlash muddati va miqdori;
- muassasalar sharoitidagi, shuningdek, uydagi majburiy mashg'ulotlar vaqti va joyi;
- bo'sh vaqt, bolaning o'z ixtiyoriga ko'ra harakat faolligini ta'minlash imkoniyati.

Kun tartibiga rioya qilish, uning barcha tarkibiy qismlarining boshlanishi va oxiri, faoliyat turlarining doimo ayni bir paytda amalga oshirilishi bolalarda vaqtga nisbatan yetarlicha mustahkam shartli reflekslarni hosil qiladi. Vaqtga nisbatan refleks yaratilishi oqibatida bolaning organizmi doimo oldindagi faoliyat turi uchun tayyor turadi. Shu bilan birga barcha faoliyat jarayonlari (mashqlar, ovqatlanish, uxlash va hokazo) kamroq «fiziologik narx» bilan (tezroq va osonroq) kechadi. Bunda kun tartibiga rioya qilish, hayot bir xildaligini saqlab qolish asosiy gigiyenik ahamiyatga ega. Bola hayotining majburiy qonuni to'g'ri tuzilgan va doimo amal qilinadigan kun tartibidir. Gigiyenik jihatdan oqilona tuzilgan kun tartibida hayot faoliyatlarining barcha zarur tarkibiy qismlari uchun yetarlicha vaqt ajratish va to'liq uyg'oqlik davri mobaynida yuksak mehnat qobiliyatiga ega bo'lishni ta'minlash nazarda tutiladi. To'g'ri tuzilgan kun tartibi bir maromdagi ko'tarinki kayfiyatni, o'qishga va ijodiy faoliyatga, o'yinlarga qiziqish hosil qiladi, bolaning normal rivojlanishiga ko'maklashadi. Bolaning ruhiy holati, shodliklari va muvaffaqiyatsizliklari o'sish va rivojlanish jarayonida o'z aksini topadi. Ruhiy zo'riqish, ruhiy zichlik holatlari, ruhiy jarohatlanishlar doimo o'sish to'xtab qolishiga olib keladi. Bolalar bog'chasi yoki maktabga borish kabi bola uchun ruhiy jihatdan murakkab vaziyatlar o'sishni bir necha haftagacha to'xtatib qo'yishi mumkin. Maktabdagi omadsizliklar yoki oiladagi janjallar ham sezilarli darajada o'sishdan ortda qolishiga olib keladi. Bu — tashvishli va ruhiy zichlik holatlari kuchlilik qilganida bolaning o'sish jarayonini cheklovchi neyroendokrin mexanizmlarining ishga tushishi bilan bog'liqdir. Pediatrlar kun tartibining bolaning normal o'sishidagi ikki yetakchi omilini e'tirof etishadi.

Birinchisi — adekvat jismoniy harakatchanlik skeletga tushadigan hamda osteogenez va tog'ay suyaklari o'sishini kuchaytiruvchi, yo'nalishi bo'yicha vertikal va almashinib turuvchi mexanik yuklamani ta'minlaydi. Mushaklarning ishlashi bo'y

o'stiruvchi gormonlar ajralib chiqishini ham faollashtiradi. Shu bilan birga, haddan ortiq vertikal yuklama, aytaylik, og'irliklarni tashish teskari samara beradi — bo'y o'sishini to'xtatib qo'yadi. Shuning uchun ham shifokorlar bolalarning kun tartibini muntazam nazorat qilishlari, gipokineziya, ya'ni kam harakatli va o'sishga zararli ta'sir qiluvchi sport turlari yoki mehnat bilan shug'ullanishga yo'l qo'ymasliklari kerak. Kun tartibidagi ikkinchi muhim qism — to'laqonli uyqudir. Aynan uyqu paytida bola skeletning shakllanishini belgilaydigan barcha metabolik va hujayraviy qayta qurilishlar yuz beradi. Hayotining birinchi oylarida markaziy asab tizimini (MAT) funksional zaifligi bilan ajralib turadi. Tashqi qo'zg'atuvchilar bolaning asab tizimi uchun kuchlilik qiladi va uni tez charchatib qo'yadi. Shu tufayli ham bolaning uxlamaydigan faol davri ozgina (5— 7 soat) bo'lib, har 1,5— 2 soatda bola uxlab qoladi. Bola hayotini to'g'ri tashkillashtirilsa, hayotining 1-oyi oxiriga kelib uning bir kechakunduzlik bedor va uxlash tartibi shakllanadi. Uyquga eng ko'proq ijobiy ta'sir qiluvchi omil — toza havodir. U teriga, burun va yuqori nafas yo'llarining shilliq pardasiga ta'sir qilib, uyqu tezroq kelishiga sabab bo'ladi. Ochiq havoda uxlash sayrning o'rniga o'tadi, ayniqsa, yilning sovuq va fasllar almashinayotgan davrida bu juda muhim. Uyqu va uyg'oqlik qonuniyatlari rivojlanishini hisobga olgan holada, bola hayotining dastlabki yillaridagi differensiyalangan tartiblar ishlab chiqilgan. Bolalarni o'qitish gigiyenasining asosiy muammolarini atoqli gigiyenist, bolalar va o'smirlar gigiyenasining asoschisi F.F.Erisman jiddiy va ifodali qilib, shunday ta'riflagandi: «Biz o'quvchi!ar o'quv muassasalarining tashqi sharoiti orqali to'qnash keladigan salomatlik buzilishlari haqida so'zladik, biz bolada qon almashinishi izdan chiqayotganini, uning ovqat to'laqonli emasligini, u borgan sari qiyshayib va shapko'r bo'lib borayotganini ko'rdik. Afsus, shuni ham e'tirof etishimiz lozimki, maktab hayoti davomida bolakay aqli noqis bo'lib qolishi ham kamyob hodisa emas...» F.F.Erismaning mulohazalari hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Bundan tashqari bolalar salomatligi va jismoniy rivojlanishi holatlarining mushkul vaziyatdaligi bolaning maktabdagi uzluksiz o'qitishga funksional tayyorligi muammosi ham dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

КАЛАМУШ ЖИГАР АНТИОКСИДАНТ ТИЗИМИГА ПОЛИФЕНОЛЛАР ЭКСТРАКТИНИНГ ТАЪСИРИ

Маллаева Мавжудахон Махрамовна
Самарканд давлат тиббиёт университети

Оксидланишли стресс — кислороднинг эркин радикаллар даражасининг ортиши натижасида хужайралар шикастланиши ва ўлимини ифодалайди. Бунда эркин радикалларнинг хаддан ташқари ҳосил бўлиши ёки организмнинг антиоксидант имкониятларини издан чиқарилиши орқали антиоксидант тизимларда номутаносиблик намоён бўлади.

Токсик гепатитда жигар хужайраларида дегенератив ва хужайра некрози шакли ўзгаради. Бундай шароитдаги тажриба ҳайвонларига антиоксидант

хусусиятга эга бўлган биологик фаол моддаларнинг киритилиши эркин радикалларнинг токсик таъсирини камайтиришга ёрдам беради.

Токсик гепатит шароитида жигар митохондрияси функционал фаоллиги ва антиоксидант ҳимоя тизимидаги бузилишларни аниқлаш ҳамда уларни ўсимлик бирикмалари билан фармакологик коррекциялаш долзарб ҳисобланади. Мана шундай бирикмалардан бири кверцетин каламуш жигар митохондриясининг нафас олишини ингибирлаб, нафас олиш ва фосфорланиш жараёнларининг “енгил” ажралишини келтириб чиқаради. Кверцетин 25-50 мкМ концентрацияда Ca^{2+} ионлари билан чақирилган МРТР очилишини ингибирлайди ва кверцетиннинг машҳур проапоптотик таъсирини тушунтириши мумкин.

Ушбу ишда CCl_4 билан чақирилган токсик гепатит шароитида митохондриядаги функционал бузилишлар ва уларга ўсимликлардан ажратилган полифеноллар экстрактини жигардаги малон диальдегид (МДА) миқдорига, ЛПО жараёнига, супероксиддисмутаза, глутатионпероксидаза ва каталаза фермент фаолликлари таъсири ўрганилди.

Мавзунинг мақсади токсик гепатитда каламуш жигар митохондрияси антиоксидант ферментлари фаоллигига ва Fe^{2+} /цитратга боғлиқ ЛПО жараёнига *Glabra* ўсимлигидан ажратилган полифеноллар экстрактининг таъсирини ўрганишдан иборат.

Материал ва методлар: Fe^{2+} /цитратга боғлиқ митохондриял бўқиш пайдо бўлиши митохондриял суспензияга 50 мкМ $FeSO_4$ ва 2 мМ натрий цитрат қўшилиши натижасида юзага келган ва Cary 60 Agilent technology спектрофотометрида 540 нмда қайд этилган. Инкубация муҳити (ИМ) таркибида (мМ): сахароза-250, Трис-хлорид-10, ЭДТА-1; рН 7,4. Бундай ҳолда, митохондриял оқсил миқдори 1 мл инкубация муҳитига 0,5 мг ни ташкил этди.

Олинган натижалар ва уларнинг таҳлили. Тажрибаларда токсик гепатит шароитида жигар митохондриясида СОД фаоллигини ўзгариши ва уларга *Glabra* полифеноллар экстрактининг таъсири ўрганилди. Олинган натижаларга кўра, назорат сифатида олинган I гуруҳ соғлом ҳайвонлар жигар митохондриясида СОД фаоллиги $4,83 \pm 0,20$ ед./мг митохондрия оқсилни ташкил этди, ушбу кўрсаткични 100% деб белгиладик. CCl_4 юборилган II гуруҳ каламушлар жигар митохондриясида СОД фаоллиги $2,86 \pm 0,10$ ед./мг митохондрия оқсилни ташкил этиб, назорат гуруҳи кўрсаткичларига нисбатан $40,80 \pm 3,40\%$ га камайганлиги аниқланди.

Шундай қилиб, токсик гепатитда жигар митохондрия СОД фаоллиги камайдиган, *Glabra* экстрактлар таъсирида ушбу фермент фаоллиги қисман қайта тикланди.

Токсик гепатитда ЛПО маҳсулотларини ортиши жигар митохондриясида водород пероксидни (H_2O_2) кескин ортишига сабаб бўлади. Бундай шароитда яна бир муҳим антиоксидант фермент каталаза митохондрияда фаоллашиб H_2O_2 ни кислород ва сувга парчаланишида иштирок этади. Шу нуқтаи назардан токсик гепатитда каталаза фаоллигини полифенол экстрактлари ёрдамида ўзгаришини аниқлаш учун навбатдаги тажриба олиб борилди.

Олинган натижаларга кўра, I назорат гуруҳи хайвонлар жигар митохондриясида каталаза фаоллиги 62.33 ± 1.20 мкКат/мл митохондрия оксилни ташкил этди, ушбу кўрсаткични 100 % деб олинди. CCl₄ юборилган II гуруҳ каламушларни жигар митохондриясида каталаза ферменти фаоллиги 37.90 ± 1.32 мкКат/мл митохондрия оксилни ташкил этиб, назорат гуруҳи кўрсаткичларига нисбатан $39.2 \pm 3.5\%$ га камайганлиги аниқланди.

Хулоса: олинган натижаларга кўра, соғлом I гуруҳ каламушлар жигар митохондриясида глутатионпероксидаза фаоллиги 80.11 ± 1.75 мМ/мин гр оксилни ташкил этди. Токсик гепатит чақирилган II гуруҳ каламушлар жигар митохондрияси глутатионпероксидаза ферменти фаоллиги 60.88 ± 1.40 мМ/мин гр оксилни ташкил этиб, назорат гуруҳига нисбатан $24.1 \pm 2.1\%$ га камайганлиги аниқланди. Токсик гепатит чақирилган III ва IV гуруҳ хайвонларни мос равишда *Glabra* полифеноллар экстракти билан фармакотерапия қилинганда уларнинг жигар митохондрияси глутатионпероксидаза ферментининг фаоллиги 74.51 ± 3.16 мМ/мин гр оксил ва 75.98 ± 3.56 мМ/мин гр оксилни ташкил этди. Бу эса II гуруҳга нисбатан глутатионпероксидаза фаоллиги $17.1 \pm 1.20\%$ ва $18.85 \pm 1.17\%$ га қайта тикланганлигидан далолат беради. Демак, CCl₄ билан чақирилган токсик гепатитда жигар митохондрияси глутатионпероксидаза фаоллигига *Glabra* полифеноллар экстракти самарали таъсир этиб фермент фаоллигини қайта тиклаганлиги маълум бўлди.

Aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini yaxshilash.

Mirzoeva.G.R.

Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida bir qancha ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish, kasalliklarni profilaktika qilish va barvaqt aniqlash, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, sohaga yangi boshqaruvni joriy qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni yanada yaxshilash, kasalliklar profilaktikasi, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi va sanitariya-gigiyenik madaniyatni targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirishda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlarining yetakchi o'rnini egallaydi. Shu bilan birga, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining asosiy vazifalarini ustuvor darajada kasalliklarning oldini olishga, profilaktika va aholi bilan patronaj ishlari olib borishga qayta yo'naltirish juda dolzarb bo'lib qolmoqda.

Aholi orasida kasalliklar va shikastlanishlar aniqlanganda o'z vaqtida to'g'ri tashxislab, ehtiyoj sezilganda kechiktirmasdan shifoxonaga yotqizish, kasalliklarga chalinish va nogironlik darajasining pasayishini, ayniqsa aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatidan aholining qoniqishini hamda tibbiyot xodimlari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari etib belgilashdan iborat.

Biriktirilgan hududda oilalarning to'liq patronaj bilan qamrab olinishini ta'minlash va o'z faoliyatining ijobiy pirovard natijalariga, shu jumladan, kasallanish

darajasini pasayishiga, go'daklar va onalar o'limini oldini olishga erishgan patronaj tibbiyot hamshiralari va umumiy amaliyot vrachlarini ish faoliyatini kuzatish va monitor baholash.

Tadqiqotning maqsadi. Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni yanada yaxshilash, kasalliklar profilaktikasi, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi va sanitariya-gigiyenik madaniyatni targ'ib qilish, aholi orasida kasalliklar va shikastlanishlar aniqlanganda o'z vaqtida to'g'ri tashxislab, ehtiyoj sezilganda kechiktirmasdan shifoxonaga yotqizish, kasalliklarga chalinish va nogironlik darajasining pasayishini, ayniqsa aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatidan aholining qoniqishini hamda tibbiyot xodimlari faoliyati samaradorligini baholashning asosiy mezonlari etib belgilashdan iborat. Shu bilan birga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining asosiy vazifalarini ustuvor darajada kasalliklarning oldini olishga, profilaktika va aholi bilan patronaj ishlari olib borishga qayta yo'naltirishdir.

Tadqiqot usullari .O'tkazilayotgan tadqiqotda Buxoro viloyati Vobkent tumani ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi (KTMP)da ro'yxatda turadigan aholining 200 nafari..Ularda birlamchi tibbiy sanitariya yordamini yaxshilanishi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yuqumli va yuqumli bo'lmagan somatik kasalliklarni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni targ'ib qilish va keng doirada chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklarni tashkil etishini o'rganishdir

Statistik usuli (o'rganilayotgan aholi o'rtasida umumiy kasallanishlar, o'lim ko'rsatgichi) Eksperimental tadqiqot usuli(tibbiy profilaktik ko'rik) va anketa usulidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Barcha ko'rib chiqilgan aholining 40 nafar homilador ayollar, 50 nafar 50 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan katta yoshlilar, 50 nafar o'smirlar, 12 nafar 1-yoshgacha bo'lgan bolalar, 48 nafar 1-18 yoshdagilardir

Xulosa. Aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami yanada yaxshilanganda aholi o'rtasida kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzi va sanitariya-gigiyenik madaniyatni oshganligi va kasalliklar va shikastlanishlar o'z vaqtida aniqlanib tashxislanishiga juda katta yordam beradi. Shu bilan birga turli xil kasalliklarga chalinish va nogironlik darajasini pasayishiga imkon berdi.

O'ZBEKISTON QISHLOQ VA SHAHAR AHOLISI OVQATLANISHIDA DON MAHSULOTLARINI ISTE'MOL QILISH.

Maxmudova M.X.1, Qitaybekov S.M.2, Xudayberganov A.S.3

1. Toshkent davlat stomatologiya instituti assisenti. mahmudovam037@gmail.com
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti, Toshkent, O'zbekiston, sultanbek0622@gmail.com
3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish markazi gigiyena kafedrasini professori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ilmiy tadqiqot instituti Oziq-

ovqat gigiyenasi laboratoriyasi mudiri. , Toshkent.O‘zbekiston, tibbiyot fanlari doktori, professor anatoliyhud@mail.ru

Oziqlanishning tabiati eng muhim hayotiy (hayotni belgilovchi) omil bo'lib, u moddalar almashinuvining tashabbuskori va tartibga soluvchisi bo'lib, inson organizmidagi hayotni ta'minlash jarayonlariga javob beradi. Shu munosabat bilan keyingi yillarda alohida e'tibor berilyapti. O'zbekistonda yuqumli bo'lmagan kasalliklarning ovqatlanish profilaktikasi va sog'liqni oziqlantirish bilan ta'minlash muammolariga. Sog'lom ovqatlanishni saqlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun aholining ovqatlanish holatini o'rganishga alohida o'rin beriladi.

Tadqiqot maqsadi Toshkent shahri va Qoraqalpog‘iston Respublikasida qandolatchilik mahsulotlarini iste‘mol qilish va ularning sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga ta’sirini baholashdan iborat edi.

Materiallar va usullar. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 270 ta xonadon, Toshkent shahrida 220 ta xo‘jalik tadqiqot ob‘yekti bo‘ldi. Vakillik guruhi tasodifiy tanlab olish yo‘li bilan tuzilgan va doimiy edi. Ratsion va ovqatlanish odatlarini ozuqaviy baholash maqsadida biz 26 ko‘rsatkichdan foydalangan holda 1400 ta menyu tartibini o'rganib chiqdik.

Haqiqiy ovqatlanish biz tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan anketalarni O‘zbekistonga moslashtirish bilan JSST tomonidan epidemiologik tadqiqotlar uchun tavsiya etilgan chastota va 24 soatlik eslab qolish usuli bo‘yicha o‘rganildi. Vakillik guruhi tasodifiy tanlab olish yo‘li bilan tuzilgan va doimiy edi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalar.

O‘rganilayotgan ob‘ektlarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahridagi don mahsulotlarining o‘rtacha kunlik iste‘molini baholash shuni ko‘rsatadiki, don mahsulotlarining barcha turlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahri o‘rtasida og‘ishlar.

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda birinchi marta don mahsulotlarining barcha turlari, shu jumladan milliy turdagi mahsulotlar uchun iste‘molini tavsiflovchi ma’lumotlar olindi. Aniqlanishicha, Qoraqalpog‘iston Respublikasida don mahsulotlarining o‘rtacha kunlik iste‘moli Toshkent shahriga nisbatan keskin farq qiladi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha o‘rtacha kunlik shahar aholisi orasida $201,0 \pm 2,5$ g, shahar aholisi orasida esa $204,7 \pm 3,6$ g ni tashkil etadi. Qishloq aholisi orasida /kun, Toshkent shahrida esa $153,5 \pm 2,2$ gr. Shu bilan birga, don mahsulotlari orasida eng ko‘p iste'mol qilinadigan guruch Qoraqalpog‘iston Respublikasida bir sutkada shahar aholisi uchun $67,0 \pm 1,6$ g, qishloq aholisi uchun $74,0 \pm 1,8$ g, Toshkent shahrida esa o'rtacha $50,8 \pm 1,6$ g. kuniga.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahri o‘rtasida don mahsulotlarini iste‘mol qilishning o‘ziga xos jihati iste‘mol hisoblanadi.

jo‘xori (Jugara-lat. Sorghum) shahar aholisi orasida kuniga $34,0 \pm 1,1$ g, qishloq aholisi orasida $38,0 \pm 1,8$ g. Ushbu mahsulot Qoraqalpog‘iston Respublikasining o'ziga xos milliy don mahsuloti bo'lib, shunga ko'ra Toshkent shahri aholisi orasida iste'mol qilish darajasi aniqlanmagan.

Xulosa:

O'zbekistonda birinchi marta don mahsulotlari iste'molini mahsulot turlari bo'yicha, shu jumladan. milliy turlar bo'yicha. Aniqlanishicha, don mahsulotlarining o'rtacha kunlik iste'moli Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida keskin farq qiladi va Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha o'rtacha 201,0±2,5 g/shaharliklar, 204,7±3,6 g/kun. qishloq aholisi orasida, Toshkent shahrida esa 153,5±2,2 gr. Don mahsulotlari ro'yxatidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahri uchun o'rtacha kunlik ratsionda guruch eng ommabop bo'lib chiqdi. Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rtacha kunlik ratsiondagi guruch iste'moli shahar aholisi uchun kuniga 67,0±1,6 g, qishloq aholisi uchun 74,0±1,8 g, Toshkent shahrida esa o'rtacha 50,8±1,6 gr. kuniga. Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun don mahsulotlari iste'molining o'ziga xos jihati shahar aholisi o'rtasida kuniga 34,0±1,1 gramm, qishloq aholisi orasida 38,0±1,8 gramm jo'xori iste'mol qilishdir. Bu mahsulot Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos milliy don mahsulotidir.

SEMIZLIK MAVJUD BOLALAR VA O'SMIRLARNING TURMUSH TARZINI O'RGANISH

Mirsagatova M.R., Muxammadzokirov S.S., Olimova N.N.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Bolalar va o'smirlar orasida semizlikning o'sib borishi zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xozirgi kunga kelib Yer yuzining milliarddan ortiq aholisi ortiqcha vazn va semizlikdan aziyat chekmoqda. Eng achinarlisi bu xolatni bolalar va o'smirlar o'rtasida tarqalganligidir.

Adabiyotlar taxliliga ko'ra, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshligida ortiqcha vazni mavjud bolalarda katta bo'lgan sari semizlikka moyillik xam ortib boradi. Ota onalar shuni bilishlari lozimki, bolalarda semizlikni bo'lishi, katta bo'lganlarida 2 tip qandli diabet, jigar va o't yo'llari kasalliklari, gipertoniya, bepustlik va boshqa surunkali kasalliklar kelib chiqishi xavfi ortib boradi. Bolalarda semizlikning asoratlaridan biri katta yoshdagilarda uchraydigan erta yoshdagi ateroskleroz, yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti hisoblanadi. Bundan tashqari ortiqcha vazndagi bolalar uyqusida qattiq xurrak otishi va boshqa uyqu bilan bog'liq salbiy xolatlar xam kuzatiladi, bu esa bolaning salomatlik holatiga ta'sir etadi. JSST hisobotida ta'kidlanishicha, bolalar ovqatlanishining me'yor standartlari va tavsiyalariga hamda yoshga mos bo'lgan o'lchamdagi taomni istemol qilish muhimdir. 2006 yilda JSST maktab oziq-ovqat va ovqatlanish siyosatini maktabda ovqatlanish dasturlarini ishlab chiqish vositasi sifatida qabul qildi. Ushbu hujjatda taomnomani ishlab chiqish, oziq-ovqat va ozuqaviy tarkibi (yog'lar, oqsillar va uglevodlar nisbati, kaloriya miqdori, vitaminlar va minerallarning tarkibi va boshqalar), bolalarning yoshiga qarab taom o'lchamlari, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, sotib olish talablari bo'yicha tavsiyalar mavjud.

Semizlik – bu ruhiy muammo ham hisoblanadi. Bolalar va o'smirlardagi tana vazni ortiqchaligi o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, o'z-o'zini ijobiy baholashni kamaytiradi va buni natijasida o'zlashtirish ko'rsatkichi pasayib ketishi, tengdoshlari orasida kulgili xolatga, yoki depressiyaga tushib qolishiga olib kelishi mumkin.

Qanday omillar bolalar va o'smirlarda tana vazni ortishiga va semizlikka sabab bo'lishi mumkin?

Semizlik – ko'p omilli muammo hisoblanadi. Jumladan, noto'g'ri ovqatlanish, jismoniy harakatlarni cheklanishi, sog'lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilmaslik, ovqatlanish tartibiga rioya etmaslik, yuqori kaloriyali tez pishar taomlarni, shirinliklarni ko'plab iste'mol qilish va b.q. Omillarning eng muhimi bu bolaning oqilona ovqatlanishiga e'tibor berish. Hozirgi zamon bolalari orasida tez tayyor bo'ladigan yoki yarim tayyor mahsulotlariga bo'lgan extiyoj ortib borganki, natijada ular bunday mahsulotlarni keragidan ortiqcha iste'mol qilmoqdalar

Tadqiqotning maqsadi. Bolalar va o'smirlarda ortiqcha vazn va semirishning oldini olish uchun, avvalo ularda to'g'ri ovqatlanishni, jismoniy faollikni, taomni qabul qilish vaqtlarini o'rganish maqsadida bolalarni va ularning ota-onalari bilan anketa so'rovnoma o'tkazishni maqsad qildik.

Materiallar va usullar

7-15 yoshgacha bo'lgan 120 ta bolalar va o'smirlarda anketa so'rovnoma o'tkazildi. Bunda bolaning o'zi va ota onasi xam savollarga javob berishlari, yoki o'zlarining shaxsiy javoblarini ko'rsatib o'tishlari aytib o'tilgan.

Natijalar. So'rovnomada berilgan ilk savol ya'ni Siz o'zingizdagi semirish belgilarini qachon ahamiyat berdingiz, savoliga 35,3% bolalar 5-6 yoshida, 48% i 7-10 yoshida, 10,7%i 11-15 yoshida, 6% bolalar esa 16-17 yoshida deb javob berishgan. Demak, semirishning ilk belgilari maktabgacha yosh yoki birinchi maktab yoshi davriga to'g'ri kelar ekan. Semirish yoki tana vaznini ortiqchaligini kelib chiqishida ahamiyatli bo'lgan sababni ko'rsating degan savolga, 49,5% tekshiriluvchilar noto'g'ri ovqatlanishni, 27,8%i kam jismoniy faollikni, 18,3%i irsiylik bilan bog'laganlar, 4,6%i esa turli dori vositalarini qabul qilish bilan bog'laydilar.

Kam harakatlikni yana bir ko'rsatkichi bu bolalarni kompyuter yoki televizor ko'rish bilan o'tkazadigan vaqti. Aniqlanishicha, so'rovnomadagi 62,7% tekshiriluvchilar o'zining 2 soatdan ko'p vaqtini uyali aloqa vositasi va kompyuter bilan shug'ullanishga, 37,3%i televizor ko'rishga vaqtini ajratar ekanlar. Jismoniy tarbiya darslari va sport to'garaklariga qatnashi haqida savol so'ralganida, 17,5% bolalar sport to'garaklariga va maktabda jismoniy tarbiya darslariga umuman ishtirok etmas ekanlar, 59,1%i esa faqat jismoniy tarbiya darsiga qatnashar ekan, qolgan bolalar esa (23,4%) sportning turli to'garaklariga qatnashar ekanlar. Ovqat qabul qilishga bog'liq ovqatlanish tartibi haqidagi savolga 79 (66%i) dan ortig'i 4 va undan ko'p marta kuniga ovqatlanishi, 41tasi (34%) esa 3-martagacha kuniga ovqatlanishi haqida javob olindi. Ko'pgina bolalar (21%) kechki ovqatni juda kech istemol qilishlarini va buni ota-onalarining ishdan kech qaytishlari bilan bog'laganlar. Alohida ovqat mahsulotlarini kuniga istemol qilish maromini so'ralganida, makaron, buterbrod, kartoshka chipslarni ko'rsatib o'tishgan. Anketani yana bir savolida Siz shirinliklarni qanchalik tez-tez istemol qilasiz, deb so'ralganida, 26%i shokolad mahsulotlari, 22%i chips, suxariklarni, 15%- konfetlarni, 11% esa turli pishiriqlarni ko'rsatib o'tganliklari aniqlandi.

Xulosa. Demak, semirish belgilari, vazn ortiqchaligi maktabgacha yoshdagi va ilk maktab yoshidagi bolalarda aniq ko'rinar ekan. Buni kelib chiqish sabablari esa, no-

to'g'ri ovqatlanish, kam harakatlik. Ko'pgina semizlik mavjud bolalar va o'smirlar, ko'p vaqtlarini uyali aloqa vositalari va televizor, kompyuter ko'rish bilan o'tkazishlari kamharakatlik hayot tarzini olib borishlari aniqlangan.

Adabiyotlar

1. Богданьянц, М. В. Возможные факторы риска развития ожирения у детей и подростков / М. В. Богданьянц, А. А. Джумагазиев, Д. А. Безрукова / Наука и образование сегодня. - 2016. - № 6 (7). -С. 93-94.
2. Niyazova O. A., Khayitov J. B., Mirsagatova M. R. Research and evaluation of the actual nutrition of children and adolescent chess players. – 2023.
3. Джумагазиев, А. А. Проблема ожирения у детей в современном мире: реалии и возможные пути решения / А. А. Джумагазиев, Д. А. Безрукова, М. В. Богданьянц, Ф. В. Орлов, Д. В. Райский, Л. М. Акмаева, О. В. Усаева, Л. С. Джаммаев // Вопросы современной педиатрии. - 2016. - Т. 15, № 3. - С. 250-256.
4. Васюкова, О. В. Рекомендации по диагностике, лечению и профилактике ожирения у детей и подростков / О. В. Васюкова, И. Я. Конь, З. Г. Ларионова, И. В. Леонтьева, Е. В. Павловская, Г. И. Порядина, В. Б. Розанов, А. В. Стародубова, М. Ю. Щербакова; под науч. ред. А. А. Александрова, В. А. Пятеркова. - М. : Практика, 2015. - 136 с.

ҚИШЛОҚ ТУМАНЛАРИДА ЯШОВЧИ ҲОМИЛАДОР ВА ЭМИЗИКЛИ АЁЛЛАР ИММУН ТИЗИМИ ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ

Муратов Н.Ф.

Бухоро давлат тиббиёт институти

Ушбу тадқиқотнинг мақсади қишлоқ туманларида яшовчи ҳомиладор ва эмизикли аёллар қон зардободаги иммуноглобулинлар миқдорий кўрсаткичларини ўрганиш, олинган натижаларни талқин ва таҳлил қилишдан иборат бўлди.

Тадқиқот материали ва усуллари. Тадқиқот объекти сифатида Бухоро вилояти Пешкў туманида доимий истиқомат қилувчи ҳомиладорлар ва эмизикли аёллар танланди. Ушбу туманнинг танланиши унинг йирик саноат шаҳридан (Бухоро шаҳри) узоклиги, типик қишлоқ тумани эканлиги, яшаб турган аҳолининг барчаси шу қишлоқда доимий истиқомат қилиши, иш жойи ҳам шу қишлоқда эканлиги, турмуш тарзи ҳам қишлоқ ҳаётига мослиги, тиббий ёрдам сифати Республика бўйича қишлоқ шароитидан фарқ қилмаслиги бўйича спонтан танланди.

Ушбу ҳудудда яшовчи барча аёллар рўйхатга олиниб, уларнинг 20% и тадқиқотларга жалб қилинди. Текширилган ҳомиладорларнинг барчаси ҳомиладорликнинг охири босқичида (38-42 ҳафта) бўлишди. Ушбу муддат танланиши ҳомиладорликнинг организмга таъсири юқори чўққиси эканлиги билан боғлиқ. Тадқиқотларни ўтказишда унинг рандомизацияланганига эътибор қаратилди, шу билан бирга таққосланаётган гуруҳлар бир бирига репрезентатив бўлди. Рандомизация ва репрезентативлик тадқиқот натижасида ҳаққоний

натижалар олиш ва асосли хулосалар қилиш учун аҳамиятли эканлигига эътибор қаратилди.

Илмий-тадқиқот ишига жалб қилинган 145 нафар аёллар фертил ёшда бўлиб (19-49 ёш), Бухоро вилояти Пешкў тумани Қучоқ, Шибирғони, Ўғлон, Боғимусо, Саройча, Садир маҳалла фуқаролар йиғинларида доимий истиқомат қилишган. Улар ҳомиладорликнинг III-триместри ва эмизикли даврда иммунологик скринингдан ўтказилди. Иммунологик текширишлар учун қон ҳомиладорликнинг 38-40 ҳафтасида ва эмизикли даврда туққандан 40-45 кун ўтгач, ўтказилди.

Ўрганилган аёллар ёш бўйича қуйидагича тақсимланди: 19-25 ёш - 49 нафар (33,79±3,93%), 26-30 ёш - 83 нафар (57,24±4,11%), 31-35 ёш - 12 нафар (8,28±2,29%), 36-40 ёш - 1 нафар (0,69±0,68%). Кўриниб турибдики 30 ёшгача бўлган ҳомиладорлар кўпчилики (91,03%) ташкил этишди.

Ўрганилган контингентнинг асосий қисмини уй бекалари ташкил этди (84,83±2,98%, n=123), кейинги ўринларда хизматчилар (7,58±2,20%, n=11), фермер хўжалиги ишчилари (4,14±1,65%, n=6), талабалар (3,45±1,52%, n=5) бўлишди. Ушбу ҳолат танланган ҳудуднинг типик қишлоқ жойи эканлигини яна бир бор исботлади.

Ушбу ҳомиладор аёлларнинг 122 нафарида (84,14±3,03%) ҳайздан олдин ёки кейин, шунингдек ҳайз даврида патологик ўзгаришлар кузатилмади, аммо 23 нафарида (15,86±3,03%) ҳайз оғриқли ва давомли бўлди. Бу ҳолат ушбу ҳомиладорлик кечилишига жиддий таъсир кўрсатмади. Аниқланишича, ҳомиладорлик ва туғишлар сони мамлакатимизнинг қишлоқ жойлари учун типик ҳисобланди ва ўртача Республика кўрсаткичларидан фарқ қилмади.

TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN BALIQ MOYINING TALABLARI

Mamatkulov M.X. k.f.f.d., (PhD)

Masaliyeva S.N. 94-20 FOBMT guruh talabasi

Farg‘ona politexnika insituti

Baliq moyi — treska, kambala, olabug‘a, sulaymonbaliq, paltus baliqlari jigaridan va dengiz sut emizuvchilarining teri osti yog‘ qatlamidan olinadigan moy. Sarg‘ish, tiniq suyuqlik bo‘lib, baliq hidi va mazasi bor. Tarkibida ko‘p miqdorda A va D vitaminlari, shuningdek yod va boshqa birikmalar bo‘ladi. Vitaminlashtirilgan Baliq moyi ham ishlab chiqariladi. Raxit, sil, shabko‘rlikning oldini olish va davolashda, singan suyakning bitishini tezlatish maqsadida ishlatiladi. Bolalarga 2 — 3 oyligidan kuniga 1-marta 1 — 2 tomchidan ichirib, har kuni 1 tomchidan ko‘paytira borib, bir choy qoshiqqa yetkaziladi. Homiladorlarga ham beriladi. Yozda Baliq moyi ichmagan ma‘qul. Kuygan, jarohatlangan joylarni, yarachaqalarni davolashda sirtdan ishlatiladi. Chorvachilikda buzoqlarga bir kunda 15 — 20 g, cho‘chqalarga 20 — 40 g berish tavsiya etiladi. Tovuqlarga kuniga 5 g dan berilganda tuxum qilishi ko‘payadi. Baliq moyi og‘zi berk idishlarda qorong‘i va salqin joyda saqlanishi kerak, chunki yorug‘likda Baliq moyi dagi D vitamini zaharli toksisterolga aylanishi mumkin. Baliq sanoati chiqindilaridan texnik Baliq moyi olinadi va u teri hamda sovun ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Baliq yog‘i juda tez achish xususiyatiga ega mahsulot bo‘lib, uning tez aynishi yuqori ayrim moy kislotalarining to‘yinmaganlik darajasiga bog‘likligi bilan, hamda olinish sharoitiga bog‘liq. Separasiya qilingan baliq yog‘i 0⁰C gacha sovutiladi. Aktivlashtirilgan ko‘mir va oqlovchi tuproqdan foydalanib olingan baliq yog‘i tiniq sarg‘imtir rangli bo‘lib, suyuq holatdagiining saqlanish muddati 6 oygacha, kapsula holatidagisining saqlanish muddati 2 yilgacha ishlab chiqarilgan kundan belgilanadi va 18⁰C haroratda saqlaniladi. Sunday qilib yuqori sifatli olingan ozuqaviy yoki tibbiyotda ishlatiladigan baliq moyi BAD (biologiq faol oziq-ovqat qo‘shilmalar) tarkibiga qo‘shilgan, davolash-profilaktika vositalarida qo‘llashga mo‘ljallangan, SES talablarnining xavfsiz va sifati kafolatlariga to‘liq javob beruvchi mahsulot tarkibida quyidagi moddalar talab doirasida bo‘lishi kerak:

Sovunlanmaydigan moddalar miqdori 2% dan oshmasligi

Peroksid soni, mol/ kg 10,0 dan oshmasligi

Kislotalar soni 100 g KOH mg da 4,0 dan yuqori bo‘lmasligi

Zaharli moddalar(toksik elementlar miqdori) mg/kg:

Qo‘rg‘oshin- 1,0

Kadmiy- 0,2

Simob- 0,3

To‘qimalar- 1,0

Pestisidlar miqdori geksaxlorsiklogeksan (α,β,γ -izomerlar) 0,1 mg/kg dan oshmasligi

DDT va uning metabolitlari 0,2 mg/kg dan oshmasligi

Yarim xlrlangan bifenollar miqdori 3,0 mg/kg dan oshmasligi

Radionukleidlarning miqdori:

Seziy-137: 60 Bk/kg dan oshmasligi

Stronsiy-90: 80 Bk/kg dan oshmasligi

A vitaminining miqdori mg/kg da 0,06 dan past bo‘lmasligi

D vitamin miqdori 1, 0 mg/ kg dan oshmasligi

Yarim to‘yinmagan moy kislotalarining miqdori g% hisobida 15 dan kam bo‘lmasligi lozim.

ХОМИЛАДОР ВА ЭМИЗУВЧИ АЁЛЛАР ОРГАНИЗМИ ИММУН ТИЗИМИДАГИ УЗГАРИШЛАР

Муротов Н.Ф., Эргашев В.А.

Бухоро давлат тиббиёт институти

Илмий-тадқиқот ишига жалб қилинган 145 нафар аёллар фертил ёшда бўлиб (19-49 ёш), Бухоро вилояти Пешкў тумани Қучоқ, Шибирғони, Ўғлон, Боғимусо, Саройча, Садир маҳалла фуқаролар йиғинларида доимий истиқомат қилишган. Улар икки марта - ҳомиладорлик даврининг III-триместрида ва эмизикли даврида иммунологик скринингдан ўтказилди. Иммунологик текширишлар учун қон ҳомиладорликнинг 38-40 ҳафтасида ва эмизикли даврда тукқандан 40-45 кун ўтгач, ўтказилди.

Ўрганилган аёллар ёш бўйича қуйидагича тақсимланди: 19-25 ёш - 49 нафар (33,79±3,93%), 26-30 ёш - 83 нафар (57,24±4,11%), 31-35 ёш - 12 нафар

(8,28±2,29%), 36-40 ёш - 1 нафар (0,69±0,68%). Кўриниб турибдики 30 ёшгача бўлган ҳомиладорлар кўпчилики (91,03%) ташкил этишди.

Ўрганилган аёлларнинг ижтимоий ҳолати ҳам муҳим аҳамиятга эга, бу уларнинг турмуш тарзига, тиббий ва санитар маданиятига бевосита таъсир кўрсатади. Ўрганилган контингентнинг асосий қисмини уй бекалари ташкил этди (84,83±2,98%, n=123), кейинги ўринларда хизматчилар (7,58±2,20%, n=11), фермер хўжалиги ишчилари (4,14±1,65%, n=6) ва талабалар (3,45±1,52%, n=5) бўлишди. Ушбу ҳолат танланган ҳудуднинг типик қишлоқ жойи эканлигини яна бир бор исботлади.

Ушбу ҳомиладор аёллар саломатлигининг ҳайз циклига боғлиқлиги ўрганилганда уларнинг 122 нафариди (84,14±3,03%) ҳайздан олдин ёки кейин, шунингдек ҳайз даврида патологик ўзгаришлар кузатилмади, аммо 23 нафариди (15,86±3,03%) ҳайз оғриқли ва давомли бўлди. Бу ҳолат ушбу ҳомиладорлик кечишига жиддий таъсир кўрсатмади.

Онанинг саломатлигига таъсир қилувчи омиллардан бири бу онада кечган ҳомиладорликлар сони ҳисобланади, шу сабабли аёлларни айнан шу ҳомиласини нечанчи эканлиги ўрганилди. Аниқланишича, ҳомиладорликлар ва туғишлар сони мамлакатимизнинг қишлоқ жойлари учун типик ҳисобланади ва ўртача Республика кўрсаткичларидан фарқ қилмади.

Ҳомиладорлик кечиши ушбу аёлларда турлича кечган, уларнинг 127 нафариди (87,59±2,74%) ҳомиладорликнинг биринчи триместрида, 5 нафариди (3,45±1,52%) ҳомиладорликнинг иккинчи триместрида токсикоз кузатилди, 13 нафар (8,96±2,37%) аёлларда шу ҳомиладорлик токсикозсиз кечди. Ушбу ҳолат ҳомиладор аёл ҳолатига ва ҳомиладорлик кечишига жиддий салбий таъсир кўрсатмади.

Патологик ҳолат кузатилган ҳомиладорларда СЗС нинг қон зардобидидаги миқдори соғлом ҳомиладорларга нисбатан 1,23 мартагача ишонарли даражада юқори бўлди ($P<0,05$). Бу кўрсаткичнинг патологик ҳолат кузатилган умумий гуруҳ (аутоиммун тиреоидит, I-II даражадаги анемиялар) аёлларида соғлом ҳомиладорларга нисбатан статистик жиҳатдан аҳамиятли даражада ошиши организмда антиген стимуляцияси ошгани, фаоллашиш жараёнлари кучайгани, иммун комплекслар миқдори кўпайганидан далолат.

SOG‘LOM OVQATLANISH

U.Sh..Maxamatov, N.R.Usupova, M.A.Xabibullayeva

Farg‘ona jamoat saalomatligi tibbiyot instituti. O‘zbekiston

Sog‘lom ovqatlanish -bu yaxshi kayfiyat va muvozanatni saqlashga yordam beruvchi usul va prinsiplardir. Vazn tashlash, semirish yoki kun tartibidan yaxshi o‘zlashtirilmayotgan mahsulotlarni olib tashlash kabi muammolar inson shaxsan tanlaydigan yo‘lga bosiladigan keyingi qadamdir.

Ilmiy tekshiruvlar shuni aniqlab kelyaptiki, mashxur parhezlar yoki ayrim mahsulotlardan to‘laligicha yoki qisman cheklash ko‘rinishidagi noto‘g‘ri ovqatlanish

-o'linga olib boruvchi yurak va qon tomir kasalliklari hamda saratonning rivojlanishi havfini kuchaytirar ekan.

To'g'ri ovqatlanishning haqiqiy kaliti – faollik, tonus va tana og'irligini o'z hayot tarziga mos ravishda saqlab turish. Sog'lom ovqatlanishning ba'zi qoidalarini ko'rib chiqamiz.

Iste'mol qilingan ozuqa organ to'qimalarini hosil qiladi va o'z-o'zidan organizmda bo'ladigan barcha jarayonlarga ta'sir qiladi. Shu qatorda ruhiy jarayonlarga ham. Axir sizning jismoniy holatingiz sizning kayfiyatingizda ham aks etadi.

Oqsillar, yog'lar va uglevodlar

Sog'lom ovqatlanish -bu katta fan bo'lib, uning qoidalari qanchalik sodda jaranglamasin, insonlar o'rganishi kerak ulkan bilimlar bazasi mavjud.

Oqsil, yog'lar va uglevodlar soglom turmush tarzi tushunchasining va ilmiy kategoriyasining atamalaridandir. Bu uch muhim moddalarsiz sog'lom ovqatlanish tartibini tasavvur qilib bo'lmaydi, shuning uchun ular haqida keyinchalik yana ko'p marotaba gaplashamiz. Ushbu moddalar yi'gindisi mahsulotdagi kaloriyalar miqdorini belgilaydi.

Oqsillar

Oqsil(protein)-organizmdagi asosiy tashkiliy elementlardan biridir. Insonning barcha organ va to'qimalari oqsillardan tashkil topgan.

Oqsillar ovqatning so'rilishida xizmat qiladi va garmonal funksiyalarni ham bajaradi.

Oqsil-kollagenlar insonning eng katta organi- terisi uchun javob beradi va uni tarang holda saqlab, atrof-muhitdan himoya qiladi.

Immunitet uchun javob beradigan oqsillar ham mavjud.

Oqsillar tanqisligi organizmning faoliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Kelib chiqishiga qarab oqsillar hayvonot va o'simlik oqsillariga bo'linadi. Kun tartibimizda har ikkisidan ham iste'mol qilishimiz kerak. maqsadingizga qarab, ular kunlik ozuqa miqdorining 10-35 % tashkil qilishi lozim.

Yog'lar

Ozuqaning asosiy qismlaridan biri yog' hisoblanadi. bir kunda 65 grammgacha yog' iste'mol qilish kerak.

Yog'lar to'yingan, to'yinmagan va transyog'larga bo'linadi. Kun davomida turli xil yog'larni iste'mol qilish juda muhim.

Uglevodlar

Uglevodlar – energiya zahirasi bo'lib, hayot faoliyatini olib borishda juda muhim manbadir. Uglevodlar tez(oddiy) va sekin(murakkab) turlarga bo'linadi. Murakkab uglevodlar fermentlar yordamida oddiy uglevod darajasigacha parchalanadi va bunga muayyan vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun ular sekin uglevodlar deyiladi. Oddiy uglevodlar parchalanishi shart emas, ular organizmga tezroq so'riladi.

Sog'lom ovqatlanish uchun tavsiyalar

O'simliklar va hayvonlardan olinadigan oziq-ovqatlarni aralashtiring

Kombinatsiya qilingan ovqatlanishning afzalligi shundaki, go'shtli ovqatlarga tarkibidagi ko'p miqdordagi suyuqlik bo'lgan sabzavotlar va mevalar qo'shilganda xuddi shu hajmdagi ovqatlarning tarkibidagi kaloriya ancha kamroq bo'ladi. Bunday yondashish orqali siz o'zingizni odatdagicha yeyapman deb aldashingiz mumkin.

Kamroq go'sht iste'mol qiling

Sog'lom ovqatlanishning asosi go'sht emas, balki tarkibida kraxmali yo'q donlilar, yo ng'oqlar, urug'lar, sabzavotlar va mevalar bo'lishi kerak. Butun donlilar (suli yormasi, jigarrang guruch, butun donli non) organizmni hazm qilish tizimiga va tezroq to'yishga yordam beruvchi kletchatkalar va quvvatni oshiruvchi, modda almashinuvini tezlashtiruvchi B guruh vitaminlari bilan ta'minlaydi.

Yog'larni iste'mol qilishda sinchkovroq bo'ling

Hamma yog'lar ham organizmga bir xilda ta'sir ko'rsatmaydi. Yarim to'yinmagan va kam to'yinmaganlari "yaxshi" yog'lar hisoblanadi, ularning ta'siri o'simlik va losos, f orel, seld balig'i yog'larinikiga o'xshash bo'ladi. Ular qondagi xolesterin darajasini os hirib yubormaydi va hatto yurak-tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi.

Hammasini emas, balki biron bir qismini istemol qiling

Agar siz qaysi oziq-ovqatlarni iste'mol qilmoqchi ekanligingizni aniqlab olgan bo'lsan giz ham, iste'mol qilayotgan ovqatingizning miqdoriga e'tibor berishingiz zarur.

MEHNAT GIGIENASI VA KASB KASALLIKLARI

MARDONOVA S.M., NIYAZOVA S.E

Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrasida o'qituvchisi

Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi

Mehnat gigiyenasi yoki kasbiy gigiena - gigienaning inson mehnat faoliyati va uning atrofidagi ishlab chiqarish muhitini ularning inson organizmiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganadigan, qulay va sog'lom mehnat sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan gigiena me'yorlari, chora-tadbirlarini ishlab chiqadigan bo'limi hisoblanadi.

Mehnat gigienasining asosiy vazifasi- mehnat sharoitlarining inson tanasiga ta'sirini sifat va miqdoriy baholashdan iborat bo'lib, uning asosida mehnat unumdorligining maksimal darajasini ta'minlaydigan chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Korxonada ishchilarga mehnat sharoitlarini yaxshilash, kasbiy kasalliklarni kamaytirish va bartaraf etish, shuningdek, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarda sanitariya nazoratini tashkillashtirish mehnat gigienasini to'g'ri tashkillashtirishning mezonini bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining mukammallashishi, mehnat o'rnini aqliy mehnat egallashi, ishlayotgan xodimning atrofida uning salomatligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatlarning (chang, shovqin, vibratsiya, havo harorati, ish joyi yoritishning kamligi, havo oqimining yetarlicha ta'minlanmasligi) bo'lishi albatta inson salomatligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Mehnat sharoitlarini yaxshilash O'zbekiston Respublikasida umumdavlat nazorati bo'lib hisoblanadi va Davlat sanitariya nazoratining asosiy vazifasi korxonalarda sanitariya qonunlariga rioya qilishni kuzatib borishdir. O'zbekiston Respublikasida ham davlat sanitariya nazoratini tashkillashtirish aynan Halqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan mavjud strategiyalar, yo'riqnomalar va vositalarga mos.

Mehnat faoliyati bilan bogliq bo`lgan zararli omillar ta`sirida kelib chiqadigan va rivojlanadigan kasalliklar kasb kasalliklari deb ataladi.

Umumiy mehnat gigiyenasi – ishlab chiqarish korxonalarida zararli va xavfli omillarga gigiyenik baho berish, ularni reglamentlash, ishchilarda kasallanishni o`rganish, shaxsiy himoya vositalarini qo`llash, sanitar- targ`ibot ishlarini olib borish, kimyoviy moddalarni, pestitsidlarni qo`llash va salbiy ta'sirini oldini olish uchun sog`lomlashtirish chora- tadbirlarini ishlab chiqish masalalarini o`rgatadi.

Xususiy mehnat gigiyenasi - davlat sanitariya nazoratini olib borish, ishlab chiqarish sanoat korxonalarini va qishloq xo`jalik sohasidagi mehnat gigiyenasi muammolarini hal etish, davlat sanitariya nazoratini olib borishda zaruriy qonuniy hujjatlarni qo`llash, sanitar tekshiruvlar o`tkazish tartibi va tekshiruv davomida rasmiylashtirish zarur bo`lgan birlamchi xujjatlarni to`ldirish bilan shug`ullanadi.

Korxonalarda ishchilarning ish joyidagi sharoitlarning yaratilganligiga bogliq bolibgina qolmaydi, ayrim holatlarda ishchilarning ma'lum bir kasallikka har xil darajada yo`liqishlarini kuzatish mumkin. Bu mehnat faoliyati turiga, ma'lum bir korxonaning xususiyatlariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish talablariga muvofiq ish joylarini tayyorlash va himoya qilish darajasiga bog`liq.

Kasbiy kasalliklar mehnat muhitidagi noqulay omillarning organizmga o'ziga xos ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

Kasbiy kasalliklar ta'rifida ikkita asosiy element mavjud:

-muayyan ish muhiti va organizm o'rtasidagi munosabat;

-ushbu kasalliklar aholining qolgan qismidagi o'rtacha kasallanish darajasidan yuqori bo'lgan odamlar guruhida uchraydi;

Kasbiy kasalliklarning umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emas. Eng keng tarqalgan tasniflash etiologik (ya'ni sabab, asosiy ta'sir etuvchi omil) tamoyiliga asoslanib, kasbiy kasalliklarning beshta guruhi farqlanadi:

1. Birinchi guruh - bu kimyoviy omillar ta'siridan kelib chiqadigan kasbiy kasalliklar (o'tkir va surunkali intoksikatsiyalar, shuningdek, turli organlar va tizimlarning alohida yoki birgalikda shikastlanishi bilan yuzaga keladigan oqibatlari);

2. Ikkinchi guruh chang ta'sirida yuzaga keladigan kasb kasalliklari (pnevmonioz-silikozi, silikozi, metallokonioz, elektr payvandlovchi va gaz kesuvchi pnevmokonyoz);

3. Uchinchi guruh - jismoniy omillar ta'siridan kelib chiqadigan kasbiy kasalliklar: tebranish kasalligi; kontakt ultratovushga ta'sir qilish bilan bog`liq kasalliklar - vegetativ polinevrit; koklear nevrit turidagi eshitish qobiliyatini yo`qotish - shovqin kasalligi;

4. To'rtinchi guruh - ortiqcha kuchlanish natijasida yuzaga keladigan kasb kasalliklari:

periferik asab va mushaklar kasalliklari - nevrit, radikulonevrit, vegetativ-sezgir polinevrit, servikobraxial plessit;

5. Beshinchi guruh - biologik omillar ta'sirida yuzaga keladigan kasbiy kasalliklar: yuqumli va parazitlar-sil, brutsellyoz, kuydirgi...

Shunga ko`ra kasb kasalliklarini spetsifik yoki nospetsifik kasbiy kasalliklar turiga ham bo`lish ham to`gri hisoblanadi.

Kasbiy kasalliklarning kelib chiqishiga qarab kasb kasalliklari o`tkir va surunkali bo`ladi:

O`tkir kasbiy kasallik (intoksatsiya) to`satdan, bir martalik (bir ish kuni, bir ish smenasidan ko`p bo`lmagan) ish joyi havosidagi kimyoviy moddalarning nisbatan yuqori kontsentratsiyasi, shuningdek, boshqa kimyoviy moddalarning miqdori va dozalari ta`siridan keyin to`satdan paydo bo`ladi. Noqulay omillar mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki doimiy yo`qotilishiga olib keladi.

Surunkali kasbiy kasallik (zaharlanish) deganda, davriy, uzoq vaqt davomida xodimning kasbiy mehnat qobiliyatini yo`qotishda olib keladigan zararli ishlab chiqarish o`milining organizmga salbiy ta`siri tushuniladi.

Kasb kasalliklarini aniqlash uchun mutaxassis ko`rigi, va umumiy patologiya bo`yicha chuqur bilimlar talab etiladi. Har xil mutaxassisdagi shifokorlar kasbiy kasalliklar yuzasidan puxta tayyorlanmasalar, kasb kasalliklarini kech, ya`ni bemorlar mehnat layoqatini yoqotganlaridan so`ng yoki bosha asossiz kasalliklarni kasb bilan boglashga sabab bo`lishlari mumkin.

Nogironlik holati kuzatiladigan bo`lsa, bemorlarning mehnat qobiliyatini yo`qotganlik darajasini aniqlash maqsadidabemorni shifokorlik konsultativ komissiyasining xulosasiga ko`ra, shifokorlik mehnat ekspertiza komissiyasiga yuboriladi. Nogironlik holati-kasallik oqibatida mehnat qobiliyatining qisman yoki butunlay buzilishiga aytiladi. Komissiya xulosasiga ko`ra bemorga 3(uch) gurux kasb nogironlik tayinlanishi mumkin.

Kasb kasalliklari uchun gurux nogironligini aniqlashda:

I gurux nogironligi surunkali kasalliklari bor, organizm funktsional tizimlarida chuqur o`zgarishlar kuzatiladigan, o`z-oziga xizmat qila olmaydigan va doimiy parvarishga muxtoj bo`lgan bemorlar (masalan, qon kasalliklarining ogir turlarida, o`tkir zaharlanishning oqibatlarini, ogir, qo`shilib kelgan jarohatlar yuzaga kelgan vaqtlarda)ga beriladi.

II gurux nogironligini aniqlashda nogironlik muddatsiz yoki uzoq muddatga mehnat layoqatini butunlay yo`qotgan va buning natijasida oddiy ishlab chiqarish sharoitida ishlay olmaydigan kishilarga beriladi.(masalan: bronxial astmaning tez-tez xuruj qilib turadigan turi..)

III gurux nogironligini Kasalliklarni keltirib chiqargan omillarni bartaraf etish va bemorga boshqa kasbga otish taklif etiladi. Chunki, ma`lum vaqt o`tishi bilan bemor o`z ishiga qaytsa, kasallik yana qaytalanishi mumkin. Bemor davolanayotgan va yangi ish sharoitida o`z kasbi va yangi ish sharoitida ish hajmini ma`lum muddat cheklash mumkin.

Korxonalarda yaratilayotgan sharoitlarning yaxshilanishi mehnatni muhofaza qilish va yaxshilash, shuningdek, tibbiy-profilaktik ishlarninguruxiy g olib borilishi kasb kasalliklarining kamayishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda birinchi gurux nogironlik holatlari korxonalarda qulay va shinam sharoitlarning yaratilganligi, ishchi xodimlar va ish beruvchilar o`rtasida mehnat gigiyenasi to`griidagi targibot-tushuntirish tadbirlarining davriy ravishda olib

borilishi nogironlik holatlarining kamayishiga sabab bo`lmoqda. Korxonalaridagi yaratilgan sharoitlar asab, onkologik, qon aylanish apparati, tayanch-harakat apparati va boshqa a`zolarida surunkali kasalliklarning rivojlanishiga va kechishiga ishlab chiqarishning noxush holatini oldini olish kasb kasalliklarini oldini olishga qaratilgan asosiy masalasidir.

Eng muhimi kasb kasalliklarini o`z vaqtida aniqlash, kasallikning kasbga aloqadorligini bilish, bemorning butunlay sogayib ketishi uchun davolash-soglomlashtirish ishlarini, shifoxonada, kurort-sanatoriylarda davolanishni tashkillashtirish, profilaktoriylarda davolash, dispanserizatsiya masalalarini yo`lga qo`yish zarur.

Ishlab chiqarishda yuz bergan 357 baxtsiz hodisa belgilangan tartibda maxsus tekshirilganda, shulardan 76 tasi o`lim bilan tugagan, 257 tasi oqibati ogir va 24 tasi guruxiy baxtsiz hodisalarni tashkil etdi. Yuz bergan baxtsiz hodisalar natijasida 105 nafar xodim halok bo`lgan, 277 nafar xodim ogir tan jarohati olgan va 9 nafari yengil tan jarohati olgan. 977 ta xolatda qurilishda, 1127 ta oliy va o`rta ta`lim muassasalarida, 716 ta neft-gaz korxonalarida, 552 ta transport sohasida, 444 ta sanoat korxonalarida va 356 ta savdo va hizmat ko`rsatish korxonalarida mansabdor shaxslar tomonidan qonun buzilishi sodir bo`lgan.

Fuqarolar hayoti va mehnat havfsizligini ta`minlash muammosi har bir jamiyat uchun dolzarb masala bo`lib, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, barqarorligiga, ilmiy-texnik, intellektual imkoniyatlarga ega ekanligiga bogliq. Ishlab chiqarishda mehnatni tartibsiz tashkillashtirish, amaldagi qonun-qoidalar, standart, ko`rsatmalarga rioya qilmasdan amalga oshirilishi ayrim holatlarda o`limga ham olib kelishi mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 30.04.2023.
2. KASB KASALLIKLARI, SH.K.Maxmudova, darslik, Toshkent, 2011.
3. MEHNAT GIGIYENASI, G.T.Iskandarova, darslik, Toshkent, 2019.

ЭКОЛОГИЯ И ЗДОРОВЬЕ НАСЕЛЕНИЯ

Нурмаматова К.Ч^{1.}, Рустамова Х.Е. ^{1.}, Зиядуллаев Ш.Х ²

¹Ташкентский государственный стоматологический институт, г.Ташкент

²Самаркандский государственный медицинский университет,
г.Самарканд

Республика Узбекистан

Огромные масштабные изменения в промышленном производстве, увеличение автомобильного и другого транспорта, химизация производства, сельского хозяйства и быта человека оказывают значительное влияние на экологию окружающей среды и соответственно на здоровье человека. Ряд химических соединений имеют свойства накапливаться в организме человека (кадмий, свинец, ртуть и др.), которые могут быть причинами появления новых видов заболеваний и отравлений, росту имеющих патологий, таких как онкологические, аллергические и ряд других заболеваний.

В последнее время окружающий нас мир, экологические условия меняются со стремительной скоростью. Такие интенсивные изменения приводят к воздействию на организм человека все новых и новых физических и химических факторов, которые в недавнем прошлом не были в природе. К ним относятся ионизирующая радиация, электромагнитные волны и поля, ультразвук, вибрация, аэрозоли, высокие шумовые нагрузки. Почти 500-600 тысяч новых химических веществ и соединений используются в производстве и в быту.

Многие вредные соединения, накапливаясь в организме человека, действуют медленно, и через определенное время вызывают у людей различные заболевания (циррозы печени, аллергические заболевания, заболевания легочной системы, отравления и другие заболевания, связанные с воздействием окружающей среды). Ряд химических соединений оказывают тератогенное воздействие, что приводит к рождению детей с врожденными патологиями. Наиболее известны из них пестициды (сельское хозяйство), полихлорбифенилы (синтетические вещества, пластмассы), диоксины (отходы от сжигания мусора), радиоизотопы (бесконтрольно распространяющиеся в окружающей среде после аварий атомных электростанций).

Комплексное загрязнение окружающей среды является одним из ведущих факторов повышения аллергической заболеваемости среди детей и подростков. Распространенность АЗ в различных климато–географических и экономических регионах мира варьирует в пределах от 10 до 25% от числа населения развитых стран. В Узбекистане также распространенность аллергических заболеваний среди населения, особенно среди детского имеет тенденцию к увеличению. Уровень аллергических заболеваний относительно высок в г.Ташкенте, который является крупным индустриальным городом, обладает достаточно проблемной воздушной средой, связанной не только с климатогеографическими и метеорологическими особенностями, но и с промышленными и транспортными выбросами.

Для определения зависимости между состоянием воздушной среды и аллергических заболеваний нами была прослежена корреляционная зависимость распространённости аллергического ринита и бронхиальной астмы по районам города в зависимости от уровня запыленности и загазованности в этих районах. Установлено, что при между уровнем заболеваемости АР среди детей имеется прямая корреляционная зависимость средней силы с уровнем запыленности и слабая прямая зависимость с уровнем загазованности ($P > 0,05$). Для бронхиальной астмы выявлена та же зависимость: слабой силы с уровнем запыленности и сильная связь с уровнем загазованности ($P > 0,05$).

Таким образом, экология воздушной среды напрямую влияет на заболеваемость детей АР и БА, чем выше процент проб, не отвечающих стандартам по загазованности тем выше уровень заболеваемости. Выявленные нами различия в распространенности и структуре заболеваемости, проживающих в разных районах г. Ташкента, отличающихся только по состоянию запыленности и загазованности воздушной среды, дали основание полагать, что общее состояние ребенка, его иммунная система реагирует на экологические

факторы и приводят к изменениям в ее работе, это отражается на уровне реактивности и резистентности детей и на уровне и структуре неинфекционной заболеваемости, том числе аллергической.

KIMYO ZAVODIGA YAQIN HUDUDLARIDA YASHOVCHI BOLALAR VA O'SMIRLARDAGI ANTROPOMETRIK KO'RSATGICHLARI VA SOG'LOMLIK HOLATI

Naimova Zaynab Sattarovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Samarqand, O'zbekiston.

Kimyo sanoatining rivojlanishi havo, suv, tuproq, o'simliklar- ekotizimlarning ifloslanishining doimiy o'sishi bilan birga o'sib bormoqda Ekotizimlarda (suv, tuproq, atmosfera havosi) kelib chiqarilgan va o'zgariganekotoksik moddalar tirik organizmlar bilan o'zaro ta'sir qiladi. Kimyoviy moddalar - Ochiq atmosferada sanoat chiqindilarida topilgan ekotoksik moddalar past konsentratsiyalarda ham zaharli va allergen hisoblanadi. So'nggi yillarda mineral o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi, umumiy hajmi yiliga 148 million tonnadan ortdi. Kontaminatsiyalangan hududda ammos fos changi, florosulfat gazlari, ammiak va sulfat kislota bug'larini o'rganish natijasida bu moddalar zavoddan 10 km uzoqroqda havoda borligini ko'rsatdi. Tadqiqot maqsadi: Havoni ammos fos chiqindisi bilan ifloslantiruvchi kimyo zavodiga yaqin hududlarida yashovchi bolalar va o'smirlarning antropometrik ko'rsatkichlarini qiyosiy o'rganish. Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot kimyo sanoati rivojlangan yirik sanoat shahri Samarqandda olib borildi. Kimyoviy mineral o'g'itlar zavodidan turli masofalarda joylashgan 2 ta tumanidagi sog'lom, ushgan bolalar va o'smirlar jamoasini kuzatish asosida tadqiqotlar olib borildi. Birinchi-asosiy guruh – sanoat hududining sanitariya himoya hududidan 3 km masofa ichida yashovchi bolalar va o'smirlar; ikkinchi-nazorat guruh - shaharning ma'muriy qismida bo'lib, ushbu korxonadan 25-30 km uzoqlikda yashovchi bolalar va o'smirlar urganildi. Bolalarning sog'lig'ini tekshirish bolalar va o'smirlar gijiyenasi instituti tomonidan tavsiya etilgan uslubiy tavsiyaga muvofiq amalga oshirildi. Tibbiy ko'rik tibbiy brigada shifokorlari tomonidan o'tkazildi. Bunda, 1466 nafar bolalar va o'smirlarning sog'lig'i holati o'rganildi, ulardan 831 nafari nazorat hududida istiqomat qiladi. Bolalarning yoshi 3 yoshdan 16 yoshdagilarni tashkil etdi. Kuzatuvdagilarning jismoniy rivojlanish darajasini baholash uchun an'anaviy antropometriyadan foydalanildi. Olingan natijalar va mulohazalar: Nazorat hududidagi bolalar sanoathududidagi tengdoshlariga qaraganda o'rtacha 0,92-4,44 sm uzunroq edi. Tana vazni va bo'y balandligi bo'yicha ham xuddi shunday manzara kuzatildildi. Boshlang'ich maktab o'quvchilari bo'lgan 7 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarning bo'y balandligi statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatiladi. Shu bilan birga, ularning bo'yi farqi 2,2-3,3 sm bo'lib, 7 yoshga kelib ular tengdoshlaridan 2,6 sm (0-6,1 sm) pastroq edi. Sanoat hududlarida 15 yoshli bolalarning tana vazni xuddi shu yoshdagi nazorat hududlaridagi bolalarga qaraganda 3,4 kg ga kamligi aniqlandi. Boshqa yosh guruhlarida tana vaznining o'zgarishi 0,5 dan 1,6 kg gacha farq kuzatildi. Buni statistik jihatdan ishonchsiz deyish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bolalanasining jismoniy rivojlanishi ko'p jihatdan atrof-muhit sifatiga bog'liq. Shu bilan

birga, ontogenezning turli bosqichlarida uning ta'sir qilish xarakteri bir xil emasligidan darak beradi. Ushbu faraz nazorat hududidagi maktab o'quvchilari orasida 14 yoshli o'spirinlarning jismoniy rivojlanishi "o'rtachadan past" va "past" darajada atigi 3,3%ni tashkil etgani va ko'pincha ifloslangan hududda bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda jismoniy rivojlanishda 22,4% va 8,9% nisbatdagi statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatiladi; 7-9 yosh va 13-15 yosh Shu sababli, yuqoridagi yosh guruhlaridagi bolalarning jismoniy rivojlanishi batafsil o'rganildi.

Sanoat hududida ko'rikdan o'tkazilgan bolalarning o'rtacha 79,3% da va nazorat guruhida 88,1% da jismoniy rivojlanish normal edi. Shu bilan birga, sanoat hududida vazn farqi 10,5%, ortiqcha vazn - 7,0%, jismoniy rivojlanishdagi umumiy kechikish - 3,2%, nazorat hududida tegishli ko'rsatkichlar - 5,8%; 4,7%; Shuningdek, sanoat hududida normal jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan bolalar soni yoshga qarab kamayib borishi (asosan, vaznning kamayishi) qayd etildi bu havosining surunkali toksik ta'siriga bog'liq, ayniqsa o'smirlar davrida sezilarli. 13-15yoshdagi bolalarda normal jismoniy rivojlanish 73,5-75,1% oralig'ida bo'lsa, nazorat mintaqasida bu ko'rsatkich 82,1-91,1% ni tashkil qiladi. Xulosa: Atmosfera havosining antropogen ifloslanishining ta'siri, ayniqsa, bolalar va o'smirlar organizmining kimyoviy omillar ta'siriga sezuvchanligi kuchaygan davrda salomatlikning yomonlashishiga olib keladi. Atmosfera havosining ifloslanishining bolalar salomatligiga kimyoviy ishlab chiqarish chiqindilarining ta'siri nafaqat turli xil tabiiy, iqlim va ijtimoiy xususiyatlar, balki kimyoviy moddalarning xilma-xilligi tufayli ham mintaqaga xosdir. Natijalar sanoat hududidagi maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning salomatlik holati nazorat hududidagi bolalarnikidan past ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar keng ko'lamli sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish va tibbiy ko'rikni to'g'ri tashkil etish uchun hayotning birinchi yillaridanoq eng ko'p ifloslangan hududlarda yashovchi xavfli guruhdagi bolalarni aniqlash zarurligini tasdiqlaydi.

ПИЩЕВЫЕ ВОЛОКНА – ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ ИНГРИДИЕНТ

Нажмитдинова Гулжахон Комилжон кизи

ФерПИ

Фергана, Узбекистан

Тема здорового питания становится все более популярной. Повышение качества продуктов питания, обогащение их и производство физиологически функциональных пищевых продуктов – направление, которому сегодня производители уделяют все большее внимание. В настоящее время отмечаются важнейшие нарушения пищевого статуса населения нашей страны: избыточное потребление животных жиров и дефицит полиненасыщенных жирных кислот, полноценных белков, витаминов (С, В1, В2, Е, фолиевой кислоты, ретинола, β-каротина и др.), минеральных веществ (Са, Fe), микроэлементов (I, F, Se, Zn), пищевых волокон. Это связано с тем, что в системе питания преобладают промышленно приготовленные и в большинстве своем рафинированные продукты. Среди продуктов питания людей, проживающих в экологически неблагоприятных зонах, должна быть продукция, обогащенная растительными

волокнами и биологически активными веществами, которые способствуют повышению иммунитета и играют огромную физиологическую роль в организме человека.

К числу ингредиентов, придающих продуктам функциональные свойства, относятся и так называемые пищевые волокна. Традиционно принято определять пищевые волокна как растительные полисахариды и лигнин, которые не могут быть метаболизированы пищеварительной системой человека. Пищевые волокна адсорбируют значительное количество желчных кислот, а также прочие метаболиты, токсины и электролиты, чем способствуют выводу вредных веществ из организма. Благодаря своим ионообменным свойствам, пищевые волокна способны выводить ионы тяжелых металлов и радионуклиды.

В настоящее время функциональное питание - наиболее динамично развивающаяся отрасль пищевой индустрии. Гибкий и одновременно стабильный технологический процесс выработки высококачественных мучных кондитерских изделий невозможен без целенаправленного применения микроингредиентов - пищевых добавок, улучшителей, различных видов сырья. Они имеют широкий спектр функциональных свойств, обладают возможностью воздействовать на компоненты сырья, модифицировать свойства полуфабрикатов, придавать определенное качество готовым изделиям, устранять отрицательное влияние добавок, повышающую пищевую ценность готовых изделий. Современные пищевые добавки позволяют не только решить технологические задачи, но и повысить прибыльность производства. В состав продуктов функционального питания могут входить: балластные вещества, аминокислоты, пептиды, протеины, витамины, молочнокислые бактерии, жирные ненасыщенные кислоты, минералы, жизненно важные вещества из растений и антиоксиданты. Из балластных веществ наиболее распространены пищевые волокна, источником которых в питании являются продукты переработки злаковых культур, различных трав, а так же овощи, фрукты и ягоды. Каждодневное употребление продуктов, содержащих пищевые волокна, способствуют снижению риска возникновения заболеваний толстой кишки и уровня холестерина в крови, обладают гиполипидемическими действиями, что позволяет использовать их в профилактике и лечении ряда заболеваний. Отмечено, что пищевые волокна влияют на течение таких заболеваний как атеросклероз, ишемическая болезнь сердца, гиперлиппротеидемия, гипертоническая болезнь, варикозное расширение, тромбоз вен нижних конечностей, развитию рака кишечника, предотвращению ожирения.

ATROF-MUHITNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI VA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR

Muxammadova G.Q., O`rinboyev F.SH.

Farg`ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti

Farg`ona Jamoat salomatligi tibbiyot instituti

tibbiy profilaktika ishi yo`nalishi 5-kurs talabasi.

Atrof-muhitning ifloslanishi eng boshidan beri mavjud bo'lib kelgan. Biroq bugungi kunga kelib bu o'zini jiddiy muammoga aylantirdi va insoniyatning omon qolishiga tahdid soladi. Bu biz nafas olayotgan havoga, biz iste'mol qiladigan oziq-ovqat va biz ichadigan suvga ta'sir qilib tabiiy resurslarning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Resurslar, o'simlik va hayvon turlarining yo'q bo'lib ketishi global miqyosdagi zarar yetkazadi. Ekotizimlar va yer biokimyoviy jarayonlar bilan tahdid solmoqda. Shu ma'noda, chiqindilarni ishlab chiqarish va boshqarish katta ahamiyatga ega. Atrof-muhitga va uning natijasida inson salomatligiga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Inson faoliyati juda salbiy oqibatlariga olib keladi, u asosan havo va suvni ifloslaydi. Buning natijasida atrof muhit ifloslanishi, nazoratsiz o'rmonlarning kesilishi va ularning qishloq xo'jaligi yerlariga aylanishi, ozon qatlamining buzilishi, global isish, sayyoramiz, iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar, to'planishi turli chiqindilar (shu jumladan radioaktiv), ma'lum bir o'simlik va hayvonlar turlarining yo'qolishiga olib keladi. Bular insonning omon qolishiga jiddiy xavf soladi va bugungi kunda biz isrofgarchilik dunyosida yashayapmiz deb bahslashimiz mumkin. Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muxit, asosan, insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transportlar va ulardan chiqayotgan chiqindilardir. Har kuni katta miqdordagi chiqindilar ishlab chiqariladi va atrof muhitni ifloslaydi. Bu havoning, suvning, tuproqning, oziq-ovqatning ifloslanishi, ob-havo hodisalarining keskin o'zgarishi, radiatsiya, magnit va boshqa nurlanish darajasining oshishini keltirib chiqarib inson salomatligiga juda katta ta'sir ko'rsatadi va turli xil kasalliklar kelib chiqishiga olib keladi.

XXI asr insoniyat faoliyatining har bir sohasida, ayniqsa, tibbiyotda buyuk kashfiyotlar qilib, milliardlab mablag'lar sarflanishiga qaramay, insonlar organizmiga kasalliklar xavf solishi va hayotdan bevaqt ko'z yumushlar ko'paymoqda. Qisqa muddatli ta'sirlar natijasida kelib chiqqan konjenital anomaliyalar, astma, nafas olish yo'llari infeksiyalari, stress, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, ko'z va nafas olish tizimi bilan bog'liq va bosh surunkali kasalliklardir. Ushbu o'zgarishlarning asosiy oqibatlari umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo'q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi kasalliklarning ko'payishiga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga va o'simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog'liq muammolariga olib keladi. Jahon statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan o'lmoqda. Shuningdek, bizning sog'lig'imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% esa o'zimizga va atrof muhit hodisalariga bog'liq.

Aholi (iste'molchilar) organik chiqindilarni bilishi kerak, foydalanilgan chiqindilarni parchalanishi va keyin o'g'it sifatida ishlatilishi mumkin, shuningdek, bu holat mavjud ifloslanish darajasini pasaytirishda, chiqindilar hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi va atrof-muhitning buzilishiga qarshi kurashda samarali yechimlardan biri sanaladi. Ishlab chiqaruvchilar ham muhim rol o'ynashini ham yodda tutish kerak. Shunday qilib, materiallarni qayta ishlash va qayta tiklash darajasini oshirishga pul tikish

chiqindilarni hosil qilish darajasining pasayishiga olib keladi va natijada inson salomatligini yaxshilashga imkon beradi.

- Mashinalarni elektro mobillarga o'tkazish,
- Kam yonilg'i sarflaydigan divigatellar ishlab chiqish,
- Zavodlarning pechka mo'rilariga filtrlarni o'rnatish,
- Polietilen salafanlarni ekologik toza maxsulotlar qog'oz, matoga o'zgartirish,
- Yashil maydonlarni ko'paytirib bog' tashkil etish,
- Chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish va ularga e'tibor qaratib qo'llab quvvatlash.

Shu kabi atrof-muxitga va inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rastuvchi omillarga qarshi ishlarning olib borilishi ekologiyaning, atrof-muhitimizning tozalanishga olib keladi

Xulosa o'rnida shuni, ta'kidlamoqchimizki aholi salomatligini saqlashda atrof muhitning tozaligi eng muhim omillardan biri xisoblanadi. Ekologik madaniyat insonlarda yoshlikdan, oiladan shakllanishi kerak. Bizni xulosa sifatida beradigan yangiligimiz shuki yashayotgan xududingizda tozalikka, ozodalikka, farzandlarimizni yoshlikdan tarbiyalash maqsadida shahar va qishloq xududlarida axlat tashlash joylarini faqat maxsus idishlardan iborat bo'lib qolmasdan ekologiyaning buzulishiga ta'sir ko'rastuvchi omillar tasvirlangan g'oyalar aks etgan rasmlar tasvirlansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki uydagi chiqindilarni tashlash uchun ko'pincha ota-onalar farzandlariga tayinlashadi. Ular esa ko'p xollarda chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlab ketishadi. Ular bu to'planayotgan chiqindi mahsulotlarini zararli oqibatlarini rasmlar yoki 3D formatda ishlangan ko'rgazmalarni ko'rganda chiqindilarni turli yo'l chetlariga tashlab ketishlari salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi hamda tabiatni asrab avaylash to'g'risida ijobiy fikrlar paydo bo'lishi uchun oz bo'lsada turtki bo'lar edi. Shu bilan birga yashil o'simliklarning kishi salomatligiga ijobiy ta'siri, chiqindi moddalaridan ajralib chiqadigan gazsimon zararli moddalarni qayta o'zlashtirishdagi roli to'g'risida keng qamrovli ishlar olib borish albatta o'z samarasini beradi.

ОРОЛБЎЙИ АХОЛИСИНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШДА ЭТИО-ЭКОЛОГО-ПАТОГЕНЕТИК ЁНДОШУВНИНГ НАЗАРИЙ ВА ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР МУЛОХАЗАЛАР

Ташиева Н.С., илмий ва даволаш ишлари бўйича проректор, профессор,
Марказий Осиё халқаро медицина университети, Джалал Абад шаҳри,
Қирғизистон Республикаси.

Мадаханов А.С., ижтимоий гигиена ва соғлиқни сақлашни бошқариш
кафедрасининг катта ўқитувчиси, т.ф.н., Андижон давлат тиббиёт институти,
Андижон шаҳри
Ўзбекистон Республикаси.

мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. **Тадқиқотнинг мақсади.** Оролбўйи аҳолисини соғломлаштиришга доир чора тадбирларнинг самарадорлигини оширишда этио-эколого-патогенетик ёндошувнинг назарий ва ташкилий асосларини яратиш.

Материаллар ва тадқиқот усуллари. Оролбўйи аҳолисинининг сихат-саломатлигига оид турли манбаалардан олинган маълумотлар ва уларни тизимли таҳлил ва тизимли ёндошув тамойилларига таянган ҳолда ўрганиш ва инновацион таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқиш.

Натижалар. Бугунги Ўзбекистон билан Қозоғистон ҳудудида жойлашган Орол денгизига XX асрнинг 60-йилларигача Амударёдан 38, куб км. Сирдарёдан 14,5 куб км. сув келиб қуйилган, 5,5 куб км. ер ости сувлари ҳам қўшилиб турган. Мутахасисларнинг фикрича, кейинчалик бир томондан собиқ Совет тизими даврида сувни кўп талаб қиладиган пахта ва шоли етиштириш, Марказий Осиёда жойлашган республикалар ҳаётининг асосий мазмунига айланиб қолиши натижасида Орол денгизи шаклланишининг асосий манбайи ҳисобланган ушбу дарёлардан сувнинг қуйилиш миқдорининг кескин камайиб кетиши кузатила бошлади. Иккинчи томондан, шу даврда минтақа ҳудудида кечаётган чўллашув жараёни ҳам ўзини янада яққолроқ намоён қилиши қайд этилди. Олимларнинг фикрича, асосан ушбу икки сабаблар оқибатида Орол денгизинининг сатҳи, бугунги кунда қариб 150 км.гача камайиб кетган. Ушбу ҳол ўз новбатида, бир пайтлар гуллаб -яшнаган ҳудуд аҳолиси яшаш шароити ва турмуш тарзининг ёмонлашувига олиб кела бошлади.

Маълумотларга қараганда, Орол денгизининг қуриб қолган тубидан ҳар йили қариб 75 млн. тонна таркибида зарарли моддаларни сақлайдиган чанг кўтарилар ва 1000 км масофали атроф муҳитга тарқалар экан.

Юқорида қайд этилган табиий-иқлим шароитларининг ўзгариши, ҳудудда яшаётган аҳоли яшаш шароити ва турмуш тарзининг ёмонлашуви, ҳамда улар организми морфо-функционал хусусиятларининг ўзига ҳос жиҳатлари каби ички ва ташқи омил ва шароитлар мажмуасининг таъсирида қатор касалликларни келтириб чиқаришига сабаб бўлмоқда. Шунинг учун ҳам, Оролбўйи аҳолисининг сихат-саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш, нафақат Ўзбекистон Республикаси учун балки бутун регион учун, давримизнинг энг муҳим ва долзарб муаммолари-дан ва уларга ечим топиш эса муҳим вазифа бўлиб қолмоқда.

Биз тиббиёт вакилларининг фикримизча, минтақа аҳолисининг сихат-саломатлигини, бугунги ҳолати нуқтаи назардан баҳолаш ва уни шакллантириш, сақлаш ва мустаҳкамлаш масалаларига янгича – **ЭТИО-ЭКОЛОГО-ПАТОГЕНЕТИК ЁНДАШУВ** керак. Ушбу ёндашув туб мазмун ва моҳияти жиҳатидан Орол денгизи фожиаси ва у билан боғлиқ аҳоли соғлиғининг ёмонлашувининг оддини олиш, беморларни даволаш ва соғломлаштириш, ҳамда реабилитация амалларининг сифатли бажарилишига ва самарали бўлишини таъминлашда, минтақадаги салбий омиллар таъсиридан фориқ ҳудудларнинг соғломлаштирувчи омил ва хусусиятларидан кенг фойдаланишни назарий жиҳатдан асослашни ва амалда ташкил этишни тақозо этади.

Маълумки, минтақага кўмаклашиш Ҳамкорлик дастурининг биринчи фазасига биноан 2012 йилдан бошлаб 2016 йилгача БМТ нинг Ўзбекистондаги турли йўналишларда фаолият олиб бораётган агентликларининг ҳаракатлари бирлаштирилди. Сўнгра, “Орол денгизи фожиасидан жабрланганларнинг ҳаётга чидамлилиқ потенциалини Оролбўйи кишиларининг ҳафсизлигини таъминловчи кўп партнёрлик жамғармасини яратиш орқали мустаҳкамлаш” дастурнинг иккинчи фазаси бошланди. Дастурнинг биринчи ва иккинчи босқичларининг ҳаётга тадбиқ этилиши албатта минтақа аҳолисининг сиҳат-саломатлигини ижобий томонга ўзгаришига олиб келади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йилнинг 29 августида қабул қилган 255-сонли Қарорида белгиланган комплекс дастур асосида олиб борилган тадбирлар Орол фожиасининг асоратларини юмшатиш, Оролбўйи минтақасини 2015 –2018 йилларда тикланиши ва ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг мустаҳкам асосини яратди. Натижада, Оролбўйи аҳолисининг сиҳат-саломатлиги даражаси кўтарилишига ижобий таъсир этаётганлиги кўзатила бошлади.

Муйнақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг ташаббуси билан Орол денгизининг қуриб қолган туби ҳудудларида кўкаламтириш ишлари давом этмоқда. Саксаул кўчатларидан яратилаётган ўрмонли ҳудудлари тубидан атмосферага заҳарли тузлар ва қумнинг учирилиш жараёнини тўхтатиш бўйича ўзининг самарасини бера бошлайди. Жумладан, мутаҳасисларнинг таъкидлашича ушбу ўрмонлар заҳарли тузлар ва қумнинг атмосферага кўтарилиш жароёнини икки йилдан кейиноқ 20% га, беш йилдан кейин 70 % га камайтиради, 10 йилдан сўнг эса, бутунлай тўхтатиб қола олади.

Оролбўйи минтақасида маҳсус дастурлар асосида кенг кўламли ободонлаштириш, ижтимоий-иқтисодий, маданий маърифий тадбирларнинг тизимли равишда, изчиллик билан олиб борилаётганлигига қарамасдан, шимолий ва жанубий ҳудудларда қатор масалалар ўзларининг долзарблигини сақлаб қолмоқда. Бу борада, айниқса, ушбу минтақа аҳолисининг сиҳат-саломатлиги билан боғлиқ масалалар олимлар, мутаҳасислар ва кенг жамоатчилик эътиборини ҳар қачонгидан кўпроқ тортмоқда.

Фикримизча, Оролбўйи аҳолисини этио-эколого-патогенетик ёндошув асосида соғломлаштириш ишларини ташкил этишда Муйнақ ва Аральскда фаолият юритаётган даволаш- профилактика муассалари билан Арал денгизи тубидан кўтарилаётган чангнинг зарралари етиб бормайдиган олисликдаги масофада жойлашган сиҳатгоҳлар , туристик дестинациялар ўртасида кластер тизимини яратиш зарур. Ушбу мақсадда, нафақат Ўзбекистон ва Қозоқистон республикалари, балки Қирғизистон , Тожикистон ва бошқа давлатларнинг, айнан Арал денгизи тубидан кўтарилаётган чангнинг зарралари етиб бормайдиган масофада жойлашган сиҳатгоҳлар ва рекреацион дестинацияларнинг имкониятларидан фойдаланиш мумкин. Бу борада, кластернинг самарали фаолият қилишини таъминлаш, информацион-коммуникация технологиялари имкониятларидан кенг фойдаланишни тақозо этади. Ушбу ҳол ўз новбатида, соҳа мутаҳасисларини ва ходимларини

тайёрлашдек ва уларни техника, ҳамда махсус дастур билан таъминлаш вазифасини кўяди. Оролбўйи худудида фаолият юритадиган даволаш-профилактика муассалари, аввало Ўзбекистон Республикаси ва қўшни давлатлардаги сихатгилхлар ва рекреацион дестинацияларнинг фаолият турлари ва имкониятларини аниқ билишлари ва йил давомида уларга минтақа аҳолиси орасидан на фақат беморларни, балки соғлом ва амалда соғлом гуруҳига мансуб кишиларни ҳам юборишни ташкил қилади. Оролбўйи аҳолисини Орол денгизи фожиасининг асоратлари сифатида юзага келган зарарли омиллар таъсиридан, кенг маънодаги вақт ва масофа орқали химоя қилишни ташкил қилишда, минтақадан илмий жиҳатдан асосланган олисликдаги масофада жойлашган сихатгоҳлар ва рекреацион дестинацияларнинг роли ва маъсулияти катта. Ушбу муассасалар ва дестинацияларда дам олиш ва даволаниш-соғломлаштиришга келганларга кўрсатиладиган ёрдамнинг турлари, ҳажми ва сифати ҳам илмий жиҳатдан асосланган ва бунда аввало ўша жойларнинг табиий шифобахш воситаларидан фойдаланишга кенг ўрин берилиши керак.

Хулоса ва таклифлар. Оролбўйи аҳолисини соғломлаштиришнинг назарий ва амалий масалаларига этио-эколого-патогенетик ёндашув мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Ушбу ёндашувнинг самарадорлиги Оролбўйи минтақасидаги даволаш-профилактика муассасалар билан бу ердан илмий жиҳатдан асосланган олисликдаги масофада жойлашган сихатгоҳлар ва рекреацион дестинациялар фаолиятининг ўзаро ҳамкорлик даражасига боғлиқ. Оролбўйи аҳолисини соғломлаштиришда этио-эколого-патогенетик ёндашувнинг назарий ва амалий томонлари ва уларга таъсир этувчи омиллар динамикаси мониторингини олиб бориш мақсадга

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КАЛИЕВОЙ СОЛИ 1,1'-
ФЕРРОЦЕНДИКАРБОНОВОЙ КИСЛОТЫ В КОМПЛЕКСЕ С СВЧ
ОБЛУЧЕНИЕМ ДЛЯ ПРЕДПОСЕВНОЙ ОБРАБОТКИ СЕМЯН ЛЬНА
ДОЛГУНЦА (*LINUM USITATISSIMUM* L.)**

Пушкина Н.В.¹, Дикусар Е.А.²

¹НИУ «Институт ядерных проблем» БГУ, г. Минск, Беларусь

²ГНУ «Институт физико-органической химии НАН Беларуси», г. Минск,
Беларусь

Предпосевная обработка семян играет важную роль в растениеводстве, особенно, такой требовательной к возделыванию культуры, как лен-долгунец. Лен является одной из важнейших технических культур Республики Беларусь. Одной из задач данной отрасли является увеличение продуктивности льна, при этом снижение себестоимости обработки. Для достижения этих целей большое значение имеет активное внедрение в производство прогрессивных технологий возделывания льна, среди которых может использоваться комплексное воздействие электромагнитных волн сверхвысокочастотного диапазона (ЭМП СВЧ) с калиевой солью 1,1'-ферроцендикарбонической кислоты. Калиевая соль 1,1'-ферроцендикарбонической кислоты это производная ферроцена – одного из наиболее известных металлоорганических соединений, представитель класса сэндвичевых структур, а именно – производное бис-η⁵-

циклопентадиенилжелеза(II)₂Fe. Благодаря присутствию в молекуле 1,1'-ферроцендикарбоновой кислоты атома железа, это соединение проявляет парамагнитные свойства (намагничивается во внешнем магнитном поле в направлении внешнего магнитного поля ($J \uparrow H$) и имеет положительную магнитную восприимчивость, но значительно меньшую единицы). Под воздействием СВЧ-облучения атом железа в ферроцене и его производных способен колебаться с частотой этого облучения в миллиметровом диапазоне волн внешнего воздействия. Эти колебания могут работать как своеобразный «будильник», запускающий процесс прорастания семян после облучения семенного материала, инкрустированного раствором ферроценсодержащего препарата. 1,1'-ферроцендикарбоновая кислота была выбрана, прежде всего, из-за ее нетоксичности и возможности получения водорастворимых препаратов на ее основе – в виде калиевой соли.

В связи с этим целью данного исследования являлось изучение комплексного экзогенного воздействия на прорастание семян льна-долгунца после облучения электромагнитным полем сверхвысокочастотного диапазона в сочетании с калиевой солью 1,1'-ферроцендикарбоновой кислоты. В качестве объекта исследований использовались семена льна-долгунца (*Linum usitatissimum* L.) сорта «Грант» белорусской селекции, районированного для выращивания во всех областях нашей страны.

Семена льна-долгунца сорта «Грант» были инкрустированы в водном 2% растворе калиевой соли 1,1'-ферроцендикарбоновой кислоты [Fc(CO₂K)₂], после этого обработаны электромагнитным полем сверхвысокочастотного диапазона (ЭМП СВЧ) с частотой обработки 53–78 ГГц, время воздействия 12 минут. Обработка производилась в НИУ «Институт ядерных проблем» БГУ. Необработанные семена служили контролем.

В результате проведенных лабораторных и полевых исследований видно, что комплексное воздействие ЭМП СВЧ облучения с калиевой солью 1,1'-ферроцендикарбоновой кислоты повышает не только всхожесть (на 8-9%), но и урожайность льна-долгунца сорта «Грант». Возрастает количество коробочек на 27,7%, урожайность семян и тресты повышается максимально на 2,1 ц/га, а масса 1000 семян на 5%.

Все это говорит о высоком потенциале комплексной обработки семян с использованием ЭМП СВЧ облучения и калиевой солью 1,1'-ферроцендикарбоновой кислоты в качестве предпосевной обработки семян для стимуляции всхожести, ростовых параметров и последующей урожайности растений льна-долгунца сорта «Грант». Требуются дальнейшие исследования по изучению влияния предлагаемых видов обработки семян на поражаемость растений льна-долгунца различными видами патогенов, а также возможность применения данной комплексной обработки на других видах сельскохозяйственных культур.

BOLALARDA NOTO‘G‘RI OVQATLANISHNING SALOMATLIGIGA TA‘SIRI

¹Teshaboyev Azizbek

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya” kafedra asistenti.

²Raxmonqulova Xumora Abduqahhor qizi.

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi” fakulteti talabasi.

Bolalarda normal ovqatlanish ratsioni, ovqatlanish ratsionining buzilishi, noto‘g‘ri ovqatlanishdan kelib chiqadigan kasalliklar, bolalardagi surunkali kasalliklar, bolalarda to‘g‘ri ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish. Har bir bola intensive o‘sadi va rivojlanadi. Bolaning normada o‘tib rivojlanishi uchun unga kunlik ma‘lum miqdorlarda energiya kerak bo‘ladi. Kkal energiyalar qabul qilinayotgan oziq-ovqatdan oladi. Buning uchun muntazam ovqatlanish lozim. Bola uchun eng yaxshi variant kunlik to‘rt mahal ovqatlanishdir. Oshqozon sekretsiyasi bilan miyaning oziq ovqat markazlarida o‘zaro ta‘sir mavjud. Bolani fiziologik talablariga va yoshiga qarab ovqat ratsionini belgilash kerak. Shu bilan birga shuni hisobga olish kerakki istima chiqayotgan kasalliklarda oshqozon ichaklarida sekretsiya va motor funksiyasi susayganligi belgilangan.

Tadqiqot maqsadi:

Bolalarda surunkali kasalliklar kelib chiqish sabablarini o‘rganish, yoshga nisbatan erta kasallikni oldini olish, ovqat ratsionidagi gigienik talablar, to‘g‘ri ovqatlanishni yo‘lga qo‘yish.

Tadqiqot o‘tkazish.

Bolalarda kunlik to‘rt mahal ovqat ratsionida nimalar bo‘lishi kerak?

NONUSHTA: Bolaga sut va don mahsulotlari, saryog‘, pishloq, tuxum va mevalar tavsiya etiladi.

TUSHLIK:3-4 soatlik o‘qishdan so‘ng o‘quvchining ko‘rsatgichlari pasaya boshlaydi, shuning uchun u sarflagan energiyani qoplash kerak. Bu vaqtda bola yog‘siz go‘sht va pishloq bo‘lagi, qatiq va yangi meva iste‘mol qilish mumkin.

KECHKI OVQAT: Oshqozon ichak traktini zo‘riqtirmaslik uchun oson hazm bo‘ladigan taom iste‘mol qilish kerak. Buning uchun baliq, sut mahsulotlari, omlet sabzavotliu makaron va yotishdan ikki soat oldin ovqatlanmaslik talab etiladi. 7-11 yoshli bolalar uchun o‘rtacha kunlik energiya 2300kkal, 11-14 yoshli bolalarga 2500kkal energiya kerak bo‘ladi. Bolaning eng yaxshi assimiliatsiyasi sut va baliq oqsilidir. Yog‘siz kurka, quyon va mol go‘shti tavsiya etiladi.

Bolaning ratsionidan chiqarib tashlash kerak bo‘lgan mahsulotlar: qaymoq, chips, bodroq, caramel, kanserva, hom dudlangan go‘sht saqich, sousli pishirilgan mahsulotlar va tez tayyor bo‘ladigan (fast foodlar) mahsulotlar. Lekin aksari bolalarda fast foodlar ovqat ratsionining asosiy qismini egallamoqda. Buning natijasida bolalarda yetarli darajada energiya bilan ta‘minlanmasligi, imunitetni zaiflashuvi, gastrit va boshqa turdagi oshqozon ichak kasalliklari, ularning surunkali turlarga aylanish holatlari keng avj olib bormoqda.

Tajriba uchun biz ikki nafar bolani kuzatdik. Ularning biri ona tomonidan to‘g‘ri ovqatlanishga rioya qilishga o‘rgatilgan. Ikkinchisi esa onaning beparvoligi tufayli bolada to‘g‘ri ovqatlanishga rioya qilinmagan. Muntazam ravishda togri ovqatlangan bolaning jismoniy va aqliy o‘zgarishlari normada kechgan va vaqti kelganda olgarilab

ketgan. Muntazam ravishda noto'g'ri ovqatlanib kelgan bolada daslab jismoniy rivojlanishlar sustalsha boshlagan. Bolada tez tez hansirash, charchoq bu bolada yoshga nisbatan erda semizlikni olib kelganligidan dalolatdir. Qorin och qolgan paytlarida bola gazli ichimliklarni muntazam ravushda ichib boorish esa bolada gastrit va uning surunkali turiga o'tishiga olib kelgan. Bunday holatda bolada imunitet sustlashishi, yetarli darajada energiya bilan ta'minlanmasligi, kinlik oqsillar me'yoriga yetmasligi, gipovitaminoz holatlari rivojlanadi. Buning natijasida bolada tengdoshlariga nisbatan aqliy rivojlanishda orta qolishi ehtimoli ortadi.

Tadqiqot muhokamasi:

Bolaning yoshiga nisbatan bunday kasalliklari ortirishida onaning yetarli darajada ovqat ratsioni haqida ma'lumotga ega emasligi yokida ma'lumotga ega bo'lgan holatda ham bolaning ovqatlanishiga beparvolik bilan qarashi, bolaning nonushta, tushlik va kechki ovqatni to'g'ri tashkillanmasligi, bolaga to'g'ri ovqat ratsioniga o'rgatmaslik sabab bo'ladi.

Xulosa :

Shunday qilib bolada yoshga nisbatan erda surunkali kasalliklarini oldini olish uchun jamiyat orasida to'g'ri ovqatlanish to'g'risida tushuntirish ishlari olib borish, bog'cha va maktab ovqat ratsionini ko'zdan kechirish va nazorat qilish, bolalar uchun tez tayyor bo'ladigan xususan hod dog, lavash, gamburger, chizburger, kartoshka frilar va turli zararli gazli ichimliklarni kamaytirish va vaqti kelsa taqiqlashni yo'lga qoyish kerak.

BIOXILMA-XILLIKNI ASRASH INSONIYAT OLDIDA TURGAN ENG DOLZARB MUAMMO

Ramazonov Baxtiyor Ramazonovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasi dotstnti, Chirchiq shahri, O'zbekiston

Bugungi kunda dunyo olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bu juda murakkab ekologik muammolar, shuningdek, Yer sayyorasi inqirozining oldini olish va uning amalga oshirilishini ta'minlashdir. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish 22-may – Xalqaro bioxilma-xillik kunida so'zlagan nutqida “ko'z o'ngimizda butun ekotizimlar yo'q bo'lib ketmoqda, o'simlik va hayvonot dunyosi yo'q bo'lib ketish arafasida, suv-botqoq erlar qurib, cho'l hududlari kengayib bormoqda”, dedi. Har yili 10 million gektar o'rmonlar yo'qoladi, okeanlar plastik chiqindilar bilan to'ldiriladi va atmosferaga tobora ko'proq karbonat angidrid gazi chiqarilib, ular atrof-muhitga chiqariladi. Shu bilan birga, tabiatni muhofaza qilishga kamroq mablag' sarflanadi, bu esa uni buzadi”, - deydi u. Tabiat hayot manbai bo'lib, insoniyatni zarur resurslar bilan ta'minlabgina qolmay, balki ko'plab muammolarni hal qilishga yordam beradi, degan edi. Hozirgi vaqtda iqlim o'zgarishi juda katta fojialarga sabab bo'lmoqda. Ona sayyoramizda havo haroratining yil sayin oshishi, muzliklarning erishi, suv resurslarining noto'g'ri taqsimlanishi, chuchuk suvning kamayishi, ishlab chiqarish kun sayin ortib bormoqda va buning natijasida zavod va fabrikalar atmosferaga nihoyatda ko'p miqdorda issiqxona gazlarini chiqarishi, bu atmosferada to'planadi, Ko'pgina mamlakatlarda yer yuzida qurg'oqchilik sodir bo'ladi, havo haroratining ko'tarilishi va ular tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarining nobud bo'lishi natijasida

hasharotlar soni ko'payadi, o'rmon yong'inlari biologik xilma-xillikka zarar yetkazadi, oziq-ovqat tanqisligi va qashshoqlikning oldini oladi, atmosferadagi sof kislorod miqdorining kamayib borishi, ocharchilik, qashshoqlik ta'sirida yuqumli kasalliklarning ko'payishi, turli xil tabiiy ofatlarning ro'y berishi dolzarb bo'lib qolmoqda va bugungi kunda insoniyat uchun muammo bo'lib qolmoqda. Oqibatda insoniyat azoblanishi bilan birga o'simlik va hayvonot dunyosiga ham ta'sir qiladi va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keladi. Faqat odamlar emas, hayvonlar ham o'simlik va hayvonot dunyosiga jiddiy xavf tug'diradi. Binobarin, bugungi kunda Amudaryoning quyi oqimida, Jrol bo'yida o'ta og'ir ekologik vaziyat global miqyosdagi muammolardan biriga aylangan. Buning asosiy sababi inson omilidir. Orol dengizining qurishi nafaqat O'zbekiston tabiatiga, bu hududda yashovchi aholi salomatligiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga, balki mamlakat iqtisodiyotiga ham katta zarar yetkazdi. Mana bir necha yildirki, xorijiy hamkorlik bilan birgalikda bu yo'qotishning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan yirik davlat dastur va loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu boradagi muammolarni hal etish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'tgan yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida yangi qo'mita – Orol hududini rivojlantirish qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mitaning asosiy maqsadi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirishda parlament ishtiroki va nazoratini kuchaytirishdan iborat.

Prezidentimiz Orolbo'yini rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. Orol bo'yi aholisining turmush sharoiti va sifatini yaxshilashga qaratilgan 2017-2021-yillarda Orol bo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi tasdiqlandi. Orolbo'yi mintaqasi uchun BMTning Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik trust fondi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Orol bo'yi xalqaro innovatsiya markazi tashkil etildi. O'tgan yil 23 sentabrda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida global iqlim o'zgarishi va Orol muammosiga alohida to'xtalib o'tgan edi. Uning ta'kidlashicha, so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, Orol dengizining qurigan tubidagi o'rmon plantatsiyalarining umumiy maydoni 1,2 million gektarga yetgan, umumiy qiymati 800 million dollarlik 67 ta yirik loyiha amalga oshirilgan. Xorijiy hamjamiyat vakillari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan joriy yilning 18 mayida bir ovozdan ma'qullanganini olqishladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Orol hududini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'lon qilish to'g'risidagi tashabbusi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbus barcha vazirlik va idoralar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, joriy yilning 21 may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish qo'mitasi, Turizm va sport vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Madaniyat vazirliklari tomonidan Ichki ishlar vazirligi Orolbo'yi bilan birgalikda Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga yordam ko'rsatdi. Karvon yo'lga chiqdi. Jumladan, Orol dengizining qurigan tubidan ko'tarilgan sho'r qumlardan himoyalangan "yashil qoplamalar" – bunyod etilgan o'rmonlarni qurish jarayonida Mo'ynoq viloyati o'rmonchilari va aholisi saksovul urug'lari, shuningdek, qamish, cherkes, tamaris va boshqa urug'lar tayyorlagan. cho'lga chidamli o'simliklar. O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi Orolbo'yida o'rmon

